Mustaqil O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan avlodni tarbiyalash nozik, nihoyatda katta diqqat-e’tiborni talab qiladigan, ichki ziddiyatli jarayondir. Shunday ekan, o‘qituvchi o‘quvchi yoki talabaning shakllanish jarayonini zo‘r havas va sinchkovlik bilan kuzatishi lozim. U pedagogik jarayonni boshqarar ekan, pedagogik bilim va mahorat egasi bo‘lishi lozim. Shundagina o‘qituvchi pedagogik hodisalarning mohiyatini va dialektikasini, pedagogik mehnat metodi, kasb va texnologiyasini va professional pedagogikani tushunib yetadi. Pedagogik bilim va mahorat egasi bo‘lgan o‘qituvchi, avvalo, pedagogika fanining metodologik asoslarini, shaxs rivojlanishining qonuniyatları va omillarini, kadrlar tayyorlash milliy dasturining mohiyati, maqsad va vazifalarini bilishi kerak. Ta’lim tizimida mehnat qilayotgan pedagoglarning ko‘pchiligi ta’lim va tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning zaruriyati va ahamiyatini tobora chuqur anglab bormoqdalar.

Shu sababli ular o‘z mahoratlarini uzlusiz oshira borishga, hozirgi kunning yuksak talablariga mos zamonaviy bilim va tajribalarni o‘zlashtirishga, ijodiy mehnat qilishga intilmoqdalar. Ammo shuni ham e’tirof etishimiz kerakki, o‘quv yurtlarida ayrim o‘qituvchilar o‘z pedagogik mahoratlarini oshira borishning ahamiyatini yetarli darajada his qilmaydilar, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning talablarini chuqurroq o‘rganishga qiziqmaydilar, o‘quv jarayonining ilmiyligiga, zamon talablariga mosligiga, turmush va amaliyot bilan bog‘lanishiga yuzaki qaraydilar, o‘qitilayotgan o‘quv fanlarining ilmiy va g‘oyaviy-tarbiyaviy birligini doimo esda tutmaydilar. Bu esa ular qo‘lida ta’lim olayotgan o‘quvchi va talabalarning bilim darajasi va saviyäsining yetarli bo‘lmashligiga, o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishdan orqada qolishlariga sabab bo‘lmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlarning birinchi va ikkinchi bosqichlari vazifalari muvaffaqiyatli hal qilinib, uchinchi bosqichdagi o‘zgarishlar davom etmoqda. Bu bosqichda o‘quv-tarbiya ishlarini butunlay yangi asosda tashkil qilish, yuqori sifat ko‘rsatkichiga erishish talab qilinadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yuksak umumiy madaniyatga va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, siyosiy hamda ijtimoiy hayotda to‘g‘ri yo‘l topa bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda puxta o‘zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g‘oyani ilgari suradi.

Ushbu pedagogik g‘oya ta’lim tizimi oldiga:

- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan huquqiy-demokratik davlat qurilishi jarayonlariga moslash;
- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy-- iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;
- ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va uslublarini ishlab chiqish hamda joriy qilishni hal etish vazifalarini ko‘ndalang qilib qo‘ydi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta’limning dunyo ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar(PT)ga yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o‘zlashtirish zarurligi ko‘p marta takrorlanib, ularni o‘quv muassasalariga olib kirish zarurati uqtirilgan.

Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni yaratish va ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llashga intilmoqdalar.Bular orasida J.G.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov, N.S.Sayidahmedov, R.H.Jo‘rayev, Q.Y.Yo‘ldoshev kabi ta’lim-tarbiya jarayonlari fidoylarinining nomlari alohida hurmat va e’tiborga molikdir.

«Pedagogik texnologiya» atamasining mohiyati nimada? «Texnologiya»-yunoncha so‘z bo‘lib, «techne»-mahorat, san’at, «logos»-tushuncha, o‘rganish, demakdir. Nega bugungi kunga kelib, pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik darajada kuchaydi, degan mulohaza tug‘ilishi tabiiy. Jamiyatimizga

qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o‘ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo‘ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo‘l kutilgan samara bilan xizmat qila olmaydi. Chunki buning zamirida ma’lum sabablar mavjud, ya’ni;

1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olish uchun, aholi ta’limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi;
2. Fan-texnika taraqqiyotining o‘ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko‘payib borayotganligi;
3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta’limga tatbiq etish, ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi(AT) va texnik vositalalar(TV)dan foydalanish kerakligi;
4. Talaba va o‘qituvchi faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchi ta’lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta’lim usullari, metodlari va vositalarini yaxshi egallagan bo‘lishi, talabaning qiziqish va intiluvchanligini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltira olishi lozimligi;
5. O‘qituvchi ta’lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta’lim natijasini oldindan qayd etishi, o‘quv predmetlarini to‘liq o‘zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta’lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi kerakligi;
6. O‘quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo‘lishligi;
7. Ta’lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va ob’ektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini egallah jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi;
8. O‘sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg‘or bilim berish usuli hisoblangan ob’ektiv borliqqa majmuiy yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir.

Demak, zamonaviy pedagogik texnologiya yuqorida keltirilgan shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta’limiy tadbir hisoblanadi. Bugungi kunda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan biri ta’lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash,

tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda ta’lim oluvchilarni o‘qitishni jadallashtirish sanaladi.

Respublikamizda ta’lim jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashga doir keng ko‘lamda ish olib borilmoqda. Ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslari, har bir pedagogik texnologiyaning o‘ziga xos jihatlari ishlab chiqilib, yetarli darajada tajribalar to‘plandi. Ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etishda xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari yaqindan yordam ko‘rsatmoqda.

«Pedagogik texnologiya» so‘zlar birikmasining asosida «texnologiya», «texnologik jarayon» tushunchalari yotadi. Ushbu tushunchalar orqali sanoatda tayyor mahsulotni olish uchun bajariladigan ishlarning ketma-ketligi haqidagi texnik hujjat, ta’limda esa fan bo‘yicha uslubiy tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyani tushunish uchun assosiy yo‘l-aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, ta’lim oluvchi bilan muntazam o‘zaro aloqani o‘rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan ta’lim oluvchining xatti-harakati orqali o‘qitishdir. O‘zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o‘quv jarayonini to‘liq qamrab olishi kerak. Bugun har bir sog‘lom fikrlovchi inson yangi asrda o‘zi, yaqinlari, kasbdoshlari, tengdoshlarining jamiyatdagi o‘rni va salohiyati qanday bo‘lishini o‘ylashi tabiiy. O‘tgan asrning ahamiyati, qadr-qimmati, tarixiyligi esa O‘zbekistonning mustaqil davlat maqomiga ega bo‘lganligi bilan baholanadi. Mustaqil davlat o‘zining asosiy qonuni -Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan bir qancha muhim tarixiy hujjatlariga ega bo‘ldiki, ular orasida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» alohida o‘rin tutadi. Undagi g‘oyalari, avvalo, XXI asrda yashaydigan, ijod qiladigan, Vatan va yurt mustaqilligini mustahkamlovchi insonlarning manfaatini ifodalaydi. Dasturda e’tirof etilgan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarida ta’lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish, ta’lim - tarbiya dasturlarining intelektuallashuvini ta’minalash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash kabi muhim vazifalar kun tartibiga qo‘yildi. O‘tgan asrni sarhisob qilib, yangi yuz yillik va ming yillikning qanday bo‘lishini tasavvur etarkanmiz, uning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida yangi ta’lim dasturlarida nazarda tutilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari, ta’limni kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari tizimida ta’lim jarayonini axborot bilan ta’minalashning rivojlanishini nazarda tutmoq o‘rinlidir. Zero, milliy dasturni ro‘yobga chiqarishga doir tashkiliy ishlarda e’tirof etilganidek, «Ta’limni axborot bilan ta’minalash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog‘lash, ommaviy axborot vositalarining ta’lim sohasidagi vazifalarini belgilash» malakali kadrlar

tayyorlashning muhim mezonlaridandir. Demak, yangi asr-informatsion texnologiyalar asri bo‘ladi. Bu masalaning bir tomoni. Masalaning ikkinchi bir muhim jihat shundaki, yangi asr xalkaro intellektual-iqtisodiy korporatsiyaning yaratilish asri, ya’ni jahon miqyosidagi aql-zakovatning birlashuvi asri bo‘ladi. Xo‘sh, axborot texnologiyalari nima-yu, ularni inson idroki, tafakkuri va ongiga singdirishda nimalarga e’tibor qaratilishi lozim?

Bugun biz yangi texnologiyalarga sarflanayotgan mablag‘lar qay darajada o‘zini oqlashini, ularning ta’lim sifatini oshirish va axborot hamda kommunikatsiya texnologiyalari hamda masofaviy ta’limni rivojlantirishga ta’sir qanday ko‘rsatishini tasavvur qila olishimiz shart. Ko‘p hollarda «ta’limning kompyuter texnologiyalari» iborasi «axborot texnologiyalari» iborasi bilan aralashtirilib yuboriladi. Bu o‘rinda, asosan, an’anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli, kompyuter tarmoqlariga ulangan, dasturlashtirilgan, xalqaro aloqalarni ham ta’minalashga qodir tizim nazarda tutilmoqda. Bu holat so‘nggi yillarda jamiyat hayotida kompyuterlarning ahamiyati ortib borishi, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida turli xil axborotlarga nisbatan ehtiyojning kuchayishi bilan izohlanadi. Bugun biz bir narsani aniq tasavvur qilishimiz kerak. Mavjud holat, axborotlar oqimining negizlashuvi inson xotirasiga ortiqcha yuk, shaxsning tafakkuri va fikr yuritishi jarayonlarida keskin o‘zgarishlarga sabab bo‘lmasmikan? Ongga yetib kelayotgan axborotlar shaxsning mavjud madaniy-ma’rifiy muhitga moslashuvi jarayonida qay tarzda aks etishini bilishimiz va shunga mos tarzda ta’lim-tarbiya muassasalarida o‘quv dasturlari va jihozlariga nisbatan talablarni ishlab chiqishimiz lozim. Shu o‘rinda biz axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga singdirishning afzalliklarini e’tirof etishni xohlardik. Eng avvalo, ta’lim jarayonida kompyuterlar va axborot-kommunikatsiya vositalarining qo’llanilishi, talabalarning ular bilan bemalol ishlay olishlari pedagogik jarayondagi eng muhim kamchiliklardan hisoblangan sub’ektivizmni cheklaydi. Masalan, agar talabaning javobi yoki bevosita o‘zlashtirishini baholash o‘qituvchining talaba shaxsiga munosabati ta’sirida kechgan bo‘lsa, mashinalar vositasida beriladigan ma’lumotlar ob’ektiv xarakterga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, kompyuter orqali bolaga yetkazilayotgan ma’lumotni zarurat bo‘lganida, qayta - qayta chaqirish va takrorlash imkoniyati ham bor. Bu narsa ayrim talabalarda, guruh sharoitida ishlaganda kuzatiladigan iymanish kabi sifatning namoyon bo‘lmasligini ta’minlaydi.

Uchinchidan, har bir professor-o‘qituvchining o‘zigagina xos bo‘lgan tushuntirish uslubi, metodik yondashuvi mavjud. AKT vositalaridan foydalanish pedagogik jarayonlar ichidagi samarasiz uslubiyotlarga barham beradi.

To‘rtinchidan, yangi axborotlarni uzatish texnologiyalari bilimlarni o‘zida ifoda etib, unda sxemalar, rasmlar, jadvallar, grafik va diagrammalarga keng o‘rin beriladi. Bu narsa yoshlarda obrazli xotirani ancha jonlantirib, ularning eslab qolish qobiliyatini kuchaytirishi mumkin.

Beshinchidan, ushbu axborot vositalaridagi ma’lumotlarni kichik hajmli disketlarga yozib olish va ulardan zarur o‘rnarda foydalanish mumkin. Bu ham vaqtini, ham mablag‘ni tejaydiki, iqtisodiy jihatdan yuzlab tirajlarda chop etilayotgan kitoblardan arzon bo‘ladi. Eng muhim, manfaatdor auditoriya xohlagan ma’lumotini bir xil sifat va tizimda olishi mumkin bo‘ladi.

Nihoyat, ular “axborot asri” deb e’tirof etilayotgan yangi asrda yashab ijod qiluvchi yoshlarning ongini o‘stiradi, ulardagagi texnik vositalardan cho‘chish hissini yo‘qotadi. Xullas, ta’lim muassasalarining bu narsaga sarflangan mablag‘lari behuda ketmasligi ehtimoldan xoli emas. Agar biz har bir yosh qalbida Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat, pok iymon va odamgarchilikni tarbiyalay olsak, ular halqaro axborot tizimlari orqali bizning fikrlash tarzimiz, urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan ma’lumotlarni tanqidsiz qabul qilmaydigan, yurtimiz istiqboliga xizmat etadiganlarinigina saralab olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Buning uchun biz yoshlарimizda barqaror mafkuraviy immunitetni tarbiyalashimiz kerak.

Ma’lumki, pedagogikada boshqa ilm sohalaridan olingan ko‘plab atamalardan foydalanadi, bu narsa pedagogikani boshqa fanlar bilan chuqur aloqada ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bunday atamalar texnika va iqtisodiyotdan eng ko‘p miqdorda kirib keladi, chunki ayni shu sohalar ijtimoiy fikrning rivojlanishiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadi. Chunonchi, bugun o‘qitish jarayonining tejamliligi va maqsadga muvofiqligi hamda oqilona tashkil etilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchi, texnika va texnologiya, ta’lim iqtisodiyoti, o‘qitishni kompyuterlashtirish va shunga o‘xshashlar bilan bevosita bog‘lanib qolgan.

Adabiyotlarda “Yangi tartib-qoida”, “Yangilik”, “Innovatsiya” tushunchalarining ma’naviy mazmunini aniqlashning turlicha talqinlari mavjud. Yangi tartib-qoida, moddiy ma’noda, ijobiy va ilg‘or yangilikni, bu tushunchani qabul qiladigan va undan foydalanadigan tashkiliy sistema uchun yangi bo‘lgan g‘oya, faoliyat yoki moddiy ob’ektni anglatadi.

“Yangi tartib-qoida”, “Innovatsion jarayon” atamalari aynan o‘xshash, ya’ni bir xil ma’noga ega. Innovatsiyalar ta’lim amaliyoti paydo bo‘lganidan buyon o‘tgan uzoq davr davomida unga yangiliklar kiritish, mavjud ta’lim tuzilmasini maqsadga muvofiqlashtirish, ba’zan juz’iy, ba’zan esa keng ko‘lamli o‘zgartirish, takomillashtirish va yaxshilash elementlarini joriy etish evaziga

sifatni ko‘tarish uchun u bilan yonma-yon kelmoqda. Yangilik – bu texnik, texnologik ixtiro va yutuqlardan amaliy foydalanishdir. U pedagogik kategoriya sifatida ta’limga yangilik kiritishni anglatadi. Yangilik ko‘pincha yangi metodlar, usullar, vositalar, yangi konseptsiyalar, yangi o‘quv dasturlari, tarbiya usullari va boshqalarni kiritish hamda qo‘llashga xosdir.

Keyingi o‘n yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bag‘ishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Progressiv pedagogik texnologiya», «Yangi axborotlar texnologiyasi» va «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar» kabi tushunchalar uchrab turadi. Ammo, ularga hozirgi kungacha to‘liq ta’rif berilmagan. Respublikamizning pedagog olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O‘zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta’lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta’lim-tarbiya amaliyotida qo‘llashga intilmokdalar. Mazkur dasturning maqsadi:

- 1) ta’lim sohasini tubdan isloh qilish;
- 2) uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish;
- 3) rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma’naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish kabilardir.

Ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarish quyidagi vazifalarni hal etishni nazarda tutadi:

- 1) O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash;
- 2) ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan, demokratik-huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;
- 3) kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, pedagogik faoliyatning tashkiliy va ijtimoiy maqomini ko‘tarish;
- 4) kadrlar tayyorlash tizimini hozirgi talablar doirasida qayta qurish;
- 5) ta’lim oluvchilarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashning samarali uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- 6) tizimni attestatsiya va akkreditatsiya qilishning yagona metodikasini joriy qilish;
- 7) normativ va moddiy - texnika axborot bazasini yaratish;
- 8) ta’lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta’minlash;
- 9) tizimga budgetdan tashqari investitsiyalarni jalb qilish;
- 10) kadrlar tayyorlash sohasida o‘zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Yuqoridagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib, yangi ta’lim modeling tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat etib belgilandi:

- 1) shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi;
- 2) davlat va jamiyat-ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi, kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;
- 3) uzluksiz ta’lim-malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari va standartlarini o‘z ichiga oladi;
- 4) fan-yuqori malakali mutaxassislarning tayyorlovchisi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarining ishlab chiquvchisi;
- 5) ishlab chiqarish-kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, ular sifatiga qo‘yilgan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, tizimni moliyalashtiruvchi va moddiy-texnik baza bilan ta’minlash qatnashchisi.

Nazarda tutilgan vazifalar to‘liq amalga oshsa:

- 1) ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta’sir qiladi va natijada mamlakatdagi mavjud muhit butunlay o‘zgaradi;
- 2) insonning hayotdan o‘z o‘rnini topish jarayoni tezlashadi;
- 3) jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxs shakllanadi;
- 4) ta’limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro‘yobga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi;
- 5) oldimizda turgan har qanday vazifani bajarishda va maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a’zosi qo‘shadigan hissa «portlash effektiga» olib keladi.

Bu jarayonda yangi pedagogik texnologiyalarning bir qancha muammolari o‘z yechimini topadi. Ular-ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarining yanada mustahkamlanishi, o‘quv-tarbiya jarayonini yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liq ta’milanishi, milliy (elita) oliy ta’lim muassasalarining qaror toptirilishi va rivojlantirilishi, kasb-hunar ta’limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishining ta’milanishi va o‘zini-o‘zi boshqarish shakllarining mustahkamlanishi kabi vazifalardir. Bunda ta’lim jarayonini axborotlashtirish va uzluksiz ta’lim tizimini jahon axborot tarmog‘iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog‘i bilan to‘liq qamrab olish ham ko‘zda tutilgan.

Ta’limda innovatsion jarayonlar innovatsion kasb-hunar va pedagogik ta’limda amaliyotga tatbiq etiladi, uning maqsadi ta’lim, ishlab chiqarish, iqtisodiyot va jamiyatda innovatsion jarayonlarni amalga oshirishga qodir ilmiy tafakkur uslubiga ega, rivojlangan kasbiy madaniyatga ega, barkamol mutaxassisni tayyorlashdir. Yuqoridaqilarni xulosa qilsak, zamonaviy pedagogik innovatsiyalarda innovatsiya pedagogik faoliyatni yangilashning yaxlit nazariy, texnologik va uslubiy tushunchasi sifatida ifodalanishi, uning belgilangan darajada bajarilishini ta’minalash, yangi bir narsani o‘qitishning maqsadi, mazmuni, usullari va shakllariga kiritish vositasi va jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi va tarbiya, o‘qituvchi va talaba faoliyatini tashkil etadi.

Innovatsiya - bu ta’lim tizimiga individual qismlar, tarkibiy qismlar va umuman ta’lim tiziminining xususiyatlarini yaxshilaydi, barqaror elementlarni (yangiliklarni) kiritadi, ataylab o‘zgartiradi.

Pedagogik innovatsiyalarning mezonlari yangilik, optimizm, samaradorlik, kontseptuallik, izchillik, insonparvarlik, an’ana bilan uzviylik, ilmiy tus va ilmiy-uslubiy ta’mintonning etarliligi, amalga oshirish va tarqatish uchun shart-sharoitlar sifatida infratuzilmaning mavjudligidir.

### **3-Mavzu: Pedagog va tarbiyachilarining innovasiyalarga munosabati.**

#### **Mavzu rejasi:**

1. Pedagog va tarbiyachilarining innovasion darjasи.
2. Pedagog va tarbiyachilarining innovasiyalarga bo‘lgan munosabatini rag‘batlantirish. Innovasiyalar uchun qulay shart-sharoitlar omili.
3. Innovasiyalar tashabbuskorlari. Pedagog va tarbiyachilarini yangiliklarni qabul qilish va qo‘llash uchun tayyorlash.
4. Innovasiyalarini tanlash va amalga oshirish usullari va mezonlari.

**Tayanch tushunchalar:** boshqaruv, bilish, strategik, reja, predmet, tamoyil, rag‘bat, metod, qonuniyatlar, funksiyalar, rejalahtirish, boshqarish, loyihalashtirish.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlami kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- Talabaning dars davomida befarqi bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;
- Talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;
- Talaba talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;
- Pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishi.

Tadqiqotchilar (AL. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi. Ikkinci yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangilarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashidir. Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konseptsiyasini farqlaydilar. Bu konseptsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g'oya tuqilishi yoki yangilik konseptsiyasini paydo qilish bosqichi. U kashfiyat bosqichi deb ham yuritiladi.
2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.
3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llaybilish bosqichi.
4. Yangilikni yoyish, uni keng tadbiq etish bosqichi.
5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligin yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.
6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

V.A.Slastyonin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi esa insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi. Yangilik kiritishning tizimli konsepsiysi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar. Birinchi shaklga yangilik kiritish oddiy ishlab chiqish sifatida kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir. Ikkinci shaklga yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o'rinn tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Xususiy yangilik V.A. Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi. Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi shartli yangilik hisoblanadi. Mahalliy yangilik konkret ob'ektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi. Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ekt uchun ob'ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir. Lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmua yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova pedagogik yangilikka, o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lмаган va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyatga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi. Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova innovatsion jarayon tuzulmasining uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yordi, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatları va turlaridir. M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;
- sub'ektiv tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathjari;
- sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;
- bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi - yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - etuklik - o'zlashtirish - diffuziya (singib

ketish, tarqalish) - boyish (to'yinish) - qoloqlik - inqiroz — irradiasiya(aldanish) — zamonaviylashtirish;

- boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalanadirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;
- tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ega bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir. Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayoni kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;
- qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;
- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni.

Ayovsiz bemaromlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo'linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va himmatini keng yoyadi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipgatushirish va amaliy harakatga o'tish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklaming amalga oshish yo'liga to'siq bo'lishga majbur bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuning mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilarini innovatsiya jarayonining ikki tipini farqilaydilar:

Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart-sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi. Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir. Oliy maktabdagisi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;
- shaxsiy faoliyat jihatidan (ta 'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;
- ko'psub'ektl (dialogik) yondashuv, ya'ni kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;
- individual - ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari asosida) yondashuv.

Oliy maktabda innovatsion faoliyatning sub'ekti o'qituvchi va uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

S.M.Godninning ishlarida talabaning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning sub'ekti sifatida yoritiladi. Unga quydagilarni kiritadi: o'qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv - taibiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning vangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinichiliklarni a'lo darajada enga bilish, o'sish va mustahkam o'rinni egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o'zining sotsial roli funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo'lish va hokazo.

Innovation pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini- o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo'nalishlaridan bilan talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish.

Bunday yo'nalish talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

Tayanch yo'nalishlar - ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning o'zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o'tish.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yo'nalishi gumanistik aksiologiya ekan, degan xulosaga olib keladi.

Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamul-jamini anglatadi.

Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akte) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

B.G. Ananev, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan inson hayotining eng ijodiy davrlari, etuklik bosqichlari to'g'risida fikr yuritadilar. Ular etuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlar, professionalizmga etishdagi balandliklardan ota olish masalalari bilan shug'ullanganlar.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassis-ning uzoh ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'larning sifatini, sub'ektiv omillarga esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi ma'suliyatini, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

#### **4- Mavzu: Pedagogik innovasiyalar va ularning joriylanishini tashkil etish.**

##### **Mavzu rejasi:**

1. Innovasion jarayon ob'ekti.
2. Innovasion jarayonning jamoa tomonidan amalga oshirilishi bosqichlari.
3. Boshqaruv maslahati. Innovassiyalarni tashkil etish va joriy etishning kompleks - maqsadli dasturlari.

**Tayanch tushunchalar:** Mutaxassis, innovasiya uzlusiz, kadr, sifat, predmet, metod, qonuniyatlar, tamoyillar.

XX asr oxirida sanoati va intellektual rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy musobaqa fan, texnika, texnologiyalar va buning oqibati o'laroq, ta'limgoh sohasiga ko'chdi, chunki raqobatga bardosh beradigan kadrlarni tayyorlamay turib, raqobatlashuvga qodir iqtisodiyot ham bo'lmaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda mutaxassislar tayyorlashda shaxs va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy hamda madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi kasb-hunar ta'limi dasturlari rang-barang bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu rang-baranglik kasb-hunar ta'limi moslashuvchan bo'lishiga olib keladi va o'zgarib borayotgan sharoitga tez moslashishni ta'minlaydi. AQSh,

Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Angliya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda mutaxassis tayyorlash tajribasi ta'limning eng muhim vazifasi intellektni va mantiqiy fikrlashni mashq qildirishdan iboratligini ko'rsatmoqda. Bu masalani hal etishda o'quvchilarning mustaqil ishslashining roli muhim bo'lib, u mutaxassis o'zining kasbiy, ma'naviy va madaniy saviyasini butun umri davomida takomillashtirib borishi uchun juda zarur bo'lgan mustaqil bilim olish ko'nikmasini rivojlanadiradi.

O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, raqobatbardosh kadrlarni mamlakatimizda va chet ellarda fan, texnika, texnologiya hamda iqtisodiyotning rivojlanishini hisobga olgan holda mutanosiblik tarzida kadrlarni tayyorlashni amalga oshiradi. Raqobatbardosh mutaxassislarning yangi avlodi istiqbol masalalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga, yuqori fikrlash madaniyati hamda ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy axborot bobida mustaqil yo'naliш olish mahoratiga ega bo'lishi darkor.

Zamonaviy mutaxassis tabiiy-ilmiy va kasb-hunar bilimigagina emas, balki o'zining ma'naviyati va madaniyatini belgilovchi gumanitar bilimlarga ham ega bo'lishi darkor. Axloqiylikdan mahrum mutaxassis qabul qilinayotgan qarorlarning haqiqiy oqibatlari uchun o'ziga ham, jamiyatga ham javob bera olmaydi. Mamlakatimiz ta'lim tizimining maqsadi, vazifalari, jarayoni va natijasining tub farqi shunda.

Respublikadagi hunar-texnika bilim yurtlari asosan ikkinchi razryadli, malakasi past ishchi kadrlarni tayyorlar edi. Ularni ishlab chiqarishda yuqori malakali qilib «etishtirish» uchun ko'p vaqt va mablag' talab etilardi. Past sifatli mutaxassislarni tayyorlash, ayrim istisnolar bilan oliy ta'limga ham xos edi. Buning sababi ko'p darajada:

- Mutaxassislarni ommaviy chiqarish, respublika iqtisodiy va ijtimoiy hayotining asossiz ehtiyojlari, bu hol soxta lavozimlar nomenklaturasi ortishiga olib keldi. Bu omil oliy ma'lumotning nufuzi va uning sifat ko'rsatkichlariga qo'yiladigan talab pasayishini keltirib chiqardi;
- Oliy ma'lumoti mutaxassislar mehnati natijalari ham miqdor, ham sifat jihatdan qadrsizlanishi. Yangi texnika va texnologiyani yaratadigan mutaxassis o'zining ijodi natijalarini ro'yobga chiqaradiganlardan kam maosh olardi. Ayni mahalda yuqori malakali mutaxassislarning ko'pchiligi o'rta bo'g'in mutaxassislariga xos kasbiy vazifalarni bajarishardi;

- Mutaxassislar tayyorlash va ulardan foydalinishda raqobatchilik sharoiti yo‘qligi, bu hol ularning ta’limi sifatiga qo‘yiladigan talablar jiddiy pasayishiga olib keldi.

Mazkur sabablardan tashqari, tayyorlash jarayonida sifatni yaxshilash ko‘zda tutilmagan, bir xil darajadagi qat’iy cheklangan oliv ta’lim tizimi ham mutaxassislar tayyorlash sifatining pasayishiga olib keldi. Odatda, qancha qabul qilingan bo‘lsa, shuncha mutaxassis chiqarilardi (ozgina saralanish bundan mustasno), to‘g‘rirog‘i, shuncha oliv ma’lumot to‘g‘risidagi diplom berilardi. Bunda, odatda, raqobatbardosh potensial mutaxassislar barcha bitiruvchilarning 7—12 %dan oshmasdi.

Kasb-hunar ta’limining barcha darajalarida shunday kadrlar tayyorlashning natijasi ko‘pchilik bitiruvchilarning sifati pastligi hamda raqobatga dosh berolmaslidigan iborat bo‘ldiki, bu mustaqil O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishida jiddiy iqtisodiy ziyon yetkazdi.

AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasi barcha darjalardagi kadrlar tayyorlash sifati va ularning raqobatbardoshligiga:

- Ta’lim, fan va ishlab chiqarishning jips aloqasi;
- Ta’lim tashkilotlari tiplarining va fan, texnika, texnologiya hamda iqtisodiyotning eng so‘nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan kasb-hunar ta’limi dasturlarining xilma-xilligi;
- kasb-hunar ta’limi tizimini iqtisodiyotning ustuvor hamda daromad keltiradigan tarmoQiga aylantirish;
- ta’lim tashkilotlarini zamonaviy o‘quv-uslubiy adabiyotlar hamda moddiy-texnika bazasi bilan ta’minalash;
- kasb-hunar ta’limi tizimiga yuqori malakali o‘qituvchilar va mutaxassislarni jalb etish;
- ta’lim jarayonini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish;
- kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va baholashning ob’ektiv tizimini qo‘llash;
- aql-idrokning rivojlanishi, o‘lchanishi va baholanishi, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlar muammosi, shuningdek, kasbga yo‘naltirish muammosi bo‘yicha psixologik-pedagogik tadqiqatlarni bajarish;

- o‘qituvchilarning moddiy va ijtimoiy jihatdan yuqori darajada himoyalanganligi tufayli ta’minlanadi.

Barcha darajadagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash strategiyasi negizida ularni tayyorlash sifatini uch asosiy bosqichda ta’minlashga majmuaviy yondashuv yotadi. Birinchi bosqichda mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj prognoz qilinadi va ular oldiga qo‘yiladigan talab belgilanadi, ya’ni, mutaxassis modeli yaratiladi. Bunda sifatning o‘sib boruvchi darjasini belgilanadi.

Ikkinci bosqichda mutaxassislarni tayyorlash amalga oshiriladi, u belgilangan sifat darajasini ta’minlashi zarur. Nihoyat, mutaxassislardan professional faoliyatda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan uchinchi bosqichda ta’minlangan sifat darjasini ham o‘z ustida uzluksiz ishslash yo‘li bilan, ham maxsus ta’lim tashkilotlarida malaka oshirish yo‘li bilan oshirilishi kerak.

Ushbu strategiyaning huquqiy asosi Davlat ta’lim standartlari va talablari, me’yoriy hujjatlar, nizomlar hamda ta’lim muassasasining maqomini, moddiy-texnika bazasini, moliyalashtirilishini, o‘qituvchilar tarkibini, o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish va boshqa faoliyatini belgilovchi boshqa hujjatlardir. Raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun kasb-hunar ta’limida standartlashtirish o‘sib borishi lozim. Uning mohiyati amalda erishilgan me’yorlarga nisbatan yuqori va sifat jihatdan yangi talablarni belgilashdan iborat. O‘sib boruvchi ta’lim standartlarida mutaxassislar bitirish vaqtiga kelib o’sha paytdagi fan, texnika, texnologiyalar va iqtisodiyot yutuqlari darajasiga muvofiq kelishlari lozim bo‘lgan talablar darjasini bo‘lishi lozim.

Ta’limdagi standartlashtirish majmui ham bo‘lishi lozim.

Birinchidan, u kasb-hunar ta’limi uzluksizligini va uzbekligini ta’minlagan holda, kadrlar tayyorlashning oddiy ishchidan tortib yuqori malakali mutaxassisgacha o‘zaro bog‘liq darajasini qamrab olishi lozim. Ikkinchidan, ta’lim standartlari majmui mutaxassisni shakllantirishning barcha bosqichlarini o‘z ichiga olib, ular o‘rtasida mustahkam o‘zaro aloqani ta’minlashi darkor.

Nihoyat, uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim standartlari, sifatli mutaxassis tayyorlash va uni baholashga yagona yondashuvni ta’minlash uchun xalqaro talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi hamda takomillashtirilishi zarur. Bu raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va ulardan foydalanishda xalqaro tajribani ishga solish hamda intellektual sohada mustahkam hamkorlikni tashkil qilish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan strategiya va rivojlangan mamlakatlar tajribasiga muvofiq kadrlarni tayyorlash va ularning raqobatbardoshligi sifatini oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsga kasbni o‘z ixtiyori bilan tanlashda va mehnat bozoridagi ehtiyojlar, imkoniyatlar hamda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda bandlikning maqbul turini tanlashda ko‘maklashishni ta’minlovchi, shuningdek, yoshlarning tabiiy qobiliyatini qo‘llab-quvvatlovchi va taraqqiy ettiruvchi kasbga yo‘naltirish tizimini rivojlantirish. Hozirgi vaqtida bu ish bilan psixologik-pedagogik tashxis va o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish markazlari shug‘ullanishmoqda.
2. Tarmoq va mintaqqa iqtisodiyoti uchun integratsiyalashgan ta’lim tashkilotlari doirasida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish.
3. Xalqaro standartlar negizada, fan, texnika, texnologiyalar va iqtisodiyotning zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan o‘sib boruvchi va majmuaviy ta’lim standartlarini qo‘llash.
4. Barcha darajadagi mutaxassislarning malaka tavsifini mehnat bozorining o‘sib boruvchi talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqish.
5. Ta’lim jarayonida eng yangi pedagogik, axborot, kompyuter texnologiyalari va boshqalar qo‘llanilishini hisobga olgan holda, bir tipdagi o‘quv rejalarini hamda dasturlarini takomillashtirish.
6. Ta’lim jarayonida o‘qitishning audiovizual uslublarini, axborot texnologiyalarini keng qo‘llash.
7. Barcha darajadagi mutaxassislarni tayyorlash sifatini o‘lchash hamda baholash bo‘yicha ilmiy asoslangan tizimni ishlab chiqish va joriy etish.
8. Kasb-hunar ta’limi tashkilotlarini zamonaviy o‘quv, ilmiy va uslubiy adabiyotlar, shuningdek, moddiy-texnika bazasi bilan ta’minlash.
9. Kasb-hunar ta’limining barcha darajalarida ishlab chiqarish ta’limi (amaliy ta’lim)ni sarflash materiallari bilan ta’minlash.
10. Kasb-hunar ta’limi tizimi tuzilishi (yangi tipdagi ta’lim tashkilotlari) va sifatini isloq qilishni hisobga olgan holda o‘qituvchilarni qayta tayyorlash.
11. Ta’lim tashkilotlari faoliyatini nazorat qilishning me’yoriy asosi va talablarini takomillashtirish.

12. Ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish hamda moliyalashtirish me’yorlarini sanoati va intellektual jihatdan rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko’tarish.
13. Respublikaning raqobatbardosh kadrlari salohiyatini turli darajadagi ishlovchi va qo‘li bo‘sh mutaxassislar hisobiga tiklash.
14. Barcha darajadagi kadrlarni maqsadli tayyorlashni rivojlantirish hamda takomillashtirish.
15. Kasb-hunar ta’limi sifatini nazorat qilishning yagona tizimini shakllantirish.

Quyidagilarni ta’lim sifatini boshqarishning umumiy funksiyalari sifatida ko‘rib chiqamiz:

1. TMni rivojlantirish strategiyasini O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi qonunlarida rasman ta’riflangan ta’lim sifatining asosiy yo‘nalishlari hamda maqsadlariga va tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq belgilash.
2. Ta’lim sifatini loyihalash. U sifatni boshqarish jarayoniga asos bo‘ladi. Bu funksiya iste’molchilarining malakali kadrlarga bo‘lgan talabini muntazam o‘rganish, mutaxassislar, standartlar modelini tahlil qilish negizida amalga oshiriladi. Buning uchun ta’lim sifatini tavsiflovchi muayyan ko‘rsatkichlarning shakllantirilgan tizimi bo‘lishi zarur. Barcha ish sifatni o‘lchash va baholashning miqdoriy uslublariga asoslangan bo‘lishi lozim.
3. Ta’lim sifatini monitoring qilish, ya’ni ta’lim tizimining amal qilish jarayonini muntazam kuzatish, uning ahvolini kuzatib borish. Bunday kuzatish natijalari ta’lim sifatini ob’ektiv baholash hamda pedagoglar jamoasi faoliyatining keyingi yo‘nalishini prognoz qilish imkonini beradi.
4. Ta’lim sifati tizimini (sifat kafolatini) ta’minlash. Bunga boshqaruvin xodimi tomonidan tashkiliy tuzilmani yaratish, majburiyatlar va mas’uliyatni taqsimlash, o‘qitishning tegishli metodikalarini, texnologiyalarini tanlash, moddiy va moliyaviy zaxiralardan samarali foydalanish, pedagogik jarayonni amalga oshirish singari tadbirlar kiradi.

Shuningdek, ushbu ko‘rsatkichlarning elementlar bo‘yicha tarkibi ham muhim. Ayni mahalda ta’lim muassasasi boshqaruvin xodimlari boshqaruvin faoliyatiga xos bo‘lgan ko‘rsatkichlarni ham hisobga olishlari kerak. Ulardan quyidagilarni ajratib ko‘rsatamiz:

«Tasniflash» blokida — boshqaruvin kadrlarining:

- pedagogika, psixologiya, fiziologiya va gigienani (umumiyligi, kasbiy, yoshgaga oid, ijtimoiy va boshqalar);
- ta’lim jarayonini tashkil etishni;
- xodimlar va ta’lim oluvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini;
- umumta’lim, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikka, kasbga, ixtisosga, bo‘lg‘usi mutaxassis malakasiga oid ijtimoiy me’yorlar va talablarni;
- ishlab chiqarish ta’limi va ishlab chiqarish amaliyoti talablari mazmunini;
- ta’lim tashkilotlarda va umuman ta’lim tizimida boshqaruvning nazariy asoslarini bilishi.

«Kasb mahorati» blokida — quyidagi sohalarda ijtimoiy-psixologik mahorat va ko‘nikmalarini:

- pedagoglar, ta’limchilar, ishlab chiqarish ta’limi ustalari, umumkasbiy, maxsus va umumta’lim fanlari o‘qituvchilarining Yagona jamoasini ularga yagona pedagogik talablar qo‘yish, individual imkoniyatlarini hisobga olish va o‘rganish, jamoa oldida turgan vazifalarni hal qilishda har birining rolini ko‘rsatish asosida shakllantirish;
- ta’lim muassasasining jamoatchilik organlarini tuzish hamda boshqarishga ularni jalb qilish;
- muhandis-pedagog xodimlar va ta’lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyatini, o‘zaro munosabatlarini tartibga solish, tanqid va o‘zini o‘zi tanqid, tartib, intizom va uyushqoqlikka qat’iy rioya etish muhimligini hisobga olgan holda ularning harakatini moslashtirish asosida tashkil qilish;
- ta’lim sifatini boshqarish maqsadlari va vazifalarini ta’riflash;
- ta’lim sifatini oshirish dasturlari va jarayonini rejalashtirish;
- ko‘rsatkichlar nomenklaturasini, ta’lim sifatini o‘lchash va baholash mezonlarini ishlab chiqish sohalaridagi ijtimoiy-psixologik mahorat va ko‘nikmalar.

«Faoliyat unumдорлиги» blokida — ta’lim oluvchilar tomonidan davlat ta’lim standartlari, konkret kasbni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari muhim hisoblanadi.

Rahbar malakasining yuqori darajasi — faoliyat dasturini sifatli loyihalashtirishning zarur sharti.

Keyingi yillardagi ilmiy adabiyotlarda «istiqbolni qat’iy qilib, yuqori darajada ehtimollik bilan rejalashtirib bo‘lmaydi» degan fikr ko‘p uchramoqda (L. Fatkin). Shu bois ta’lim muassasasi boshqaruv xodimi loyihalashtirishda taxmin qilinayotgan jarayonlar va hodisalarning mohiyatini, ularning qonuniyatlarini chuqurroq o‘rganishi va idrok etishi, ularning ko‘rsatkichlar nomenklaturasini asoslashi va ishlab chiqishi kerak bo‘ladi. Bu ob’ekt ko‘rsatkichlarining muntazam takomillashtirilishi mahsulot va xizmatlar sifatini loyihalashtirish va ta’minlashning zarur shartlaridan biri sifatida ko‘rib chiqilishi bilan bog‘liq. Bunda barcha ishlar ob’ekt sifatini o‘lchash va baholashning miqdoriy metodlariga tayanadi. Shu tariqa aniqlangan ta’lim muassasasi faoliyati holatining ob’ektiv ko‘rsatkichlari boshqarishning tegishli tartibini tanlashda asos qilib olinadi.

Ma’lumki, ta’lim muassasasi xodimlari faoliyatining ikki darajasi mavjud.

Birinchi darajada ta’lim muassasasining faoliyati ta’lim sifati va mutaxassislar tayyorlashning me’yoriy qiymati va ko‘rsatkichlariga erishishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, «O‘MKO‘Tni ta’sis etish haqidagi namunaviy Nizom»ga muvofiq ta’lim oluvchilarga chuqur umumta’lim tayyorgarligi bilan birga tegishli malaka darajasidagi konkret kasbni egallash kafolatlanadi. Kasb-hunar kollejining ushbu bosqichida boshqaruv ishi mavjud tizimni barqaror holatda saqlashga, ya’ni faoliyat yuritish tartibida ishslashiga qaratiladi.

Ikkinci daraja jamoaning yuqoriroq ta’lim sifati ko‘rsatkichlariga erishishini ko‘zda tutadi. Kasb-hunar kollejiga oid misolni davom ettirgan holda shuni ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, bu «...ta’lim muassasasi negizida O‘MKO‘T sohasida shaxs va ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondiradigan, yuqori darajadagi ta’lim va kasbiy tayyorgarlikni ta’minlaydigan malakali kadrlar tayyorlashning tegishli ixtisosligiga doir ilg‘or metodlar ishlab chiqilishi va joriy qilinishi mumkin», degan tegishli qoidaga binoan ko‘zda tutilgan (Kasb-hunar kolleji haqidagi Nizom).

Bunda boshqaruv faoliyati tizimni yuqoriroq darajaga o‘tkazishni ko‘zda tutadi, ya’ni rivojlanish rejimi amalga oshiriladi.

Boshqaruvning bunday darajasiga o‘tilishi ta’lim muassasasi tomonidan avvalgi darajadagi barqarorlashuvga erishilgandagina, ya’ni boshqaruv ob’ekti parametrlari doimiy normativ darajada turgandagina o‘zini oqlaydi.

Shunday qilib, ta’lim muassasasida sifatni boshqarish rejasi to‘g‘ri tanlanganligiga ushbu jarayonni samarali loyihalashtirishning muhim omillari sifatida qarash mumkin. Pedagogik loyihalashtirish algoritmida konkret ob’ekt, uni tarkibiy qismlari bo‘yicha tahlil qilish, maqsad ta’rifi alohida ajratib

ko‘rsatiladi. Ular ta’lim muassasasida sifatni boshqarish tizimini loyihalashtirish uchun ham muhimdir. Ammo bunday loyihalashtirish mantiqi, mazmuni va bosqichlari ta’lim muassasasining turi taqozo etadigan xususiyatlarga ega (V. S. Bezrukova).

Sifatni boshqarish nazariyasiga muvofiq rahbarlar, eng avvalo, ta’lim muassasasida sifatni boshqarish tizimining tarkibiy qismlarini biron-bir parametrik makonda tavsiflab, so‘ngra ularni o‘lchashning samarali usullarini topish, ya’ni zarur o‘lchovni aniqlash va shu o‘lchov bilan qiyoslash metodini aniqlashlari lozim bo‘ladi. Pirovard natijada barcha ko‘rsatgichlarni ta’lim sifatini tavsiflash imkonini beruvchi biron-bir integrativ ko‘rsatkichga birlashtirish jarayoni belgilanadi. Shundagina ta’lim muassasasi boshqaruv xodimlari ishning ahvoliga mos ravishda maqsadlarni aniqlash va boshqaruv faoliyati mazmunini loyihalashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Ta’lim sifatini boshqarish maqsadlariga erishish bosqichiga to‘xtalib o‘tamiz.

Ma’lumki, faoliyat maqsadi strategiya asosida ta’riflanadi. Ta’lim sifatini boshqarish maqsadlarining belgilanishi shaxsga, jamiyat, konkret ishlab chiqarish va mintaqaning mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojlarini prognoz qilishga asoslanadi. Buning uchun mehnat bozorida aynan qaysi mutaxassislar kerakligi; mutaxassislarning kasbiy sifatlariga qanday talablar qo‘yilishi; ushbu sifatlarni baholashda nimaga tayanilishi, ularni o‘lchash va baholash uchun qanday vositalar kerakligi to‘g‘risidagi tegishli axborotga ega bo‘lish zarur.

Natijada ta’lim muassasasining ta’lim sifatini boshqarish maqsadi bo‘lgan zamonaviy mutaxassisning qandaydir ideal obrazi vujudga keladi (I. Kaoru). Boshqaruv xodimlari ta’lim tashkilotlarining barcha bo‘linmalarini, pirovard maqsadga erishishga, uni mantiqan asoslagan holda, yo‘naltirishlari kerak.

Ta’lim muassasasining boshqarish maqsadlarini ta’riflashda ta’lim sifatining maqbul darajasini ta’minalash, ya’ni undan yuqori va past darajada bo‘lganda kadrlar tayyorlash masalasi ijtimoiy-shaxsiy va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmaydigan holda, maqbul darajada bo‘lishiga erishish diqqat markazida bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, maqsadni qo‘yish DTSda ta’riflangan ta’lim sifatiga oid ijtimoiy normaga, malakaga doir tavsiflarga va boshqa me’yoriy-yo‘riqnomaga hujjatlarga tayanadi. Bunda ijtimoiy-shaxsiy va kasbiy yo‘naltirilgan mutaxassisni tayyorlash borasida qo‘yilgan asosiy talablar aks ettirilgan. Ushbu normativ hujjatlarda yangi kasb ixtisosligiga doir quyidagi ko‘rsatkichlar mavjud:

— ijtimoiy va kasbiy javobgarlik;

- kasbiy safarbarlik;
- kasbiy mustaqillik;
- kreativlik;
- kooperatsiyalashishga qodirlik (I. Kaoru).

## **5- Mavzu: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda innovasiyalar turlari**

### **Mavzu rejasi:**

1. Ta’limda innovasiyalarni tasniflash.
2. Ta’lim tizimidagi innovasiyalar.
3. Ta’lim ishlarining tuzilishidagi innovasiyalar.
4. Ta’lim vositalari, usullari va shakllari.

**Tayanch tushunchalar:** ta’lim, pedagogika, boshqarish, faoliyat, ta’lim, tizim, shaxs.

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida, shu jumladan, boshqarish jarayonida zamонавиу ахборот-кommunikatsiya va innovatsiya texnologiyalari tatbiq etilib, ularga tayangan yondashuvlar qaror topmoqda.

Boshqarish usulining eng muhim belgilardan biri uning ilmiy yondashuvga tayanishida namoyon bo‘ladi. Zero, bugun boshqaruv jarayonini ilmiy asosda tashkil etmasdan uning izchilligi va samaradorligini tasavvur etib bo‘lmaydi.

Albatta, rahbar shaxs muayyan sohani korxona yoki tashkilotni samarali boshqarishi uchun. avvalo, etarli malaka va bilim, rahbarlik salohiyati, ko‘plab ma’naviy-axloqiy xislat va fazilatlar sohibi bo‘lishi darkor. Ta’lim sohasi, jumladan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish ham bundan istisno emas. Ushbu muassasalardagi boshqaruv faoliyatida nazariy bilim va amaliy tajriba va ko‘nikmalarni o‘zaro uyg‘un holda qo‘llash ta’lim-ta’lim bilan bog‘liq masalalarni talab darajasida hal etish, bu jarayonda foydalilaniladigan usul va uslublarni uzlucksiz takomillashtirib borish, umuman olganda, maktabgacha ta’lim-ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu ma’noda, kadrlarni tanlash, tayyorlash, malakasini oshirish barobarida ularning rahbarlik salohiyati va ma’naviyatini yuksaltirish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim sifati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi shart-sharoitlarning asosiy tavsiflarini tadqiq qilish rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritish imkonini beradi. Bunday yondashuvda uni o‘zgartirish jarayonida ta’lim sifati tarkibi va mazmunidagi o‘zgarishlarni o‘rganish imkonini yaratadi. Ta’lim tizimiga ob’ektiv ravishda xos bo‘lgan integral sifat — inersiyalilik — ta’lim va kasb-hunar dasturlarining tegishli tarkibiy qismlarini takomillashtirishga tegishli darajada prognozlashtirib yondashish zarurligini anglashda, ularning aniq o‘zlashtirilishini ta’minalashda, shuningdek, tegishli pedagogik tizimga singdirilgan ilmiy bilimlarning bashoratlari yo‘nalishi sharoitida hisobga olinishi mumkin. Aynan shu boisdan ham, uzlusiz ta’lim va pedagogika fani sohasida ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-tarixiy, etnopsixologik va boshqa turdagি prognоз qilish natijalarini majburiy tartibda integratsiyalashni ko‘zda tutuvchi uzlusiz ta’limning yaxlit tizimini rivojlantirishni prognozlashga tizimli yondashish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Aniqlashtirilgan o‘quv maqsadlari (talabaning vazifalari). Talaba ushbu mavzuni to‘la o‘zlashtirgandan so‘ng boshqaruv tamoyillari va usullari, rahbarning vakolatlari, rahbarning ish vaqtini rejalashtirish, boshqaruv mexanizmi, ishontirish mexanizmi, bo‘ysinuvchi shaxslar bilan munosabatlar, rag‘batlantirish, rag‘batlantirish tarkibi, mexanizmi va nazoratini o‘rganadilar.

Ijodiy yunalish prinsipi o‘quv-ta’lim jarayonini boshqarishda qo‘llaniladi. Uni qo‘llashning zaruriyati quyidagilar orkali asoslanadi:

o‘quv faoliyati turlarining har xilligi (ma’ro‘za, seminar, amaliy mashgulot, kollokvium, mustakil ta’lim, malakaviy amaliyotlar, kurs ishlari vax.k.);

o‘qitiladigan fanlarning turli-tumanligi;

ta’lim oluvchi shaxslarning o‘ziga xosligi.

Muntazam rejalashtirish prinsipi o‘quv-ta’lim jarayonini amalga oshirishda ta’lim massassasining barcha bo‘linmalarida qo‘llaniladi.

Moslanuvchanlik prinsipini holat o‘zgarib turgan sharoitda faoliyat ko‘rsatilayotgan rahbarlar qo‘llaydilar.

Hamfikrlilik prinsipi boshqaruv idealogiyasini aniqlaydi (har bir munosabat).

Hamkorlilik prinsipi kafedrani, fakltetni, bo‘lim hamda rektorat tomonidan boshqaruvda qo‘llaniladi.

Buyurtmachiga yunaltirilganlik institutning yuqori kurslarida talabalarni buyurtmachiga moslashtirish kasb sirlarini chukur o‘zlashtirishlariga erishishni nazarda tutadi.

Ijobiy fikrlash prinsipi hamma vaqt boshqaruvning boshka prinsiplari bilan birgalikda qo'llaniladi.

Vakolat berish prinsipi xodimlarning malakasini oshirishda qo'llaniladi.

Boshqaruv prinsiplarini tanlash va samarali tarzda foydalanish muvaffakiyatga erishishning asosi holos. Boshqaruv samarasining muhim omili boshqaruv usulidir.

Boshqaruv usuli.

Boshqaruv usuli rahbarning boshka qo'l ostidagi rahbarlarga vakolatlar bershi, ularga imkoniyatlar berish, takliflaridan foydalanish, ularga ishonish va ularning harakat rejalarini amalga oshirishga bog'liq buladi. bularga mos ravishda rahbarning o'zini tutishining turt xil usuli mavjud:

- 1) Avtokratik.
- 2) Byurokratik.
- 3) Demokratik.
- 4) Aristokratik.

Avtokratik usul rahbar o'z g'oyalarini (kidirib topgan g'oyalarni), rejalarни xech kim bilan maslahatlashmasdan amalga oshirishi bilan harakterlanadi. O'z fikrini buyruq bilan amalga oshiradi.

Byurokratik usulda boshqaruv rasmiy tus oladi instruksiyalar, buyruklar, qo'llanmalar, qog'ozlar bilan ishlanadi.

Demokratik usul rahbar va jamoani o'z-o'zini boshqarish faoliyatining optimal munosabatiga asoslangan. Uning xususiyati - bajaruvchilarning rejalarini tuzish va amalga oshirish jarayonida faol katnashadilar. Rahbar tomonidan o'z qo'l ostidagilarga ishonch bildirilishi va ularni ruxlantirishi natijasida yuqori darajada unumdonlikga erishiladi.

Xodimlariga «Buni biz o'zimiz amalga oshirdik» deyish imkonini beradigan rahbar eng yaxshi rahbardir.

O'quv-ta'lim jarayonini amalga oshirishda demokratik usul, yuqori tashkshyutlarning direktiv buyruklarini amalga oshirishda avtokratik, xisob va xisobot masalalarida byurokratik usuldan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

Rahbar va hokimlik.

Rahbarga mansab vazifalarini bajarishda hokimlik zarur bo‘ladi. ta’sir etish vositasi sifatida hokimlik besh xil buladi:

Qo‘rqitish orqali ta’sir etishga asoslangan hokimlik. Ishni yo‘qotish, xizmat mansabidan tushirish, mukofotni yo‘qotish va x.k. lar bilan qo‘rqitish.

Mukofotlashga asoslangan hokimlik qo‘l ostidagilar extiyojlarini koniktirish orkali ta’sir qilish.

Ekspert hokimlik. Bajaruvchilarni rahbarga ishonishlari orqali amalga oshiriladi. Bajaruvchilar o‘z rahbarlariga so‘zsiz ishonadilar, u eng optimal qarorni qabul qiladi, muammoni hal qiladi. Vrach bilan bemor o‘rtasida, o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasida shunday hokimlik mavjuddir.

Etalon hokimlik (o‘rnak ko‘rsatish) -- rahbarning shaxsiy xususiyatlariga asoslangan ta’sirdir. Xodimlar rahbarlariga o‘xshashga harakat qiladilar. Bunday rahbar bo‘lish uchun quyidagi maslahatlarga amal killing, sizni barcha kollektiv a’zolari dikkat bilan ko‘zatib turganliklarini esdan chikarmang.

O‘zingizda yo‘lboshchilik sifatlarini rivojlantiring.

Zararli odatlardai ko‘tilishga harakat kiling.

Nutqingizni ko‘zatib boring.

O‘z karorlaringizda muhim buling, ketma-ketlikga rioya kiling.

Tashki kurinishingizni tartibga soling.

Qo‘l ostingizdagilarni o‘zingizga kiziktiring.

Qo‘l ostingizdagilar fikri bilan xisoblapping.

Qonuniy hokimiyat (an’anaviy hokimiyat) rahbariyatga buysunish an’anasiga asoslangan. Bu tarixiy shakllangan munosabatlar usulidir. Bu usulda bajaruvchi xodim rahbar xodimga emas, balki ma’lum mansabga buysunadi. Bu rahbarni o‘z qo‘l ostidagilarga ta’sir ko‘rsatishning eng qo‘lay usulidir. Ammo, o‘zgarishlar vaqtida bu usul samara bermaydi.

Hozirgi bosqichda ta’lim va ta’limda novatorlik yondashuvi jadal rivojlanayotganligi ta’lim muassasasi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlardandir.

Yangicha sharoitlarda «ta’lim» tushunchasi mazmunini tubdan qayta idrok etish zarur. Bu uzuksiz ta’limning o‘xshash tizimi yordamida ijtimoiy va kasbiy

moslashgan yaxlit shaxs mazmunining maqsadi, vazifalari, metodlari va vositalarini shakllantirishni qayta idrok etishni bildiradi.

Shu munosabat bilan bilimlar va hayotga «ta’lim» tushunchasini shaxs tashabbusining ahamiyatini ta’kidlaydigan tarzda yondashuv sifatida tushunish lozim. Shu bois «ta’lim» tushunchasi bu tez o‘zgaruvchan dunyoda yashash uchun zarur bo‘lgan yangi metodologik usullar, ko‘nikmalar, ko‘rsatmalar va qadriyatlarni o‘z ichiga olishi kerak. Boshqacha aytganda, ta’lim shaxsiy va ijtimoiy xususiyatga ega yangi vaziyatlarni muvaffaqiyatli uddalay olishi uchun harakatlanuvchi jamiyat tomonidan prognoz qilingan zarur ijtimoiy-axloqiy jarayondir.

An’anaviy tarzda vujudga kelgan ta’lim tizimi strategik jihatdan yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan «qo‘llab-quvvatlovchi» ta’lim funksiyasini bajargan holda «ta’lim» so‘zining yangicha talqiniga oid maqsadli ko‘rsatmalarni amalga oshirishga yo‘naltirilmagan.

Ko‘maklashuvchi ta’lim faqat ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy yo‘nalishlarning mavjud tizimini saqlashga, ya’ni konservativ-barqaror jamiyatning normal faoliyat yuritishiga yo‘naltirilgan. Shu bois bunda shaxs allaqachon ma’lum bo‘lgan, takrorlanuvchi vaziyatlardan chiqa olishi uchun mo‘ljallangan, qayd qilingan usullar va qoidalar ustunlik qiladi.

Uzluksiz ta’lim tizimi qaror topishi va rivojlanishining yangi strategiyasi, «ta’lim» so‘zining qayta idrok etilishi «qo‘llab-quvvatlovchi» ta’limni «innovatsion» ta’lim bilan almashtirishni talab qiladi. Innovatsion ta’lim ayni paytda kamida quyidagi ikkita vazifani hal etishga qaratilgan:

1. Voqealarni «oldindan ko‘ra bilish», o‘zini real voqelikda va keyingi ijtimoiy va kasbiy rolini anglab yetish qobiliyatini tarkib toptirish; shaxsni ongli, oldindan anglab yetilgan muqobillarni — umumiylar xulq-atvorni, ishonch-e’tiqodni, axloqiy qadriyatlarni, umuman dunyoqarashni tanlashga yo‘naltirish.
2. Mahalliy (shaxsiy yo‘naltirilgan) tashkiliy-boshqaruva darajasidan tortib global darajasigacha shaxsga ijtimoiy ahamiyatga hamda kasbiy qimmatga ega bo‘lgan muhim qarorlarni qabul qilish jarayonida faol ishtiroy etish imkonini beruvchi «qatnashish» prinsipini ro‘yobga chiqarish.

Boshqaruva va tashkil etishning yangi tuzilmasini shakllantirish, KTMD va KTMM asosida ta’limni ta’minalash, chet el tajribasini o‘zlashtirish, turli texnologiyalar, metodikalar va hokazolarni joriy qilish — bularning hammasi innovatsiya deb nomlangan jarayon bilan bo‘qliq.

Bunday hodisaning sababini ta’lim tizimi xodimlari ta’lim-kasb-hunar dasturlari va metodikalarining xilma-xil variantlarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lganliklari bilan izohlash mumkin.

Boshqa sababi — jamiyatdagi ijtimoiy vaziyat o‘zgarib borayotganida, demokratlashtirilayotgani va insonparvarlashtirilayotganida, mamlakat iqtisodiyoti bozor munosabatlari yo‘lidan rivojlanishga o‘tayotganidadir. Yuqori malakali mutaxassislarga ehtiyoj sezayotgan ishlab chiqarishning talablari oshib borayotgani ham yangiliklarni o‘zlashtirishni taqozo qilmoqda. Bugungi kunda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mamlakatimiz ta’lim tizimini dunyo ta’lim tizimi bilan muvofiq holga keltirish yo‘llaridan biri sifatida ko‘rib chiqilmoqda.

Raqobatbardosh malakali kadrlarning eng muhim sifatlari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- o‘quvdagi o‘zlashtirishning yuqori darajasi va o‘zini o‘zi rivojlantirishga qodirligi;
- mehnat va ta’lim xizmatlari bozorida tegishli ta’lim muassasasida olingan malakani tasdiqlash;
- ishlab chiqarishda yuqori darajadagi ijtimoiy faollik va mehnat unumдорлиги;
- ishlab chiqarishda intizomlilik, mas’uliyat, ixtirochilik, ijodkorlik;
- o‘quv fanlari bo‘yicha olimpiadalar hamda tanlangan kasb mahorati tanlovlarda qatnashish va g‘olib chiqish;
- ta’limni davom ettirishga ehtiyoj.

Ta’lim muassasasining aynan shunday xislatlarga ega bo‘lgan bitiruvchisi qo‘yilgan talablarga muvofiq mahsulot tayyorlashi yoki xizmat ko‘rsatishi mumkin.

Ta’lim tashkilotlari, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish uchun, rivojlanish yo‘lidan borishi kerak. Aksariyat amaliyotchi xodimlar buni anglab yetgan holda, eskicha yondashuvlarni takomillashtirishni emas, balki ta’lim tizimini innovatsion strategiya ruhida rivojlantirishni tan olmoqdalar. Yosh avlod ta’lim-ta’limsidagi innovatsion harakat jamiyatdagi real o‘zgarishlarni va shaxs ehtiyojini hisobga olishga yo‘naltirilgan.

Innovatsion ta’lim strategiyasi ta’lim sifatini boshqarishda alohida boshqaruvchilik yondashuvini taqozo etadi. Quyidagilar bunday boshqaruvning asosiy ob’ektlari hisoblanadi:

- pedagog mutaxassis, fuqaro shaxsini shakllantirish va rivojlantirishda professional tashkilotchi hamda yordamchi sifatida;
- ta’limning mazmuniy negizi;
- pedagogik jarayonni tashkil etish texnologiyasi va boshqalar.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda hamda ta’lim va ta’lim amaliyotida «innovatsiya» so‘zi qanday tushuniladi?

Mamlakatimizda va xorijda o‘tkazilgan bir qator tadqiqotlar ushbu hodisani o‘rganishga bag‘ishlangan. Masalan, ayrim mualliflar «yangiliklar yaratish, ularning pedagoglar tomonidan o‘zlashtirilishi va ta’lim amaliyotida foydalanimishi jarayonlari»ni (N. Yusufbekov) innovatsion jarayonlar deb hisoblashni taklif qilmoqdalar. Ular innovatsiyani, jamiyat madaniy o‘zgarishlarining negizi sifatida ko‘rib chiqmoqdalar-ki, bu bizningcha, juda qimmatlidir.

Boshqalar esa «pedagogik tizimning tartibga solinmaydigan erkin maydonida rivojlanish istiqboliga oid ehtiyoja ta’sirchanligi asosida vujudga kelgan yangiliklar uning mikroevolyusiyalar fondini tashkil etadi», deb hisoblamoqdalar (V. N. Vinogradov).

Uchinchchi toifa mualliflar yangilikni ancha murakkab xususiyat, deb hisoblaydilar. Uni o‘rganish uchun abstrakt xususiyatlarga nazariyasini jalg etish tavsiya qilinadi-ki, bu nazariya ko‘plab tavsifli xususiyatlarni ular shkalasining koordinata o‘lchovlari sifatida ko‘rib chiqadi (M. S. Burgin).

Ayrim olimlar yangi maqsadlarni, metodlarni, metodikani, dasturlarni, vositalarni, mazmunni, faoliyatni tashkil etish shakllarini, boshqaruv turlarini va boshqalarni yangilik sifatida talqin qilmoqdalar.

«Yangilanish — yangi hodisa, yangi odat, yangi metod, ixtiro», — degan ta’rif ham mavjud (Yu. Krasovskiy).

«Maktabni rivojlantirish — innovatsion jarayon» nomli kitob mualliflari ta’kidlab o‘tganlaridek: «Pedagogik innovatika — ta’lim muassasasini rivojlantirishning yangi ta’lim amaliyotini yaratish bilan bog‘liq jarayonlarini o‘rganadigan fan sohasi. Bu jarayonlar innovatsion jarayonlar deb nomlanadi» (S. G. Xomeriki, M. M. Potashnik, A. V. Lorensov). Bunday aniqlik ta’lim tizimi xodimlariga muayyan foyda keltirishi mumkin.

Shunday qilib, ta’limda innovatsiyalar yangi jarayonlar, konsepsiylar, ta’lim texnologiyalarini yaratish va o‘zlashtirishni ko‘zda tutadi va h. k.

Ammo, amaliyot ko'rsatishicha, innovatsion faoliyat ta'lim tizimining hamma xodimlari tomonidan ham to'g'ri tushunilavermaydi va samarali amalgalashirilavermaydi. P. Shedroviskiy ta'kidlab o'tganidek, «innovatsiyalikni bugungi kunda mavjud bo'lgan bironta ham funksiyasini innovatsiyaning takrorlash, chiqish deb nomlash mumkin bo'lgan narsani ta'minlay olmaydi. Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi ayrim innovatsiya emas, balki umuman innovatsion harakat ko'rib chiqish va tahlil qilishning boshlang'ich parametri bo'lishi kerak». U «pedagogik yoki ta'lim innovatsiyalarini» emas, balki «innovatsion strategiyani», «faoliyatni innovatsion tashkil etish»ni aniqroq deb hisoblashni ko'zda tutadi. Biz innovatsiyani bunday talqin qilish tadqiqotchilarga bu jarayonni kengroq va chuqurroq ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi, deb hisoblaymiz.

**Innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyati nimalardan iborat?**

«Yangilik kiritishning mohiyatini innovatsion faoliyat, ya'ni yangi natijalarga, ularni olish vositalari va usullariga erishish, an'anaviy faoliyatning eskirgan tarkibiy qismlarini bartaraf etish bo'yicha faoliyat tashkil etadi», — deb ta'kidlaydi D. M. Gvishiani. Olim innovatsion faoliyatning radikal va takomillashtiriluvchi turlari o'rtasidagi ziddiyatli xususiyatiga e'tiborni qaratadi. Takomillashtirish mavjud tashkiliy tuzilmalarga zid emasligi va ularga maqbul moslashishi amaliyotdan ma'lum. Tub yangiliklar esa ularni parchalaydi, shuning uchun keskin qarshilikka uchraydi. Ta'lim sifatini boshqarish jarayoni tashkilotchilari innovatsiyalarning bunday muhim xususiyatini doimo e'tiborda tutishlari kerak.

Yangilik kiritish jarayonining muhim xususiyatini ta'kidlab o'tamiz — innovatsiya ushbu ta'lim muassasasi dolzarb vazifalarni samarali hal qilishga ko'maklashishi kerak. Afsuski, aksariyat ta'lim xodimlari amalda bunga yetarli e'tibor bermaydilar, natijada yangiliklarning o'zlashtirilishi rasmiyatchilikka aylanadi.

M. M. Potashnik innovatsiyalarning boshqa muhim xususiyati —yangiliklar ta'lim muassasasini rivojlantirish vazifasini hal qilish imkonini berishi deb hisoblaydi. Boshqacha aytganda, innovatsiyalar «moda» uchun va «qizg'in» tadqiqotchilik faoliyati olib borilayotganini ko'rsatish uchun emas, balki o'quvchilar foydasini ko'zlab kiritiladi.

Boshqaruv xodimlari va pedagoglar muayyan shart-sharoitlar mavjud bo'lgandagina yangiliklarni samarali o'zlashtirish mumkinligini anglab yetishlari juda muhim. Bunga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

- ta’lim jarayoni qatnashchilarining faol ishchanligi bosqichma-bosqich shakllantirilishiga rioya etish;
- ta’lim jarayonining barcha qatnashchilari tomonidan o‘zlashtirish maqsadlarining chuqur anglab yetilishi va qabul qilinishi hamda kelgusi faoliyat vazifalari aniq tushunib olinishi;
- bunda ushbu vazifalarning shaxsiy maqsadlarga zid bo‘lgan qismining har doim yuzaga keladigan qarshilik ko‘rsatish omilini hisobga olish;
- fikr almashish aniq va xolis axborot ayriboshlash;
- amaliy qarorlarni jamoa bo‘lib ishlab chiqish va qabul qilish.

Pedagogik kadrlarni jiddiy qayta tayyorlamasdan, ta’lim muassasasini tegishli moddiy-texnika bazasi, moliyaviy, o‘quv-dasturiy ta’minlamasdan turib innovatsion faoliyatni samarali tashkil etib bo‘lmaydi.

Yangiliklarni o‘zlashtirish jarayoni rahbariyat tomonidan majburlash chorasi bilan emas, balki xodimlarga harakat qilishda mustaqil va erkin ish olib borish imkoniyatini berish bilan kechadi. Pedagoglar jamoasining ishiga aniqlik olib kirish imkonini beradigan ko‘rsatkichlar va mezonlarning ob’ektiv ro‘yxatini oldindan ishlab chiqish, ularga bebaho yordam berishi mumkin.

Pedagogik tadqiqotlarda innovatsiyalar yangilagini aniqlashga katta e’tibor beriladi. Kiritilayotgan yangiliklar alomatlarining variantlaridan birini keltiramiz (P. Shadroviskiy):

- boshqacha ko‘rinishda ma’lum bo‘lgan tuzilish (birinchi daraja);
- ma’lum narsani uncha muhim bo‘lmagan o‘zgarishlar bilan takrorlash (ikkinchi daraja);
- ma’lum narsani aniqlash, konkretlashtirish (uchinchi daraja);
- ma’lum narsani muhim elementlar bilan to‘ldirish (to‘rtinchi daraja);
- sifat jihatidan yangi ob’ektni tashkil etish (beshinchi daraja).

Ta’lim muassasasida uni tizimli tashkil etish yangiliklarni o‘zlashtirishning yana bir o‘ziga xos xususiyatidir. Bunda quyidagilar muhim tarkibiy qismlar hisoblanadi:

- ta’lim muassasasining vazifasi, uning yangi maqsadlari va vazifalari;
- boshqaruv xodimlari va pedagoglar shaxsi, ularning o‘zlariga va ta’lim oluvchilarga nisbatan nuqtai nazari;

- o‘quvchi shaxsi;
- o‘quvchilar o‘zlashtirayotgan bilimlar funksiyasi, tuzilmasi;
- ta’lim texnologiyasi va vositalari;
- tashkiliy tuzilma, pedagogik mehnat madaniyati va boshqalar.

Yangiliklarni ishlab chiqish va o‘zlashtirish jarayonini har qanday ta’lim muassasasini rivojlantirish yo‘li sifatida ko‘rib chiqqan holda kiritilayotgan yangiliklardan kutilayotgan natijalarni baholashning quyidagi asosiy mezonlarini ajratib ko‘rsatamiz:

1. Natijalar ta’lim muassasasining avvalgi yoki ushbu yo‘nalishdagi ta’lim tashkilotlari uchun xos bo‘lgan natijalardan yuqori, shuningdek maqbul bo‘lishi kerak.
2. Rejalashtirilgan natijalarni olishga sarflanadigan vaqt namunaviy yoxud me’yoriy sarflanadiganiga nisbatan kamroq yoki ularga teng bo‘lishi kerak.

Yangilik darajasini aniqlash uchun barchaga ma’lum algoritmlardan foydalilanadi. Masalan, quyidagicha yondashuv mavjud:

1. Baholanayotgan ob’ektning muhim ko‘rsatkichlari, alomatlari, mezonlari ajratib olinadi.
2. Qiyoslash uchun unga o‘xshashlari, uning prototiplari tanlab olinadi.
3. Baholanayotgan ob’ekt tanlab olingan o‘xhash ob’ektlar bilan qiyoslanadi va mezonlarga muvofiq yangilik o‘lchovi ham miqdoriy, ham sifat jihatidan belgilanadi.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida ta’limni boshqarish sifatini yangilik hamda boshqaruv faoliyatining yangi yo‘nalishi sifatida ko‘rib chiqamiz.

Yangiliklarning keltirilgan tasnifiga muvofiq ta’lim sifatini boshqarishni biz to‘rtinchi darajaga, ya’ni ta’lim tizimidagi boshqaruv faoliyatining mavjud nazariyasi va amaliyotini muhim elementlar bilan to‘ldirishga kiritamiz.

Keltirilgan ushbu ta’rif mazmunan tegishlicha to‘ldirilishi va tuzilmalarga ajratilishi lozim, deb hisoblaymiz. Biz ishlab chiqqan tuzilmadagi ushbu qo‘shimchalarning mohiyati quyidagilardan iborat.

Birinchi. Ta’lim sifatini boshqarish maqsadi nafaqat jamoa faoliyati natijalarini barqaror holatda saqlashdan, balki ta’lim muassasasini faoliyat (rivojlanish)ning

bundan ham yuqoriroq darajasiga o'tkazish orqali talab qilinayotgan ta'lim sifatini ta'minlashdan iborat.

Ikkinci. Natijalar sifati bitiruvchilarning ijtimoiy va ta'lim-kasb-hunar bobidagi harakatchanligi darajasi bilan ifodalanadi, ya'ni bunda gap ta'lim muassasasi rahbarlarining mavjud malaka tavsiflarini mutaxassisning kasbiy sifatlariga qo'yiladigan talablar bilan to'ldirilishiga yo'naltirish haqida bormoqda.

Boshqa loyihada ham shunday g'oya mavjud. Innovatsiyaning eng muhim formulalaridan biri quyidagi qoidadan iborat: «Ta'lim sifati — shunchaki bilimlar hajmi va ko'nikmalar tarkibi emas, balki zamonaviy mutaxassisning asosiy modelini tashkil etuvchi faoliyatning muayyan turlariga shaylik demakdir».

Ta'lim sifati o'quvchilarni bilimga boyitish va ularning ongida statistik tuzilmasini shakllantirish bilan emas, balki ijtimoiy va kasbiy faoliyatda ular hayotini organik dinamika bilan ta'minlash orqali tavsiflanadi. Bilimlardan konkret muammolarni hal qilishda foydalanish, bilimlarni doimiy ravishda to'ldirib borish bo'yicha rivojlangan qobiliyat va intellektual rivojlanishning amaldagi rag'batlari zarur (I. G. Leonov).

Uchinchi. Ta'lim sifatini boshqarishda ta'lim muassasasi rahbarlarining asosiy e'tibori pedagoglar va o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish funksiyalarini kuchaytirishga emas, balki kamchiliklar paydo bo'lishining oldini olish hamda ularning vujudga kelish manbalari va sabablarini tahlil qilishga qaratiladi. Bularning hammasi boshqaruv kadrlaridan ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning metod va usullarini egallash, nazariy qoidalarni amaliyatda qo'llash mahoratini talab qiladi. Boshqacha aytganda, ular boshqaruvda xilma-xil — intuitiv, empirik, tajriba, formal va ilmiy mantiqiy yondashuvlardan foydalanishlari darkor (M. M. Potashnik).

To'rtinchi. Ta'lim sifatini boshqarish ushbu jarayonga ta'lim jarayonining barcha qatnashchilarini kiritishni ko'zda tutadi. Faqat sharti shuki, tashkiliy tuzilma pedagogik jarayon qatnashchilari o'rta sidagi qat'iy «vertikal» aloqalardan «vertikal» bilan «gorizontal» aloqalarni bir-biriga uyg'un holda qovushtirishga o'tsagina shunday bo'ladi.

Beshinchi. Ta'lim sifatini boshqarish tizimli metodlardan foydalanishni ko'zda tutadi, bunda boshqaruv ob'ekti boshqacha xususiyatga ega bo'ladi: ... ta'limni innovatsion tashkil etishda faoliyatning ikki (ta'lim beruvchi bilan o'quv-bilish) turi emas, balki yaxlit holdagi o'quv-kasbiy vaziyat boshqaruv birligi hisoblanadi (I. Bogachev).

Bir guruh olimlar (O. G. Xomeiki, M. M. Potashnik, A. V. Lorensev) taklif qilgan metoddan foydalangan holda ta’lim sifatini boshqarish jarayonining tasnifini ko‘rib chiqamiz.

1. Innovatsiyalar ko‘lamliligiga qarab belgilanadi. Bunda ta’lim sifatini kollej ichki yoki maktab ichki doirasida boshqarish butun ta’lim muassasasini qamrab oladigan tizimli yangilik hisoblanadi.

2. Yangiliklarni o‘zlashtirish jarayoni salohiyat darajasiga qarab belgilanadi. Ta’lim muassasasi doirasidagi ichki boshqaruv innovatsiyaning kombinatorli tipidan iborat, ya’ni ilgari ma’lum bo‘lmagan elementlarning tashkiliy tuzilmaning yangi modeli asosida yangicha konstruktiv qo‘silishi hamda ilgari bunday qo‘sib foydalanilmagan prinsiplarning amalga oshirilishi sodir bo‘ladi.

3. Yangilikning o‘z o‘tmishdoshiga munosabati ularning quyidagi toifasini tavsiflaydi. Ta’lim muassasasi darajasida sifatni boshqarishga nisbatan olganda aytish mumkinki, u boshqaruv faoliyatining shu paytgacha amal qilib kelgan mohiyatini o‘zgartiradi va to‘ldiradi. Bu jarayon ikki bosqichdan iborat:

— birinchisi — bitiruvchilar ni tayyorlash darajasiga qo‘yiladigan nominal, normativ talablarning bajarilishiga qat’iy va to‘liq yo‘naltirish mavjud bo‘lgan sharoitda ta’lim muassasasining faoliyati sifatini boshqarish. Boshqaruv nazariyasida bunday yondashuv konservativ yondashuv hisoblanadi (N. A. Selezneva);

— ikkinchi bosqich — rivojlanish sifatini boshqarish. Bunda o‘zgartiruvchi-ijodiy, tadqiqot xususiyatiga ega faoliyatni amalga oshirish, yangiliklarni o‘zlashtirish, o‘z ilg‘or pedagogik texnologiyalarini yaratish ko‘zda tutiladi.

Ta’lim muassasasi barcha xodimlarining birgalikda harakat ishi bir-biriga muvofiq bo‘lishiga erishish va tashkiliy madaniyat bunday boshqaruv samaradorligining zarur sharti bo‘lib qolishi kerak.

Innovatsion jarayon bo‘lgan ta’lim sifatini boshqarish quyidagi belgilarga ega:

Birinchi belgi. Faoliyatning yangi usuli mavjudligi.

Ta’lim sifatini boshqarish, eng avvalo, boshqaruv kadrlari tomonidan ta’lim va kadrlar tayyorlash jarayonini kuzatish kabi faoliyat turidan foydalanishni ko‘zda tutadi. Buning uchun ular tegishli metodlarni, jumladan, kvalimetriya asoslarini, ya’ni sifatni miqdoriy baholash metodini qo‘llash orqali ta’lim sifatining boshlang‘ich va berilgan holatini aniq belgilashlari lozim bo‘ladi. Ilmiy

adabiyotlarda mahsulot, xizmatlar sifatini baholash, boshqaruv faoliyatining baholash ob'ekti to'g'risida qadriyat borasidagi mulohazalarni shakllantirishga qaratilgan funksiyasining alohida tipiga kiritiladi.

Ta'lism sifatini o'lchash sifat o'lchovini belgilash va uning qiymatini maxsus algoritmlar yordamida olishni ko'zda tutadi.

Bunday jarayonning samaradorligi baholashning statistik metodlarini qo'llash orqali ta'minlanadi. Bu baholanayotgan ob'ektning sifat ko'rsatkichlari qiymati aksariyat hollarda tasodifiy kattaliklar deb hisoblanishi bilan bog'liqdir. Bunday holat ana shu sifatga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillar va shart-sharoitlar bilan izohlanadi. Shu bois boshqaruv tarkibi ta'lism sifati haqidagi axborotni olish va ishlashning statistik metodlarini qo'llay bilishi kerak.

Ikkinci belgi. Rivojlangan tashkiliy madaniyatning mavjudligi.

Oldingi paragrafda ta'kidlab o'tilganidek, jamoada me'yorlar tizimlarini, qadriyatlarni, urf-odatlar va an'analarni yuqori darajada shakllantirmasdan turib, ta'lism sifatini boshqarib bo'lmaydi. Bularning hammasi ta'lism jarayonining barcha qatnashchilari o'rtasida uyg'un o'zaro munosabatni vujudga keltirish imkonini beradi.

Tashkiliy madaniyat ta'lism muassasasining eng muhim quyidagi vazifalarini funksional jihatdan hal qilishda yordam beradi:

- muvofiqlashtirish — belgilangan jarayonlar va xatti-harakat qoidalari yordamida amalga oshiriladi, bu jamoa barcha a'zolarining kelishilgan holda harakat qilishi imkonini beradi;
- motivatsiya — bajarilayotgan ish mazmuni ta'lism muassasasi rahbari tomonidan tushuntirib berilishini ko'zda tutadi;
- ixtisoslashtirish — ta'lism muassasasining shunga o'xhash ta'lism tashkilotlaridan xarakterli farqqa ega bo'lishi demakdir;
- kadrlarni jalb qilish — ta'lism muassasasining boshqalaridan afzalligini targ'ib qilish, pedagoglarning ishlashi uchun maqbul shart-sharoit yaratish orqali hal qilinadi va h. k. (K. Shols).

Uchinchi belgi. Ta'lism muassasasi rahbarlarida innovatsion madaniyatning shakllanganligi.

Bu ularning yangi bilimlar va faoliyat turlarini egallashga, o'zgarishlarga, xavf-xatarga va javobgarlikka tayyorgarligini bildiradi.

Boshqarish sohasidagi turli mutaxassislarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish yangi tipdagi menejer shaxsining eng muhim sifatlarini, xususan, mehnat jamoasi bilan maqbul munosabatda bo‘la bilish mahoratini ajratish imkonini beradi. Yangi tipdagi boshqaruv kadrlarining asosiy vazifasi — «Yangiliklar kiritishga yo‘naltirilgan boshqaruv munosabatlarining mos tizimini yaratish»dan iboratdir (Yu. Krasovskiy). Ta’lim muassasasi rahbarlari tomonidan yangi tashkiliy-psixologik madaniyat ma’nosidagi kasbiy mahoratni oshirib borishning quyidagi ob’ektiv davrlarining o‘zlashtirilishini ham shunga kiritish mumkin:

- o‘z imkoniyatlari bilan jamoa imkoniyatlarini o‘rganish;
- o‘z muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari orqali jamoa imkoniyatlarini bilish;
- jamoa imkoniyatlaridan o‘z kasbiy mahoratini oshirib borish uchun foydalananish;
- jamoa imkoniyatlarini o‘zida va o‘zi orqali ro‘yobga chiqarish.

Boshqaruv kadrlarining pedagoglar va o‘quvchilarning har qanday foydali tashabbusini qo‘llab-quvvatlashga va o‘zлari ham shu ishga qo‘shilishga qodirliklarini ham innovatsion belgi deb hisoblash mumkin. Tavakkalchilik va mas’uliyat ta’lim sifatini boshqarishda boshqaruv kadrlarining, ayniqsa, yetakchining muhim xususiyatlaridandir.

Ta’lim muassasasi rahbarlarining kasbiy bilimdonligi novator negizini tashkil qiladi. Direktor va uning o‘rinbosarlarining kasbiy bilimlari nechog‘li darajada ekanligiga ko‘p jihatdan innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati boshqaruv nazariyasi, iqtisodiyot va sotsiologiya, siyosatshunoslik va huquq, pedagogika va psixologiya, gigiena va fiziologiya sohalariga bog‘liq. Zamonaviy mutaxassis shaxsiga, muhandis-pedagoglar tarkibi faoliyatini va o‘quvchilarning o‘qishini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatiga oid normativ talablarni bilish ham ushbu ro‘yxatga to‘liq kiradi. Bunda zamonaviy ta’lim tashkilotlarini boshqarayotgan shaxslarning kasbiy-tashkiliy, axloqiy-psixologik sifatlari birinchi o‘ringa chiqadi.

To‘rtinchchi belgi. Ta’lim muassasasi boshqaruv korpusi psixologik-pedagogik madaniyatining yuqori darajadaligi.

Bunday sifatning shakllanganligi ta’lim sifatini ta’minlashga doir faoliyatni loyihalashtirishning zarur shartidir. Ta’lim sifati va ta’lim muassasasini boshqarishning asosiy funksiyalarini amalga oshirish uchun rahbarlar konkret mahorat va ko‘nikmalarni egallashlari zarur. Biz psixologik-pedagogik mahoratni, eng avvalo, shular qatoriga kiritamiz. Ularning mohiyati,

P. T. Frolov ta'kidlab o'tganidek, topshiriqni ongli zaruratga, faoliyat ning ichki ehtiyojiga aylantirish maqsadida mantiqiy va psixologik usullar yordamida xodimlarga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir» (P. T. Frolov).

## **6-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda innovasiyalarni normativ-huquqiy qo'llab-quvvatlash.**

Mavzu rejasи:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi, "Maktabgacha ta'lim" qonunidagi innovatsiyalar haqida.
2. O'zbekiston Respublikasi ta'limining modernizasiysi tushunchasi.
3. Maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar fanining fan sifatidagi asoslari yo'nalishlari va ularning o'ziga xos jihatlari bilan tanishtirish;
4. Maktabgacha ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar fanining fan sifatidagi asoslarining umumiy mohiyatidan xabardor qilish

**Tayanch tushunchalar:** rahbar, modjel, reja, boshqaruv, jamoa, standart, kafolat, strategiya, ta'limni rejalshtirish, loyixalash, yangi usul.

Pedagogik texnologiyaning ilk paydo bo'lish davri ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallahuvi bilan belgilanadi. Mazkur davrdagi fanning natijalari kashfiyotlar oqimlari bo'lib, ular asosida texnika va texnologiyalarning yangi avlodlari yaratildi. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar o'zining ilmtalabligi, originalligi, murakkabligi, yuqori sifati va sermahsulligi bilan ajrala boshladи. Ishlab chiqarish usuli va shart-sharoiti uzlusiz jadal o'zgarib bordi, ta'lim tizimi oldiga tamoman yangi talablar qo'yila bordi.

Ilmiy texnik taraqqiyot jadallahuvi va ta'lim tizimga u tomonidan qo'yiladigan talablar nima bilan belgilanadi?

Birinchidan - fanning o'sib borayotgan o'rni bilan, XX asrda ayniqsa uning ikkinchi yarmida, fanning taraqqiyoti eng yuqori sur'atlarga erishdi. Har 10-15 yilda fan faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari ikki martadan oshib bordi. Shuning uchun, fanning taraqqiyot qonuni eksponenta qonuniga bo'ysunadi deb faraz qilinadi. Hozirgi zamonda fan taraqqiyotining yuqori sur'atlari, aqliy mehnatni avtomatlashtirish orqali saqlab turilmoqda.

Fanning jadal taraqqiyoti, ilmi-texnik informatsiyaning tegishli taraqqiyotiga olib keladi. Fanning eksponenta bo'yicha rivoji uning ko'chkisimon rivojini anglatadi. Zero ilmiy-texnik informatsiyaning ham rivoji ko'chkisimon jarayon hisoblanadi. Informatsiya oqimining ko'chkisimon o'sish sur'atini saqlash, uchun zamonaviy telekommunikatsion informatsion tizimlar yaratilmoqda va faoliyat ko'rsatmoqda.

Ko‘rinib turganidek, fan va axborot hozirgi zamondagi o‘sish sur’ati va hajmi, 20-30 yil oldingi ularning holatidan keskin farq qiladi. Fan tarqqiyoti, bu oliv ma’lumotli mutaxassislarining faoliyati doirasiga kiradi. Shuning uchun, oliv ma’lumotli mutaxassislarini tayyorlovchi tizim - zamonaviy axborot oqimini o‘zlashtirish, ilmiy-tadqiqot malakalarini, individual va mustaqil ishslash, ilmiy-texnikaviy axborotlar va o‘quv-ilmiy adabiyotlar bilan ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini ta’minlashi lozim.

Ikkinchidan - zamonaviy fanning ko‘chkisimon rivoji 2, 3 va undan ortiq ma’lum fanlar ulanmalarida yangi fanlar paydo bo‘lishi bilan ham ta’minlanadi. Masalan: biofizika, biokimyo, informatika, fiziko-kimyoviy mexanika va ko‘pgina boshqa fanlar. Fan daraxti paydo bo‘ladi. Ma’lum fanlar ulanmalarida tug‘ilgan yangi fan - yangi ilmiy yo‘nalishlar, muammolar, mavzular va ilmiy masalalarni o‘z ichiga oladi. Bu masalalarni oliv matabning iqtidorli bitiruvchilari yechishi lozim.

Shuning uchun kadrlar tayyorlovchi tizim original va noan’anaviy fikrlash qobiliyatini, o‘z ustiga tizimli va mashaqqat bilan ishslash malakalarini rivojlantirishi lozim. Talaba ajablana olishi, hayratlana olishi lozim, shundagina u boshqalarni o‘zining ijodiy mehnati bilan hayratlantira oladi.

Uchinchidan – fanning ko‘chkisimon rivoji va shu qonuniyat bilan o‘suvchi ilmiy-texnikaviy axborot, axborotni uzatish va qayta ishslash tezligini oshirishga olib keladi, uning asosida esa kompyuter texnikasi yotadi. Zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanishni, o‘qitishni indi-viduallashtirishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunday ekan, zamonaviy o‘qitish tizimining markaziy o‘zagi – o‘qitishni individuallashtirishdir. Shuning uchun o‘qitishni individuallashtirish, mustaqil ta’lim, masofaviy o‘qitish tizimi texnologiyalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish dolzarb masalaga aylanib qoldi.

To‘rtinchidan, muhandislik yechimlar turining keskin ko‘payishi ilmiy-texnik taraqqiyotining xususiyati hisoblanadi. Materiallar, texnologik jarayonlar, mashinalar konstruksiyalarining zudlik bilan almashinushi sodir bo‘ladi. Boshqaruv tizimining avtomatlashuv darjasini oshadi va ilmiy yutuqlar natijasini ishlab chiqarishga qo‘llash muddatlarini qisqaradi. Masalan, telefon aloqasi kashfiyoti bilan undan foydalanish orasidan 56 yil o‘tgan bo‘lsa, radioga-35, televizorga-14, atom energiyasiga-6, tranzistorga-5 yil o‘tdi. Hozirgi paytda bu muddat, odatda 1 yilga ham yetmaydi.

Shunday qilib, oliv ma’lumotli mutaxassislar tayyorlovchi tizim, ularda ishlab-chiqarish, texnika texnologiyaning uzluksiz o‘zgarib turuvchi sharoitiga zudlik bilan moslashuvchanlikni shakllantirishga yo‘naltirilishi zarur. Ular bilimlar

harakatlanuchanligi, tanqidiy fikrlash, ijod va kasbiy faoliyatida epchillik kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.Beshinchidan, ilmiy-texnik taraqqiyot jadallahuvi sharoitida uning yuksalib boruvchi talablariga javob beradigan mutaxassislarni oliy maktabda tayyorlash uchun o‘qitishni jadallashtirish, o‘qitishda inson organizmining, uning ongini butun imkoniyatlaridan to‘la foydalanish zarur bo‘ladi. Ya’ni, timsolli-tomosha o‘qitishni jadallashtirish lozimdir. Bu esa, o‘qitish jarayonida axborotlar berishda, o‘quv materialini tizimlash va turkumlash usullari, o‘qitishni kompyuterlash, o‘quv televideniyasidan foydalanish va h.k.ni anglatadi.

Oltinchidan, har bir odam tabiatan individumdir, ya’ni u faqat o‘ziga xos o‘qish va o‘rganishdagi zehni, qobiliyatga ega bo‘ladi. Demak, zamonaviy o‘qitish tizimining vazifasi o‘quvchining individual qobi-liyatini hisobga olish va rivojlanishtirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Ilmiy-texnik taraqqiyoti jadallahuvi sharoitida ishlab chiqariladigan mahsulotlar ilmtalab, originalligi, murakkabligi, yuqori sifati va sermahsulligi bilan ajralib turadi. Mashina va jihozlar unumдорлиги, ular puxtaligining ko‘p marotaba oshganligi tufayli mahsulot birligiga sarf qilinadigan energiya ham bir necha marotaba kamayadi. Bu sharoitlar kadrlar tayyorlash tizimiga tegishli talablar qo‘ya boshladi.

Fan, texnika va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida o‘qitish tizimiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- a) individual va mustaqil ishslash, ilmiy-texnik axborot bilan ishslash malakalarini rivojlantirish;
- b) original va nostandart qarorlar, ishchanlik - qobiliyatlarini rivojlantirish;
- v) o‘qitishni individuallashtirish (o‘qishga turli qobiliyatga ega bo‘lgani uchun);
- g) bilim harakatchanligi, tanqidiy fikrlashganda moslashuvanlik va ijod, ishlab chiqarishning zudlik bilan o‘zgaruvchan sharoitiga mos epchillikni shakllantirish.

Bayon etilgan, bir tomondan pedagogik texnologiyaning sodir bo‘lish zaruriyatini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan u ilmiy texnik taraqqiyot jadallahuvining mahsuloti ekanligini namoyish etadi. Shu sababli, ilmiy texnik taraqqiyot tezlashuviga 2...3 va undan ortiq fanlar ulanishlarida paydo bo‘ladigan yangi fanlarning ta’sirini alohida ta’kidlash zarur bo‘ladi. Pedagogik texnologiya ham ikkita fan – «pedagogika» va «texnologiya»lar ulanishida paydo bo‘lga yangi fanlardan biridir. Pedagogik texnologiya ilmiy texnika taraqqiyoti jadallahuvi talabalari darajasida kadrlar tayyorlashuvi talablari

darajasida kadrlar tayyorlashni ta'minlash imkoniyatini yaratdi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari tegishli davr talablari asosida ham paydo bo'ladilar. «Pedagogika» bu keksa avloddan hayot uchun zaruriy bo'lgan ijtimoiy tajribalarni yosh avlodga berish va uning yosh avlod tomonidan faol o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rganadigan fandir.

Jamiyat taraqqiyoti, har qaysi yangi avlod o'zining o'tmish avlodidan qolgan merosni egallab uni boyitib keyingi avlodga qoldirish orqali vujudga keldi. «Pedagogika» atamasi qadimgi Yunoniston (Gretsiya)da paydo bo'ldi, uning negizini «pedagog» so'zi tashkil etadi. Qadimgi Yunonistonda talabani maktabga kuzatib boruvchi, mashg'ulotlarda va ulardan tashqarida unga xizmat qiluvchi qulni pedagog deb ataganlar. Yunoncha «peydagog» («paydi» - bola, «gogos» - yetaklovchi) so'zi, «bola yetaklovchi» ma'nosini anglatadi.

Shunday qilib, «pedagogika» yunonchadan «bolani yetaklash» so'zini bildiradi. Maktabda mashg'ulotlarni o'qituvchilar – «didiskala»lar o'tar edi («didasko» - men o'qiyan, keyinroq «didaktika» - o'qitish nazariyasi paydo bo'ldi). Muqqadam bilimning bu sohasi falsafa fani negizida amalga oshirilar edi.

Pedagogikaning predmeti bu o'rganish, ta'lim, tarbiya sharoitida inson shaxsining yo'naltirilgan rivojlanish va shakllanish jarayoni hisoblanadi.

Shunday qilib pedagogika, inson shaxsining rivoji va shakllanish mohiyatini o'rganish haqidagi fan sifatda namoyon bo'ladi. Shu asosda o'qitish va tarbiya nazariyasi va uslubiyoti maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida belgilanadi. Pedagogika fan sifatida, ommaviy o'qitishni tashkil etishni talab etadigan kengaytirilgan ishlab chiqarish yo'lga qo'yilayotgan davrda, paydo bo'ldi. «Texnologiya» materiallar yoki yarim fabrikatlarni olish, ishlov berish va qayta ishslash usullarini ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi ilmiy fandir.

«Texnologiya» fani ham qadimgi yunonistonda paydo bo'ldi va u ikkita so'z – «texne» - san'at va «logos» - o'rganish – dan iborat. Ushbu davrda, bu hunarmandning predmetni tayyorlash san'atiga, ustozi rahbarligi ostida (mashqlar tufayli) o'zining tirishqoqligi va tabiiy iqtidori orqali erishishini anglatar edi.

«Texnologiya»ning fan sifatida vujudga kelishiga – XVII asrda, sanoat ishlab chiqarishini paydo bo'lishi metallurgiya, mashinasozlik, jumladan sanoat jihozlari, paroxod, parovoz, o'q otuvchi qurollarni ishlab chiqarish jadal rivojiana boshlanishi, sabab bo'ldi.

Bunday murakkab va mehnattalab mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, faqat texnologik jarayoni aniq ishlab chiqilgan texnologik hujjatlar asosida tashkil

etish mumkin edi. Ushbu hujjatlarda – xom ashyo, materiallar, yarim fabrikat va mahsulotlarni olish, ishlov berish, qayta ishlash yo'llari va usullarining murakkab jarayonlarini o'zaro bog'liq, ketma-ket va aniq bajariladigan harakat, operatsiyalarga bo'lib, rejallashtirilgan natijaga erishish tasvir etiladi. Bu kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishga asos bo'ladi. Bizning davrda, texnologiya deb, ma'lum ishni bajarish san'ati tushuniladi. Uni egallash uchun u aks ettirilgan texnologik hujjatlarni chuqur o'rganish taqozo etiladi. «Texnologiya»ning fan sifatida shakllanishi, texnologiyani ko'paytirish va shu asosda mutaxassislarni ommaviy tayyorlash, hamda ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatini keltirib chiqardi. «Texnologiya» va «Pedagogika»ning fan sifatida bir tarixiy davrda shakllanganligi, bu qonuniy hodisadir. Chunki kengaytirilgan va ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish, ommaviy o'qitishni taqozo etdi. Yuqorida zikr etilganlar ta'lim asoschisi Ya.A. Komenskiyning ilmiy merosini tashkil etadi. «Pedagogika» fanining rivojlanish asosiy bosqichlarini belgilab berishi mumkin

Pedagogik texnologiya bu - texnikaviy va insoniy manbalarni va ularning o'zaro bog'liqligini inobatga olib, o'z oldiga ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yadigan, butun o'qitish va bilim olish jarayonini, yaratish, qo'llash va aniqlash bo'yicha tizimli qarashdir.

XX asrning ikkinchi yarmida, ilmiy texnik taraqqiyotning talablari asosida paydo bo'lgan pedagogik texnologiya, uning jadallahushi uchun xizmat qilmoqda.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi – ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va talabalar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.

Pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi – ommaviy ta'lim sharoitida «oddiy» pedagoglarga o'qitishning yetarli samarasiga erishishni ta'minlovchi, o'quv jarayonini yaratish hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning predmeti – o'quv jarayoining o'zi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning ob'ekti – o'quv jarayonining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya, ta'lim tizimidagi mustaqil fan sifatida o'quv jarayonning barcha elementlarini – o'quv grafigini va o'quv rejasini tuzish, o'qitish va uning natijalarini baholashni - o'z ichiga oladi

Oliy ta’lim muassasining o‘quv jarayoni o‘quv materialini to‘la o‘zlashtirish tamoyillariga tayanishi lozim. Ya’ni fanning, o‘quv dasturiga muvofiq, o‘quv materiali barcha talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi shartdir.

O‘quv materialining to‘la o‘zlashtirilish tamoyili - har qaysi mavzu bo‘yicha bilim olish faoliyatining o‘rnatilgan darajasiga erishishni anglatadi.

Pedagogik texnologiya, o‘quv materialining to‘la o‘zlashtirish kafolatini beradi, ya’ni har bir talaba o‘quv fani dasturini kamida 80% ni o‘zlashtiradi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitida, «Pedagogika» va «Texnologiya» fanlar ulashuvida paydo bo‘lgan, pedagogik texnologiya mustaqil fanga aylandi. Har bir mustaqil fan o‘z mohiyatiga ko‘ra uning nazariy asoslarini tashkil etuvchi o‘zining tamoyillariga ega bo‘ladi, pedagogik texnologiya tamoyillari, «Pedagogika» va «Texnologiya» fanlarining negizini tashkil etuvchi qoidalar yig‘indisiga tayanadi. Pedagogik texnologiya maqsadlari, vazifalari, tarkibi, mazmunining tahliliga ko‘ra uning quyidagi asosli tamoyillari shakllantirilgan: ilmiylik, loyiha-lanish, tizimlilik, yo‘naltirilganlik, faoliyatli yondashuvlik, boshqari-luvchanlik, tuzatuvchanlik, natijaviylik, qayta takrorlanuvchanlik, tejamlilik. Ushbu barcha tamoyillar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, biri birini talab etadi va to‘ldiradi. Bu tamoyillar asosida o‘quv jarayoni tashkil etiladi, ya’ni uning tayyorgarligi va o‘qitish jarayoni amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyaning farqli xussiyatlari va afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o‘quv jarayonning qayta takrorlanish imkoniyati;
- uzluksiz teskari aloqani ta’minalash, o‘quv jarayoniga tuzatishlar kiritish o‘rgatuvchi sikllarning mavjudligi;
- o‘qitish natijalarini rejalashtirish va unga erishishni kafolatlaydi.

Pedagogik texnologiya, ishlab chiqarish-texnikaviy sohaning jarayonlariga xos barcha texnologik belgilarga ega, shu jumladan uning qayta takrorlanishi, ushbu belgi, tuzilgan pedagogik-texnologik xaritalarni qo‘llash orqali ta’milanadi. Shuning uchun pedagogik texnologiyada, o‘qitish natijalarini rejalashtirish va unga kafolatli erishishni ta’minalash imkoniyati mavjud.

## **7-Mavzu: Ilg‘or pedagogik tajribani shakllantirish, o‘rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish.**

### **Mavzu rejasи:**

1. "Ilg‘or pedagogik tajriba" tushunchasi. Ilg‘or pedagogik tajribani tanlash mezonlari.
2. Ilg‘or pedagogik tajriba bilan ishslash bosqichlari.
3. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish uchun so‘rovnomalalar yaratish usuli.
4. Mukammallikni aniqlash, umumlashtirish va amalga oshirish usullari.

**Tayanch tushunchalar:** Davlat, ta’lim, standart, kafolat, strategiya, DTS, ta’limni rejalashtirish, loyixalash, yangi usul.

Bu tushuncha XX asrda paydo bo‘ldi va 1940 -1950 yillarda “ta’lim texnologiyasi” tarzida qo‘llanilib, mazmunan o‘quv jarayonida audio-vizual texnika vositalaridan foydalanishni anglatgan. Atama dastlab AQSHda qo‘llana boshladi. Keyinchalik “ta’lim texnologiyasi” o‘rniga “dasturlashtirilgan ta’lim” atamasidan foydalanish keng yoyildi. So‘ngra pedagogik texnologiya-loyihalashtirilgan ta’lim va aniq maqsadga qaratilgan o‘quv jarayonini ifoda eta boshladi. O‘tgan asrning 80-yillarida pedagogik texnologiya kompyuterli va axborot texnologiyalari bilan sinonim tarzda ishlatila boshladi.

Keyingi o‘n yilliklarda pedagog olimlar va o‘qituvchilar diqqatini jalgilgan masalalardan biri pedagogik texnologiya (PT) hisoblanadi. Bu mavzuning ilmiy ishlarda, hisobotlarda, maxsus davriy nashrlarda qizg‘in o‘rganilayotganligi, bahs-munozaraga sababchi bo‘layotganligi ham ta’limtarbiyada uning o‘rni naqadar muhimligiga guvohlik beradi. Mavjud materiallarni jamlash, uning nazariy va amaliy jihatlarini O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida tahlil qilish, pirovard natijada, qator konseptual texnologiyaning empirik asosini yaratishga harakat qilish, shuningdek, uni ilmiy bilimlar doirasiga o‘tkazish kabi ishlar ham jadal davom ettirilmoqda. Avvalo, nega bugunga kelib pedagogik texnologiyaga qiziqish shunchalik kuchaydi, degan savol tug‘iladi. Aytish mumkinki, rivojlanayotgan davlatlarda, odatda, birinchi navbatda, pedagogik texnologiyaga ta’lim sohasidagi siyosatning bosh vazifasi sifatida qarab kelingan. Bunday yondashish YUNESKO tomonidan ham ma’qullandi va 1972 yilda «Ta’limni rivojlantirish masalalari» bo‘yicha Xalqaro Komissiya tashkil topdi. Bu komissiya zamонавиу texnologiya-ta’limni modernizatsiyalashda harakatlantiruvchi kuchdir, deb baholadi.

Respublikamiz hukumati tomonidan ta’limni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor sohasi deb e’lon qilinishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarining demokratlashuvi va insonparvarlashuvi hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi

ta’lim tizimining rivojlanishiga asos bo‘ldi va ta’lim tizimida tub islohotlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Ijtimoiy voqelik ta’limni boshqarish muammolarini ko‘rib chiqish va hal qilishni mustaqil yo‘nalish sifatida ajratib olish, ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishning asoslangan usul, vositalarini ishlab chiqish va joriy qilish zaruratinini belgilab berdi. Uning o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish o‘rtasidagi tashkiliy-boshqaruv, axborot aloqalari; ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik shaxsni shakllantirishdagi yaxlit jarayonning tarkibiy qismlari sifatidagi ahamiyatini oshirdi.

Bugungi kunda erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda va faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirish-«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ning asosiy ustuvor yo‘nalishidir. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga demokratik asoslarni joriy etish, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishni tezlashtirish imkonini beradi. Dastur ta’lim muassasalari mustaqilligini kengaytirish orqali ta’lim boshqaruvini demokratlashtirishni o‘z ichiga oladi.

O‘qish, o‘qitish – inson faoliyatining boshqa sohalari singari - ijtimoiy foydali faoliyatdir. Iqtisodiy tizimlar nima ishlab chiqarayotgani bilangina emas, balki qanday ishlab chiqarayoani va qanaqa mehnat qurollari yordamida ishlab chiqarayotganligi bilan biri ikkinchisidan farq qiladi, degan g‘oya o‘qish-o‘qitish faoliyatiga ham taalluqlidir.

Pedagogika fanida ta’lim usullari rivojlanishiga shu nuqtai nazardan qarab, uni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Muallim «o‘z qo‘l kuchi» bilan o‘qitish bosqichi, ya’ni o‘quvchi uchun axborot manbai – o‘qituvchining o‘zi bo‘ladigan jarayon.
- 2.O‘quv kitoblari, darsliklar yaratilgan va keng qo‘llanilgan bosqich.
- 3.Audiovizual vositalar qo‘llanilgan bosqich.
- 4.O‘qitishni boshqarishda oddiy avtomatlashtirish vositalarini qo‘llash bosqichi.
5. O‘qitishni zamonaviy AKTlari vositasida boshqarishning avtomatlashtirilgan bosqichi.

Insoniyatning rivojlanish davrlari almashganda pedagogik texnologiyalar butunlay yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki pedagogik texnologiyalar keyingi davrlarga assotsiatsiya orqali fikran bog‘lanadi, yangi sifatlar, xususiyatlarga ega bo‘lib, kuchayadi va boyiydi. Ushbu jarayon borgan sari tezlashib boradi.

Kishilik tarixida 1-bosqich uzoq muddat davom etgan. Unda o‘qituvchi o‘z kuchiga, o‘z bilim va mahoratiga asoslanib ish bajargan. Keyinchalik dunyoviy va diniy mazmundagi qo‘lyozma kitoblar yaratildi, lekin o‘quvchi ularning mazmunini o‘qituvchi faoliyati vositasida o‘zlashtiradi.

2-bosqich, ya’ni qog‘oz va o‘quv kitoblari davri hali nihoyasiga yetkazilgani yo‘q, darsliklar yaratish va ulardan foydalanish texnologiyasi esa hamon mukammal emas. Lekin o‘qitishning 1,2,3-bosqichlariga xos ta’lim vositalari maktablarga jadal kirib bormoqda.

O‘quv adabiyotlarini joriy etish qarama-qarshiliklar kurashi natijasida sodir bo‘lgan. Keyingi davrlarda ham ta’lim sohasidagi jiddiy o‘zgarishlar kurashsiz amalga oshmagan, bunday o‘zgarishlar oson kechmagan. Bugungi kunda ham 1-bosqich texnologiyasi ruhida shakllangan ayrim pedagoglarda keyingi davrlarda vujudga kelgan o‘quv vositalarini o‘zlashtirib olishga, ta’lim-tarbiya jarayonini shu asosda tashkil etishga intilish sust darajada. 1-bosqich o‘quv vositalari o‘qituvchidan ko‘p mehnat talab etadi va o‘quvchining bilim, tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lmaydi.

Bu pedagogik bosqichlarning har birida ta’lim metodlari takomillashtirila borganligi tufayli o‘qituvchi mehnatining samarasi ortib, zamonaviy texnologiyani qo‘llaydiganlar safi kengaya borgan.

Bugungi kunda respublikamizni rivojlangan davlatlar darajasiga chiqarish maqsadida bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. Ta’lim O‘zbekiston davlati siyosatining ustuvor sohasiga aylandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlangan mamlakatlar darajasida raqobatbardosh, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni egallagan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadi va vazifasi kun tartibiga qo‘yildi. Auditoriyalarga kirib o‘quv jarayonini kuzatgan kishi mavjud pedagogik tizim birinchi va ikkinchi bosqichlarga xos ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Pedagogik vaziyatlarni yaratish va uni yechish texnologiyasi.

- pedagogik konflikt tushunchasi – konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt sub’ektlari orasidagi qarama-qarshiliklar, bo‘sish va mazmunli konflikt;
- holat tahlili (voqeani aniqlash);
- konflikt;
- konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);
- konfliktni yechish shakllari (umor, hazil, mutoiba).

Zamonaviy pedagogik texnologiyaning qo'shimcha elementlari:

1. Psixologik muhit yaratish texnologiyasi.
2. Guruh faoliyatini tashkil etish texnologiyasi.
3. Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz holatlarni tashkil etish texnologiyasi.
4. O'quvchining xatti-harakatiga pedagogik reaksiya qilish texnologiyasi.
5. Xulqi va odobi yomon o'quvchi-talabalar bilan ishlash texnologiyasi.
6. Etik himoya texnologiyasi.
7. Muammoli vaziyatlar yaratish texnologiyasi.
8. Pedagogik vosita texnologiyasi.
9. Pedagogik improvizatsiya texnologiyasi.

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergen. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofig'i YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi.

Pedagogik texnologiya – ta'lif shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

Shuningdek, texnologiya deganda, sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektga sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma - ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi(pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarus bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki boshqacha aytganda, o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin.

Professor N.Sayidahmedovning fikricha, «Texnologiya – bu shaxsni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o‘zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta’minlaydigan pedagogik faoliyatdir». Texnologiya tushunchasi reguliyativ (tartibga solib turuvchi) ta’sir etish kuchiga ega bo‘lib, erkin ijod qilishga undaydi:

- samarador o‘quv-bilish faoliyatining asoslarini topish;
- uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs yo‘qotishga olib keladigan samarasiz) asosdan ko‘ra intensiv (jadal), mumkin qadar, ilmiy asosda qurish;
- talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish;
- o‘qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo‘qotish;
- ta’lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash;
- texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o‘zlashtirish va boshqalar.

Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o‘qitish bosqichlaridan, o‘z navbatida, bu bosqichlarning har biri o‘ziga xos amallardan iborat bo‘ladi. Amal – o‘qituvchining sinfda mavzu bo‘yicha o‘quv elementlarini tushuntirish borasidagi bajargan ishlar yig‘indisi bo‘lib, o‘qitish jarayonining shu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi.

Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma’lum pedagogik tizimning loyihasi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya-ta’lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, yangi tajriba, ta’lim-tarbiya metodlari tushunchalarini qamrab oladi. Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalgaloshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo‘li bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada. Zamonaviy pedagogik texnologiyani pedagogika fanining alohida tarmog‘i sifatida yoki faqat ta’lim amaliyotini maqbullashtirishga yo‘naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. Zamonaviy pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Avvalo, zamonaviy pedagogik texnologiya nimani anglatadi?

1. Zamonaviy pedagogik texnologiya o‘quv-tarbiya jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma’lum bir pedagogik tizim mavjud bo‘ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o‘z ta’sirini o’tkazadi va ta’lim-tarbiya maqsadini umumiy

holda belgilab beradi. Maqsadi esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o‘z navbatida yangilash zaruratinizi keltirib chiqaradi.

2. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib boryapti, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o‘zining ma’lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizual, audial vositalar ham mavjud bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyat-e’tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o‘z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq zamonaviy pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog‘liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo‘lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o‘ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir.

Zamonaviy pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an’anaviy o‘quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta’sir ko‘rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni texnologiyalashtirish tarixiy voqelik va jarayondir. Axborotlashtirish bu jarayondagi inqilobiy burilish va uning muhim bosqichidir. Oddiy til bilan aytganda, ta’lim tizimida axborot texnologiyasi – bu «o‘quvchi yoki talaba–kompyuter» o‘rtasidagi muloqotdir.

Axborotli texnologiya pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi bo‘lib, u ta’lim jarayonida texnik vositalarning mukammallahgan zamonaviy turi sifatida qo‘llana boshlandi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo‘lgan. Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, «sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan kuch energiya, xom-ashyo, materiallar va moddiy iste’mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ortiq

bo‘ldi, ya’ni axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar va xususan, yangi texnologiyalar orasida yetakchi o‘rin egallamoqda.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishida aqliy mehnat vositalarining o‘zgarishi bilan bog‘liq ikkita axborot inqilobi hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi. Birinchi inqilob kitob bosishning paydo bo‘lishi bilan ro‘y berdi va telefon, telegraf, radioning ixtiro qilinishi bilan chuqurlashdi. Ikkinci inqilob elektron-hisoblash mashinalari(EHM)ning paydo bo‘lishi va tez tarqalishi, EHM lokal tarmoqlarining yaratilishi, axborot resurslarini boshqarish tizimlarining tashkil etilishi bilan bog‘liqdir. Shu bois yaqin kelajakda respublikamizdagi mavjud barcha o‘quv yurtlari dasturli mashinalar bilan yetarli darajada ta’minalash muammosi paydo bo‘ldi. Shundagina axborotli texnologiya asosida talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug‘iladi va u o‘qituvchining yaqin ko‘makdoshiga aylanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash avvalo pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni talab etadi. Chunki pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo‘lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g‘amxo‘rlik, ta’lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e’zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug‘ullanishi va o‘zini o‘zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o‘z o‘quv faoliyatining sub’ekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta’lim jarayonining sub’ekti - ta’lim-tarbiya vazifalarini hal etadi. Umuman, pedagogik texnologiya o‘quv jarayoni va uning ishtirokchilari bilan bog‘liq barcha maqsadli sa’y -harakatlar yig‘indisini anglatishi lozim.

## **8-Mavzu: Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish bosqichlari.**

### **Mavzu rejasi:**

1. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish bosqichlari.
2. Ilg‘or o‘qituvchi-ijro tajribasi tavsifining shakllari: tezislар, maqolalar, pedagogik jurnallar.
3. Maktabgacha ta’lim tizimida individuallashtirilgan o‘qitishni tashkil etishning afzalligi va o‘ziga xosligi
4. Individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasining ahamiyati

**Tayanch tushunchalar:** test, loyixalash, sifat, kafolat, strategiya, DTS, ta’limni rejalahtirish, loyixalash, yangi usul, mualliflik texnologiyasi

O‘qitish texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida talaba va o‘qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga yega bo‘ladi. Bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

Pedagogik jarayonda shaxsni ko‘zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (Sh.A.Amonashvili texnologiyasi);

O‘quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o‘qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.F.Shatalov texnologiyasi);

O‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil yetish asosiga qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi, N.P.Guzikning o‘qitish tizimini rejalahtirish texnologiyasi);

O‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Granitskaya, V.D.Shadrikov texnologiyasi);

O‘qitishni dasturlash texnologiyasi (B.P. Bespalko).

Hamkorlik pedagogikasi XX asrning 80-yillarida rivojlana boshladi va ta’limdagi ko‘pgina innovatsion jarayonlarni hayotga chorladi. Bu texnologiya negizida taniqli rus va chet yel pedagoglarining tajribasi yotadi. Ular K.D.Ushinskiy, N.P.Pirogov, L.N.Tolstoy, J.J. Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers, Ye.Bern, S.T.Shatskiy, V.A.Suxomlinskiy va boshqalardir.

Hamkorlik pedagogikasi 4ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladi:

-shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv;

-dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;

-tarbiya konseptsiyasi;

-atrof-muqitni ta’lim-tariyaga moslash;

Sh.A.Amonashvilining inson-shaxs texnologiyasi. Shalva Aleksandrovich Amonashvili taniqli pedagog olim va amaliyotchidir. U o‘zining eksperimental maktabida qamkorlik pedagogikasini, shaxsiy yondashuvni, til va matematika qitishning ajoyib metodikasini ishlab chiqdi va qayotga tatbiq yetdi.

Sh.A. Amonashvilining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

-bolaning shaxsiy xislatlarini namoyon qilish orqali unda oljanob insonning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiyalanishiga imkon tug‘dirmoq;

- bolaning qalbi va yuragini uluqlamoq;
- boladagi bilishga bo‘lgan kuchlarni rivojlantirish va shakllantirish;
- keng va chuqur bilim qamda malaka olish uchun sharoit tuqdirmoq;
- ideal tarbiya – bu o‘z-o‘zini tarbiyalamoq.

Sh.A. Amonashvili o‘zining texnologiyasini amalga oshirish uchun quyidagi metodika va metodik usullardan foydalandi:

- insonparvarlik;
- shaxsiy yondashuv;
- muloqot maqorati;
- oila pedagogikasining qo‘srimcha imkoniyati;
- o‘quv faoliyati.

Sh.A. Amonashvili texnologiyasida bola faoliyatini baqolash aloqida aqamiyatga yega. Baqolardan foydalanish o‘ta cheklangan. Miqdoriy baqolashdan ko‘ra sifatli baqolashga urqu beriladi, ya’ni tavsif, natijalar paketi, o‘z-o‘zini baqolash.

O‘qitishni jadallashtirish texnologiyasi.

Bu texnologiyani Viktor Fedorovich Shatalov ishlab chiqdi va qayotga joriy qildi. U o‘qitishning an‘anaviy sinf-dars usulining qali ochilmagan katta imkoniyatlarini ko‘rsatib berdi.

V.F. Shatalovning maqsad-mo‘ljali:

- bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish;
- qar qanday individual xususiyatlarga yega bo‘lgan barcha bolalarni o‘qitish;
- o‘qitishni tezlashtirish.

Tamoyillar:

ko‘p marta takrorlash, majburiy boshichma-boshich nazorat, qiyinchilikning yuqori darjasini, katta bloklarda o‘rganish, faoliyatning dinamik qolipi, xattiqarakatning tayanchi, mo‘ljaldagi asosini qo‘llash;

- shaxsni ko‘zda tutish asosida yondashuv;
- insonparvarlik;

zo‘rlab o‘qitmaslik;

o‘quv vaziyatlarining konfliksizligi, qar bir o‘quvchining muvaffaqiyatlaridan boxabarlik, tuzatish (yo‘lga solish), o‘sish, yutuqlarga istiqbolni ochish;

o‘qitish va tarbiyani boqlash.

V.F. Shatalov metodining o‘ziga xosligi:

materiallar katta qajmda kiritiladi;

materiallar bloklar bo‘yicha joylashtiriladi;

o‘quv materiali tayanch sxema – konspekt ko‘rinishida rasmiy lashtiriladi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tayanch konspekt ko‘rgazmali sxemani tashkil yetmoqda.

V.F. Shatalov tayanch (tayanish) deganda bola qarakatlarining taxminiy asosini, ichki fikrlash faoliyatining tashqi tashkil qilinish usulini tushunadi.

Tayanch signal o‘zaro uzviy boqlovchi ramzlar (ishora, so‘z, sxema, rasm va q.o) bo‘lib, qandaydir ma’noli moqiyatni almashtiradi.

Tayanch konspekt - o‘quv materiallari o‘zaro boqlangan usullarining butun qismlari sifatida faktlar, tushunchalar, qoyalar tizimi o‘rnida qo‘llana oladigan ko‘rgazmali konstruksiyalardan iborat qishacha shartli konspekt ko‘rinishidagi tayanch signallar sistemasidir.

V.F. Shatalovning xizmatlari shundaki, u mashqulotlarda yetarli darajada va barchaning faolligini ta’minlovchi o‘quv faoliyati tizimini ishlab chiqdi. V.F. Shatalovning o‘quv jarayoni texnologik sxemasi tablitsada ko‘rsatilgan.

V.F. Shatalov metodikasi 4 boshichdan iborat bo‘lib, ular bir qancha usul va metodik yechimlarni o‘z ichiga oladi:

1. Nazariyani sinfda o‘rganish: taxtada oddiy tushuntirish (bo‘r, ko‘rgazmali qurol, TV bilan); bo‘yagan plakat – tayanch konspekt bo‘yicha qayta tushuntirish; plakat bo‘yicha qishacha bayon qilish; o‘quvchilarning o‘z konspektlari ustida individual ishlashlari, konspekt bloklari bo‘yicha keng mustaqkamlash.

2. Uydagi mustaqil ishlar: tayanch konspekt Qdarslik Qota-onalar yordami. o‘quvchilarga uqtirish: konspektidan foydalangan qolda o‘qituvchining tushuntirganlarini yesla, berilgan materialni kitobdan o‘qi; o‘qiganlaringni konspekt bilan qiyosla; konspekt yordamida darslik materiallarini so‘zlab ber

(kodlashtirish-dekodlashtirish); konspektni so‘zlab berish uchun tayanch sifatida yodda saqla; konspektni qayta ishlab chiqqish va namunaga qiyosla.

3. Birinchi takrorlash - konspektni o‘zlashtirishni qar tomonlama keng nazorat qilish: barcha o‘quvchilar konspektni xotirasida qayta ishlab chiqadilar, o‘qituvchi ularni peshma-pesh tekshirib boradi; bir vaqtning o‘zida «asta» va magnitafon orqali so‘rab boradi; yozma ishdan so‘ng oqzaki so‘rash boshlanadi.

4. Tayanch konspektni oqzaki so‘zlab olish - o‘zlashtirishdagi tashqi nutq (oqzaki) faoliyatining yeng muqim boshichi, u turli savol-javoblar jarayonida yuz beradi.

5. Ikkinchchi takrorlash-umumlashtirish va bir tizimga keltirish (tartibga tushirish): o‘zaro nazorat darslari; oldindan sinov savollari ro‘yxatini nashr qilish; tayyorlash; barcha turdag'i nazoratlardan foydalanish (taxtada, astagina, yozma va b.); o‘zaro so‘rash va o‘zaro yordam; o‘yinli unsurlar (jamoalar bellashuvi, rebusni topishi va b.).

Nazorat, baqolash. V.F. Shatlov o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini boshichma-boshich nazorat qilishning bosh muammosini qal qildi. Doimiy tashqi nazoratni o‘zini-o‘zi nazorat qilish va o‘z-o‘zini baqolash bilan boqlash, qar birini boshichma-boshich nazorat qilish, kuchi yetadigan darajada talab qilish, doimo tuzatishning imkoniyati mavjudligi, natijalar oshkorligi, ikki baqoning yo‘qligi, past baqodan qo‘rqishning yo‘qligi.

Nazorat shakllari: tayanch konspekt bo‘yicha yozma ish, mustaqil ishlar, baland ovozda so‘rash, magnitafonda, juftlikda o‘zaro nazorat, guruqdagi o‘zaro nazorat, uy nazorati, o‘z-o‘zini baqolash.

O‘quvchi tomonidan olingan qar bir baqo bilimlarni maxsus ochilgan ko‘zguga qo‘yib boriladi. U go‘yo o‘quvchiga xizmat qiladigan ro‘yxat vazifasini bajaradi, baqolar yesa ijobi shifrlangan tavsifnomaga aqamiyatiga yega bo‘ladi. Bunday tavsifnomani ye’lon qilish katta tarbiyaviy aqamiyatiga yega bo‘ladi. Bu tavsifnomaning yeng muqim tomoni shundaki, o‘quvchi xoqlagan vaqtida qar qanday baqoni nisbatan yuqori baqoga o‘zgartirishi mumkin. Ochiq imkoniyat tamoyilining moqiyati qam shunda. qar bir baqo, - deb ta’kidlaydi V.F. Shatalov, avvalambor, o‘quvchida ijobiye ye’tiborni qo‘zqatadigan vosita, turtki bo‘lib xizmat qilishi lozim. Ikki baqo salbiy qislarga sabab bqladi, o‘qituvchi va fan bilan ziddiyatni keltirib chiqaradi. Shatalov bunday konfliktli vaziyatlarni bartaraf qiladi.

Metodik usullar (pedagogik mikrounsurlar) tirkamasiga: uchirma takrorlash, releli (almashma) nazorat ishlar, desant metodi, zanjir metodi, vazifalar ichida «cho‘milmoq», kitobdagι xatolarni topmoq, varaqchalarda misol-masala yechish, tanlov asosida misol-masala yechish, 4 qo‘lda yechish, tajriba darslari, «miyaga» niqtash, quyidan yuqoriga qarab yechish, aytib berganni raqbatlantirish, ochiq fikrlar darsi, oltinchi ball, ijodiy konspekt, tezaytish, keskinlikni yumshatish usullari (musiqa, yoruqlik, tanaffus va b.) va b.

V.F.Shatalov tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv faoliyati tizimi maktab o‘quvchilarida eksperiment qilingan, lekin uning metodikasi matematika o‘qitish doirasidan chiqib, nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar fanlar: til, tarix kabi fanlarni o‘qitishda qam keng tarqaldi.

V.F. Shatalov metodikasi oliy o‘quv yurtlarida qam muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda.

Tayanch sxemalar izoqidan foydalangan qolda istiqbolli o‘qitishni boshqarish S.N.Lisenkova texnologiyasi. Bu texnologiya asosida quyidagilar yotadi:

- qamkorlik pedagogikasiga bo‘lgan shaxsiy yondashuv;
- o‘zlashtirish (muvaffaqiyat) - o‘qitish jarayonida bolalar rivojlanishining yeng muqim sharti;
- sinfdagi fayz: xayrixoqlik, o‘zaro yordam;
- xatolaridan ogoq qilish, lekin xatolar ustida ishslash yemas;
- o‘quv materialining ketma-ketligi, izchilligi;
- vazifaning qar bir o‘quvchiga qulayligi va ularga aloqida-alоqida bo‘lib berilishi;
- asta-sekin to‘liq mustaqillikka o‘tish;
- bilaqon o‘quvchi vositasida bilmaydigan o‘quvchilarni o‘qitish.

S.N.Lisenkova metodikasining xususiyati shundaki, qiyin mavzular dasturda belgilangan soatlarda yemas, balki undan oldin o‘rganila boshlanadi. Bu istiqbolli tayyorgarlikdir.

Istiqbolli tayyorgarlik o‘rganilishi yaqinlashib kelayotgan qiyin mavzularni yo‘l-yo‘lakay o‘tishning boshlanishidir.

Umumlashtirish bu muayyan bilimlar asosidagi mavzuni umumlashtirishdir.

S.N.Lisenkova metodikasi asosida materialni o‘zlashtirish uch boshichda kechadi:

1. Kelgusida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlarni oldindan kichik qajmlarda berib borish;
2. Yangi tushunchalarni aniqlashtirish, ularni umumlashtirish va qo‘llash;
3. Fikrlash usullari va o‘quv xatti-qarakatlarining rivojlantirish.

O‘qitishni tabaqlashtirish.

G.K.Selevko tadqiqotlarida o‘qitishni tabaqlashtirish o‘quv jarayonini tashkil yetish shakli sifatida izoqlanadi, o‘zida bilim darajasi bir xil bo‘lgan, u yoki bu jiqatdan o‘quv jarayonida umumiyligini sifatlarga yega bo‘lgan o‘quvchilar guruqi bilan o‘qituvchi ishlaydi. O‘qitishni tabaqlashtirish o‘quv jarayonidagi ta’lim oluvchilarning turli guruqlarini ixtisoslashtirilishini ta’minlaydigan umumiyligini didaktikaning bir qismi sifatida qam belgilanadi.

O‘qitish tizimining qurama texnologiyasi (N.P. Guzik).

«O‘qitish tizimining qurama texnologiyasi» saviyasiga va darslarda mavzu bo‘yicha davriylikni rivojlantirishga ko‘ra sinf ichidagi o‘qitishning tabaqlashtirilishi deb qaraladi. Darslar qar bir mavzu bo‘yicha ketma-ket joylashgan besh tipdan iborat bo‘ladi:

- 1) mavzuni umumiyligini qiluvchi darslar (ular leksiyalar deb yuritiladi);
- 2) ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlari jarayonida o‘quv materialining chuqurlashtirib ishlab chiqishini ko‘zda tutgan, tuzilgan seminar mashqulotlari (bunday darslar uchtadan beshtagacha bo‘lishi mumkin);
- 3) bilimlarni umumlashtirish va tartibga tushirish (guruqlash) darslari (mavzular bo‘yicha sinovlar);
- 4) fanlararo materiallarni umumlashtirish (mavzular bo‘yicha vazifalarni qimoya qilish);
- 5) dars-praktikumlar.

Keyingi boshichda o‘qituvchi o‘quvchilarning saviyalariga ko‘ra tabaqlashtirish ishlarini tashkil yetadi. Bu ish yangi materialni berish, uni mustaqkamlash va takrorlash, bilim, malaka va ko‘nikmalarni nazorat qilishda amalga oshiriladi.

## **9-Mavzu: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda innovation bankini tashkil etish.**

### **Mavzu rejasি:**

1. Innovasiyalarni kiritish xaritasi.
2. Uning tarkibi: muammo, yangilikning maqsadi, ishtirok etishning mohiyati.
3. Innovasiyalarni baholash, rivojlanish va amalga oshirishdagi fikrlar.
4. Hozirgi zamon an'anaviy ta'limining afzalliklari va kamchiliklari

Sho‘ro davlatiga xizmat qilib kelgan pedagogikaga ob’ektiv baho bermasdan turib yangi asr pedagogikasi haqida fikr yuritish mutloqo mumkin emas. Pedagogika inson faoliyati bilan shug‘ullanuvchi soha sifatida o‘z tuzilmasida jarayonning sub’ekt va ob’ektlarini qamrab oladi. An'anaviy “sub’ekt-ob’ekt” pedagogikasida o‘quvchi ob’ekt hisoblanib, o‘qituvchi unga tajriba uzatar edi. Zamonaviy pedagogika, ko‘proq, bolaga o‘quv faoliyatining sub’ekti sifatida, o‘z-o‘zini boshqaradigan va o‘zini namoyish etishga intilayotgan shaxs sifatida murojaat qilmoqda. An'anaviy pedagogika xususida matbuotda, dissertatsiyalarda ba’zi bir tanqidiy mulohazalar bildirilmoqda. Bizningcha, avtoritar pedagogikaning haqiqiy “qiyofa”sini ochish uni pedagogik tizim nuqtai nazardan batafsil tahlil etish kerak bo‘ladi. Chunki, XXI asrda ta’lim-tarbiyani harakatga keltiruvchi kuch o‘zida aniq didaktik masalalarini ifodalagan va ularni hal etish texnologiyalarini biriktirgan pedagogik tizim hisoblanadi. Endi tabiiy holda savol tug‘iladi:

### **Pedagogik tizim nima?**

Pedagogik tizim deganda, o‘quvchi (talaba)larda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirishga maqsadli pedagogik ta’sir etishni yuzaga keltira oladigan vositalar, metodlar, jarayonlarning o‘zaro bog‘liq majmuasi tushuniladi. Har qanday istiqbolli pedagogik innovatsiyaga baho berishda tizimli yondashilgandagina o‘zining ob’ektiv bahosini olishi mumkin. Keling, endi an'anaviy pedagogika fanning asosiy masalalarini pedagogik tizim yordamida qiyoslashga kirishaylik.

Birinchidan, sovet pedagogikasida ta’lim-tarbiya maqsadi har bir o‘quvchi shaxsini har tomonlama va garmonik rivojlantirish, mazmunan esa ko‘proq fan asoslari bo‘yicha bilimlar tizimini shakllantirishdan iborat edi. Afsuski, “har tomonlama rivojlantirish”, dekloratsiya, chaqiriq edi, xolos. Uning qisqacha mohiyati: texnikaviy taraqqiyot davomida insonning mehnat faoliyati o‘zgarib turadi, shu boisdan, keng umumiylar va politexnik ta’limni bunday o‘zgarishlar asosi sifatida joriy etish zururatga aylangan edi. Bugun hayotning o‘zi guvohlik

berayaptiki, texnik taraqqiyot mumkin qadar yuqori kasbiy mahorat darajasini taqozo etadi. Unga erishish uchun ma'lum mehnat turi doirasida faoliyatni maqsadli yo'naltirishni talab etyapti, doimiy o'rin almashtirishni emas.

Ikkinchidan, ta'lim mazmuni an'anaviy pedagogikada texnokratik xarakterga ega edi, o'quvchi ma'naviyatini, uning ichki dunyosini shakllantirishga e'tibor deyarli qaratilmas edi. Ta'lim mazmuni rejalahtirilgan, markazlashtirilgan, sobiq sovet davlati bo'yicha yagona bazisli o'quv rejalarini ishlab chiqilar va joriy etilar edi. o'quv predmetlari mustahkam "xitoy devori"dan qal'a qurib olgan, o'quvchi uning ichida (faqat ichida) harakatlanishi mumkin edi.

Bugun ta'lim-tarbiya mazmuni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida qayta ishlanmog'i, milliy istiqlol mafkurasi singdirilmog'i, jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, texnik-texnologiya yutuqlarini mujassamlashtirmog'i lozim. Shu bilan birgalikda tarbiya mazmuni ijodiy faoliyat tajribasidan, novator-pedagoglar tomonidan yaratilayotgan ilg'or texnologiyalardan bahra olishi shart.

Uchinchidan, avtoritar o'qitish jarayoni o'rtacha o'zlashtiradigan o'quvchiga yo'naltirilgan, o'quvchi faoliyati reglamentlashgan, nazorat esa markazlashtirilgan edi. O'quvchilarda mustaqillik yo'q, o'qituvchi tayyor bilimlarni o'rgatar, bolalar ularni to'tidek takrorlar, o'qituvchilar o'quv mehnati kuchsiz motivlashgan. Yangi asrda o'qitish jarayoni didaktik jarayonga aylanmog'i lozim. Boshqacha qilib aytganda, ilg'or pedagogika texnologiyalar yordamida o'quvchining aqliy zakovatini, erkin fikrlashini, mustaqil faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi zarur. Buning uchun o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishda interfaol metodlardan (didaktik o'yinlar, guruhlarda ishslash, darsauksion, dars-sud va boshqa.) mumkin qadar ko'proq foydalanish kerak bo'ladi.

T o'rtinchidan, an'anaviy o'qitish tashkiliy ji'atdan XVII asrda Ya.A.Komenskiy tomonidan shakllangan sinf-dars tizimiga bo'ysunadi va hozir ham ta'limning bu shakli jahon maktablarida ustuvorlik kasb etib turibdi. Uning o'ziga xos atributlari:

- bir xil yoshdag'i bolalar sinfini tashkil etadi, butun sinf dars jadvaliga binoan, yagona yillik reja va dastur bo'yicha ishlaydi. Oqibatda o'quvchilar yil davomida oldindan aniqlangan kun soatlar bo'yicha muktabga kelib ketaveradi;
- yagona mashg'ulot turi – dars hisoblanadi;
- dars bir o'quv predmeti mavzusiga bag'ishlanganligi sababli sinf o'quvchilarining barchasi bir xil material bilan ish ko'radilar;

- o‘qituvchi darsda o‘quvchilar faoliyatini to‘liq boshqaradi;
- o‘quvchining kitobdan foydalanishi, asosan, uy topishriqlarini bajarishda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, dars-sinf tizimining qonuniyatlari maxsus adabiyotlarda to‘liq yoritilgan: o‘quv yili, o‘quv kuni, dars jadvali, o‘quv ta’tili, tanaffus yoki darslar o‘rtasidagi dam olish.

Uchinchi ming yillikda o‘qitish, (tarbiyalash)ning tashkiliy shakllari rivojlangan davlatlar tajribalari asosida takomillashtirilishi lozim: didaktik birliklarni yiriklashtirish, o‘qitish natijalarini oldindan belgilash, rejalashtirish, ta’lim jarayonini psixologiyalashtirish, komppterlashtirishga e’tibor qaratiladi. Ana shu yo‘nalishlar aniq ta’lim-tarbiya maqsadini yechishga qaratilgan holda yaxlitlashtirilsa, bu amal natijasida kuchli texnologiya vujudga keladi. Bu texnologiya integral texnologiya deb ataladi.

Integral texnologiyalar uchun yangi mashg‘ulot shakli – seminar – praktikum yaratiladi. Uning mazmuni: mashg‘ulotni o‘tkazish uchun o‘quvchi (talaba)lar kichik guruhlarga birlashadi va har bir guruh chegaralangan vaqt davomida bajara oladigan topshiriqlar oladi. Ana shu topshiriqni bajarishga kirishadilar va bunda ta’lim-tarbiya jarayoni ob’ektini to‘g‘ri tanlash jiddiy ahamiyat kasb etadi. Ob’ekt obdon tadqiq qilingach, natijalar bo‘yicha kichik guruhlar hisob beradilar, ya’ni mashg‘ulot “publik himoya” ko‘rinishida tashkil etiladi. qarabsizki, o‘quvchilar o‘z-o‘zini o‘qitish, bahs, munozara, mavqeini mustaxkamlash orqali mavzuni chuqur o‘rganadilar va shu tarzda yakuniy natija ta’milanadi.

Beshinchidan, an’anaviy ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchining tutgan o‘rni quyidagicha: o‘quvchi-tarbiyaviy (ta’limiy) ta’sirga bo‘ysunuvchi ob’ekt, o‘quvchi – yetilmagan shaxs, o‘quvchi – burma vint, xohlagancha burash mumkin, o‘quvchi – askar. o‘qituvchi – komandir, yagona tashabbuskor shaxs, sudpya (har doim haq.) uning quroli – yozma va og‘zaki nutqlarga asoslangan sub’ektiv (5 ball) baho.

Yangi ming yillikda pedagogik tizim ishtirokchilari – o‘qituvchi va o‘quvchi (talaba) faoliyatini “sub’ekt” qonuniyatlari asosida tashkil etish ta’limda ko‘zlangan natijani kafolatlaydi, ya’ni hamkorlikdagi pedagogika “ish”ga to‘liq tushadi: ta’lim-tarbiya mazmuni eng so‘nggi innovatsion jarayonlar bilan ta’milanib boradi. Pedagogik jarayon markazida o‘z imkoniyatlarini to‘la namoyish eta oladigan, turlicha hayotiy vaziyatlarda javobgarlikni his etgan holda ongli ravishda yangi tajribalarni qo’llay oladigan

yaxlit shaxs turadi. Demak, ertaga “talabalar” pedagogikasi “munosabatlar” aylanishiga shub’ a yo‘q.

Tajribali pedagog ushbu keltirilgan zamonaviy texnologiyalar yig‘indisi bilan samarali foydalana oladi, chunki ularni qo‘llash turli omillarga bog‘liq.

## **10- Mavzu: Innovation jarayonlarni nazorat qilish va tartibga solish.**

### **Mavzu rejasi:**

1. Nazoratni tayinlash. Rejali natijani nazorat qilish.
2. Innovasiya natijalarini nazorat qilish va ekspert baholash.
3. Innovasiyalarni tahlil qilish algoritmi.
4. Innovasion jarayonlarni tartibga solish va kompleks-maqsadli dastur tuzishning yo‘llari.

Sho‘ro davlatiga xizmat qilib kelgan pedagogikaga ob’ektiv baho bermasdan turib yangi asr pedagogikasi haqida fikr yuritish mutloqo mumkin emas. Pedagogika inson faoliyati bilan shug‘ullanuvchi soha sifatida o‘z tuzilmasida jarayonning sub’ekt va ob’ektlarini qamrab oladi. An’anaviy “sub’ekt-ob’ekt” pedagogikasida o‘quvchi ob’ekt hisoblanib, o‘qituvchi unga tajriba uzatar edi. Zamonaviy pedagogika, ko‘proq, bolaga o‘quv faoliyatining sub’ekti sifatida, o‘z-o‘zini boshqaradigan va o‘zini namoyish etishga intilayotgan shaxs sifatida murojaat qilmoqda. An’anaviy pedagogika xususida matbuotda, dissertatsiyalarda ba’zi bir tanqidiy mulohazalar bildirilmoqda. Bizningcha, avtoritar pedagogikaning haqiqiy “qiyofa”sini ochish uni pedagogik tizim nuqtai nazardan batafsil tahlil etish kerak bo‘ladi. Chunki, XXI asrda ta’lim-tarbiyani harakatga keltiruvchi kuch o‘zida aniq didaktik masalalarini ifodalagan va ularni hal etish texnologiyalarini biriktirgan pedagogik tizim hisoblanadi. Endi tabiiy holda savol tug‘iladi:

Pedagogik tizim deganda, o‘quvchi (talaba)larda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirishga maqsadli pedagogik ta’sir etishni yuzaga keltira oladigan vositalar, metodlar, jarayonlarning o‘zaro bog‘liq majmuasi tushuniladi. Har qanday istiqbolli pedagogik innovatsiyaga baho berishda tizimli yondashilgandagina o‘zining ob’ektiv bahosini olishi mumkin. Keling, endi an’anaviy pedagogika fanning asosiy masalalarini pedagogik tizim yordamida qiyoslashga kirishaylik.

Birinchidan, sovet pedagogikasida ta’lim-tarbiya maqsadi har bir o‘quvchi shaxsini har tomonlama va garmonik rivojlantirish, mazmunan esa ko‘proq fan asoslari bo‘yicha bilimlar tizimini shakllantirishdan iborat edi. Afsuski, “har tomonlama rivojlantirish”, dekloratsiya, chaqiriq edi, xolos. Uning qisqacha mohiyati: texnikaviy taraqqiyot davomida insonning mehnat faoliyati o‘zgarib

turadi, shu boisdan, keng umumiy va politexnik ta’limni bunday o‘zgarishlar asosi sifatida joriy etish zururatga aylangan edi. Bugun hayotning o‘zi guvohlik berayaptiki, texnik taraqqiyot mumkin qadar yuqori kasbiy mahorat darajasini taqozo etadi. Unga erishish uchun ma’lum mehnat turi doirasida faoliyatni maqsadli yo‘naltirishni talab etyapti, doimiy o‘rin almashtirishni emas.

Ikkinchidan, ta’lim mazmuni an’anaviy pedagogikada texnokratik xarakterga ega edi, o‘quvchi ma’naviyatini, uning ichki dunyosini shakllantirishga e’tibor deyarli qaratilmas edi. Ta’lim mazmuni rejalahtirilgan, markazlashtirilgan, sobiq sovet davlati bo‘yicha yagona bazisli o‘quv rejalarini ishlab chiqilar va joriy etilar edi. o‘quv predmetlari mustahkam “xitoy devori” dan qal’a qurib olgan, o‘quvchi uning ichida (faqat ichida) harakatlanishi mumkin edi.

Bugun ta’lim-tarbiya mazmuni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida qayta ishlanmog‘i, milliy istiqlol mafkurasi singdirilmog‘i, jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, texnik-texnologiya yutuqlarini mujassamlashtirmog‘i lozim. Shu bilan birgalikda tarbiya mazmuni ijodiy faoliyat tajribasidan, novator-pedagoglar tomonidan yaratilayotgan ilg‘or texnologiyalardan baha olishi shart.

Uchinchidan, avtoritar o‘qitish jarayoni o‘rtacha o‘zlashtiradigan o‘quvchiga yo‘naltirilgan, o‘quvchi faoliyati reglamentlashgan, nazorat esa markazlashtirilgan edi. O‘quvchilarda mustaqillik yo‘q, o‘qituvchi tayyor bilimlarni o‘rgatar, bolalar ularni to‘tidek takrorlar, o‘qituvchilar o‘quv mehnati kuchsiz motivlashgan. Yangi asrda o‘qitish jarayoni didaktik jarayonga aylanmog‘i lozim. Boshqacha qilib aytganda, ilg‘or pedagogika texnologiyalar yordamida o‘quvchining aqliy zakovatini, erkin fikrlashini, mustaqil faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashi zarur. Buning uchun o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishda interfaol metodlardan (didaktik o‘yinlar, guruhlarda ishslash, dars-auksion, dars-sud va boshqa.) mumkin qadar ko‘proq foydalanish kerak bo‘ladi.

To‘rtinchidan, an’anaviy o‘qitish tashkiliy ji’atdan XVII asrda Ya.A.Komenskiy tomonidan shakllangan sinf-dars tizimiga bo‘ysunadi va hozir ham ta’limning bu shakli jahon maktablarida ustuvorlik kasb etib turibdi. Uning o‘ziga xos atributlari:

- bir xil yoshdagagi bolalar sinfini tashkil etadi, butun sinf dars jadvaliga binoan, yagona yillik reja va dastur bo‘yicha ishlaydi. Oqibatda o‘quvchilar yil davomida oldindan aniqlangan kun soatlar bo‘yicha muktabga kelib ketaveradi;
- yagona mashg‘ulot turi – dars hisoblanadi;

- dars bir o‘quv predmeti mavzusiga bag‘ishlanganligi sababli sinf o‘quvchilarining barchasi bir xil material bilan ish ko‘radilar;
- o‘qituvchi darsda o‘quvchilar faoliyatini to‘liq boshqaradi;
- o‘quvchining kitobdan foydalanishi, asosan, uy topishriqlarini bajarishda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, dars-sinf tizimining qonuniyatlari maxsus adabiyotlarda to‘liq yoritilgan: o‘quv yili, o‘quv kuni, dars jadvali, o‘quv ta’tili, tanaffus yoki darslar o‘rtasidagi dam olish.

Uchinchi ming yillikda o‘qitish, (tarbiyalash)ning tashkiliy shakllari rivojlangan davlatlar tajribalari asosida takomillashtirilishi lozim: didaktik birliklarni yiriklashtirish, o‘qitish natijalarini oldindan belgilash, rejalashtirish, ta’lim jarayonini psixologiyalashtirish, komppterlashtirishga e’tibor qaratiladi. Ana shu yo‘nalishlar aniq ta’lim-tarbiya maqsadini yechishga qaratilgan holda yaxlitlashtirilsa, bu amal natijasida kuchli texnologiya vujudga keladi. Bu texnologiya integral texnologiya deb ataladi.

Integral texnologiyalar uchun yangi mashg‘ulot shakli – seminar – praktikum yaratiladi. Uning mazmuni: mashg‘ulotni o‘tkazish uchun o‘quvchi (talaba)lar kichik guruhlarga birlashadi va har bir guruh chegaralangan vaqt davomida bajara oladigan topshiriqlar oladi. Ana shu topshiriqni bajarishga kirishadilar va bunda ta’lim-tarbiya jarayoni ob’ektini to‘g‘ri tanlash jiddiy ahamiyat kasb etadi. Ob’ekt obdon tadqiq qilingach, natijalar bo‘yicha kichik guruhlar hisob beradilar, ya’ni mashg‘ulot “publik himoya” ko‘rinishida tashkil etiladi. qarabsizki, o‘quvchilar o‘z-o‘zini o‘qitish, bahs, munozara, mavqeini mustaxkamlash orqali mavzuni chuqur o‘rganadilar va shu tarzda yakuniy natija ta’minlanadi.

Beshinchidan, an’anaviy ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchining tutgan o‘rni quyidagicha: o‘quvchi-tarbiyaviy (ta’limiy) ta’sirga bo‘ysunuvchi ob’ekt, o‘quvchi – yetilmagan shaxs, o‘quvchi – burma vint, xohlagancha burash mumkin, o‘quvchi – askar. o‘qituvchi – komandir, yagona tashabbuskor shaxs, sudpya (har doim haq.) uning quroli – yozma va og‘zaki nutqlarga asoslangan sub’ektiv (5 ball) baho.

Yangi ming yillikda pedagogik tizim ishtirokchilari – o‘qituvchi va o‘quvchi (talaba) faoliyatini “sub’ekt” qonuniyatlari asosida tashkil etish ta’limda ko‘zlangan natijani kafolatlaydi, ya’ni hamkorlikdagi pedagogika “ish”ga to‘liq tushadi: ta’lim-tarbiya mazmuni eng so‘nggi innovatsion jarayonlar bilan ta’milanib boradi. Pedagogik jarayon markazida o‘z

imkoniyatlarini to‘la namoyish eta oladigan, turlicha hayotiy vaziyatlarda javobgarlikni his etgan holda ongli ravishda yangi tajribalarni qo‘llay oladigan yaxlit shaxs turadi. Demak, ertaga “talabalar” pedagogikasi “munosabatlar” aylanishiga shub’a yo‘q.

Tajribali pedagog ushbu keltirilgan zamonaviy texnologiyalar yig‘indisi bilan samarali foydalana oladi, chunki ularni qo‘llash turli omillarga bog‘liq.

## **11-Mavzu: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda innovasiyalarni ishlab chiqish va rivojlantirish texnologiyasi**

### **Mavzu rejasi:**

- 1. Pedagogik tajriba.**
- 2. Tajriba dasturining tarkibi.**
- 3. Tajriba dasturini tekshirish.**
- 4. Pedagogik tajribani umumlashtirish.**

Pedagogik texnologiya kafolatli ta‘lim-tarbiya maqsadga erishish bilan axamiyatli va dolzarbdir. Shuning uchun maqsadning aniqligi, unga mos mazmun, maqsadga bosqichma-bosqich erishishda tarbiyanuvchining va tarbiyachi faoliyatining uyg‘unligi pedagogik texnologiyaning talabidir. An‘anaviy ta‘lim-tarbiya tizimida ham maqsad pedagogning asosiy muammosi bo‘lib kelgan. Chunki quruvchi oldindan nimani qurayotganini bilganidek, tarbiyachi ham kimni tarbiyalamoqchi, nimani shakllantirmoqchi ekanini bilishi shart. Ta‘lim-tarbiyaning maqsadi-kishi shaxsining modeli sifatida qoida mavjud. Ammo pedagogik texnologiyada maqsad va unga erishish kafolatli butun pedagogik jarayon, texnologiya jarayonining mezoni, kalitidir. Avvalo jamiyat va davlat buyurtmasidan kelib chiqadigan ta‘lim-tarbiyaning umumiyligi maqsadiga asoslaniladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan isloq qilishdek tashkiliy tadbirdarda bevosita ta‘lim-tarbiya vazifalarini qo‘yadi.

Shuningdek, ta‘lim mazmuni asosida maqsad qo‘yish; pedagogik faoliyati asosida; o‘quvchilarining qobiliyati, xissiy ta‘sirlanishi asosida, ichki jarayon asosida, o‘quvchini o‘rganish faoliyati asosida, maqsad qo‘yish texnologiyasini tavsiya etadi.

Maqsadga bosqichma-bosqich erishilganiga qarab, u muvofiqlashtiriladi, maqsadga to‘la erishish uchun o‘ziga xos texnologik yo‘l qo‘llanadi, yangi-yangi o‘quv maqsadlari qo‘yiladi.

Demak, pedagogik texnologiyaning odatdagи didaktik maqsaddan farqi diagnostika asosida maqsad qo‘yilishidir. Sinf, guruh yoki alohida o‘quvchiga qo‘yilgan diagnoz qanchalik to‘g‘ri bo‘lsa, qo‘yilgan maqsad shunchalik to‘la va

oson bajariladi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek pedagogik texnologiya maqsadga to‘la erishish printsipi etakchilik qiladi. Shuning uchun M.V.Klarin maqsadga erishish texnologiya”sini alohida taxlil qiladi. Uni uchga bo‘lib o‘rganadi: etalon maqsadga “mezoniy baxolash”, “ta‘limiy jarayon” va “maqsadga to‘la erishish”.

Maqsadga to‘la erishish uchun natijani bosqichma-bosqich baxolash zarur bo‘ladi. Bugungi kunda test nazoratini joriy etilishi, bu didaktik vazifani amalgalashirishga qo‘l keladi. Ma‘lumki, testda ta‘lim maqsadi, erishiladigan mezon o‘z aksini topadi. Shuning uchun har bir bosqichda test orqali natijani aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ta‘lim maqsadini testga tushirish muhim masaladir.

O‘qitishda takrorlovchi bosqich texnologik jarayonda alohida o‘rin tutadi. Takrorlashda: ta‘limning umumiyligi maqsadi; umumiyyadan ma‘lum aniq maqsad belgilanishi va har bir bosqichda o‘quvchining o‘zlashtirishi dajarasini aniqlash; shunga asosan ta‘lim jarani muvofiqlashtiriladi, boshqariladi.

Ta‘lim jarayonida takrorlash texnologiyasi.

Masalan, darsning tuzilishini texnologik jihatdan tahlil qilinadigan bo‘lsa:

- A)o‘quvchilar diqqatini tashkil etish;
- B)didaktik maqsad haqida axborot berish;
- V)zaruriy bilim-malakalarni rag‘batlantirish;
- G)ma‘lum ta‘sir etadigan o‘quv materialini ko‘rsatish;
- D)o‘quvchilar javobini aks sadosini (reaktsiyasi) rag‘batlantirish;
- E)o‘zaro xamkorlikni ta‘minlash;
- J)olingan mustaxkam bilim malakani rag‘batlantirish;
- Z)o‘quvchilar faoliyatini baholash; kabilar.

O‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasi qanchalik tezligini va mukammaligi bilan belgilanadi. Ularning o‘zlashtirish bo‘yicha qobiliyati uch guruhga bo‘linadi:

Iqtidorli ,ular tez o‘zlashtirishi mumkin-30%.

Oddiy o‘rtacha o‘quvchilar-50 %.

Qobiliyati past o‘quvchilar-20 %.

Maqsad qo‘yishda barcha o‘quvchilarni o‘zlashtirishi hisobga olinadi. To‘la o‘zlashtirishi maqsadi, uni amalga oshirish metodikasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1.Kirish qism-o‘quvchilarni to‘la o‘zlashtirishga yo‘naltirish;
- 2.Har bir o‘quvchini to‘la o‘zlashtirishga erishish;
- 3.Har bir o‘quvchini to‘la o‘zlashtirish darajasini baholash;
- 4.Har bir o‘quvchi bahosini tashkil qilish.

Keyin o‘qituvchi har bir o‘quvchini to‘la o‘zlashtirish imkoniyati bilan tanishtirad

Sinf to‘la o‘zlashtirish uchun yangi metodika bilan o‘qitadi.

Har bir o‘quvchi oxirida, fanni o‘zlashtirib bo‘lganda baholanadi.

O‘quvchilar qiyosiy baholanmaydi, balki o‘quv matni etalon, mezoni bilan baholanadi.

“Etalon darajasiga” erishgan o‘quvchi “a‘lo” baxo oladi.

A‘lo baxolar cheklanmaydi.

Har bir o‘quvchiga istagancha yordam ko‘rsatadi.

Xar bir o‘quvchi fanni o‘zlashtirish jarayonida diagnostik kuzatiladi.

Agar o‘quvchi ma‘lum topshiriqdan qiyalsa boshqa yo‘l qo‘llaniladi.

Shunisi xarakterlik, pedagogik texnologiyaning printsipi kafolatli to‘la o‘zlashtirish ekan unda o‘quv materialini bosqichma-bosqich o‘zlashtirish, izchillik metodikasi asos bo‘ladi. Aslida sharq, aniqrog‘i, O‘zbekiston maktablarida o‘rta asrlardan boshlangan metodikadir. Tarixdan ma‘lumki, fanning o‘zlashtirishda izchillik va uzluksizlik printsipiga asoslanilgan. Ya‘ni har bir fan o‘rganib bo‘lingandan keyin musobaqa metodi orqali bilimlar tekshirilgan va to‘la o‘zlashtirgandan so‘ng undan keyingi fanga (yoki bosqichga) o‘tilgan.

Bir sinf (guruh)dagi talabaga o‘zlashtirish darajasiga qarab har xil ta‘lim mazmunida tahsil olgan. Pedagogik texnologiya tizimida AQSH tajribasida individual “brigada-andividual” ta‘lim XX asrning 60-yillarida keng qo‘llaniladi.

Har bir o‘quvchining qobiliyatiga o‘zlashtirish darajasiga qarab ta‘lim maqsadi va metodikasi belgilanadi. Masalan bu tizimni quyidagicha amalga oshirish mumkin.

- 1.Har bir o‘quvchi mazkur fan bo‘yicha bilim rejasini test orqali tekshiriladi.
- 2.So‘ngra ma‘lum bo‘lim bo‘yicha tekshiriladi, qanday bilimga ega ekanligi aniqlanadi.
- 3.Natijaga asosan har bir o‘quvchi uchun mazmun belgilanadi.
- 4.O‘quvchi bo‘lim-bo‘limlarga bo‘lib topshiriq oladi.
- 5.Qo‘yilgan maqsad amalga oshirilgandan keyin yakuniy test topshiradi va fan bo‘yicha baholanadi.
- 6.Agar maqsadga erishilmagan, yoki ma‘lum qism o‘rganilmagan bo‘lsa takrorlanishiga qaytiladi.

To‘la va yakka (brigada-individual) ta‘lim 80 yillarda AQSHda joriy etila boshlagan. Bunda yakka o‘quvchilar va kichik guruhrar bilan ishslash tizimi yaratilgan. Ya‘ni o‘quvchilar 4-5 kishilik guruhlarga bo‘linadi, unda iqtidorlilar va qoloqlar, qizlar va boshqa etnik vakllar bir xil bo‘limi maqsadga muvofiq. Har bir guruh berilgan topshiriqni tez bajarishiga e‘tibor beriladi. Guruhdagi o‘quvchilar bir-birini tekshiradi, yordam beradi. Haftani oxirida yakun yasaladi, baholanadi. O‘zaro yordam va bir kishi hamma uchun printsipiga amal qilinadi. Bu metodda o‘zlashtirish darjasasi oshishi bilan birga o‘quvchilarni o‘z-o‘zini baholash malakasi ham rivojlanadi, o‘quvchi o‘rtasida do‘slik, o‘rtoqlik darjasasi ham oshadi.

Xulosa qilib, pedagogik jarayonning tarkibiy qismlaridan biri aniq bajarishi mumkin bo‘lgan, kafolatli natijaga erishish maqsadi, texnologiyasidir deyish mumkin. Pedagogik texnologiya faqat ta‘lim mazmunini ifodalovchi maqsad emas, balki didaktik tizimni ham ko‘zda tutadi.

## **12-Mavzu: Maktabgacha ta‘lim tarbiyachining innovasion faoliyatini shakllantirish shartlari va funksiyalari.**

### **Mavzu rejasি:**

1. Maktabgacha ta‘lim tarbiyachining innovasion faoliyatini shakllantirish shartlari va funksiyalari.
2. Pedagogik jarayonga texnologik yondashuv vazifalari.
3. Ta‘lim jarayoniga texnologik yondashuv bosqichlari, tamoillari.
4. Ta‘lim oluvchining ta‘lim jarayonidagi roli.

Bo'lajak tarbiyachining kasbiy shakllanishi uning jamiyatdagi o'rni, talabaning pedagogika oliy o'quv yurtidagi majburiyati va vazifalariga xamda o'ziga xos individual qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi. Talabaning individualligi aqliy, predmetli amaliy va mativatsion omillar bilan bog'liq bo'lib, amaliy faoliyat jarayonida ifodalanadi. Talabaning ijodiy fikrlash, olingan natijalar bilan o'rtoqlashish, qiziqishlarini muvofiqlashtirish, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirig va ulardan amaliyot jarayonida foydalana bilish kasbiy motivlarning vujudga kelishiga olib keladi. Xar bir talabada kasbiy va shaxsiy rivojlanish o'ziga xos ravishda ko'zga tashlanadi. Bo'lajak tarbiyachining kasbiy mahorati shunday bir idealki, unga intilish kerak bo'ladi. Kasbiy shakllanish bu uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, bir nechta bosqichlarga ajraladi. Xar bir talaba uchun bosqichlarning davomiyligi xamda miqdori alohida belgilanadi. Bo'lajak tarbiyachining ijodiy individualligi o'z ifodasini pedagogik amaliyotda ifodalanish usullarida, o'z ishini rasmiylashtirishdagi o'ziga xosliklarda pedagogik vaziyatlarni xal qilishda mustaqil yechimlarni topa bilishda izlanuvchan faoliyatga layoqatning mavjud bo'lishida faoliyat topshiriqlari hamda usullarini tanlashga erkin yondoshishdan, tashabbuskorlikda o'z taklif va g'oyalarini erkin ifodalashda namoyon bo'ladi. Jahon pedagogik leksikoni qatoridan allaqachonlar «innovatsiya» tushunchasi keng o'rin olgan. Bu tushuncha «yangilik», «isloh» tushunchalarini anglatadi. Keng ma`noda qaraganda ta`lim tizimidagi har qanday o`zgarish bu - pedagogik innovatsiyadir. Dastlab bu tushunchalar ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlarga nisbatan qo'llanar edi, so`ngra ta`lim tizimidagi har qanday yangiliklarga nisbatan ishlatalidigan bo`ldi. Pedagogik yangiliklarning texnologiya deb atalishi boisi ham shunda. Hozirgi davrga kelib pedagogik innovatsiya fani shakllandi. Pedagogik innovatsiya - pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o`zlashtirish, nihoyat, uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta`limot sifatida qaraladi.

Har qanday pedagogik yangilik zamirida biron-bir g'oya yotadi. g'oya asosida esa o`qituvchining bolalar bilan o`zaro harakati yotadi, ya`ni: sinfda psixologik birlik vaziyatini yaratish; har bir o`quvchi o`z shaxsini o`zi namoyon etishini ta`minlash; har bir metodik yondashuv uchun o`ziga xos muloqot yo`lini tanlash; o`quvchilar tashabbusini zimdan boshqarib borish va boshqalar. Bunda o`qituvchi har bir o`quvchi qalbiga kirib borish uchun o`zining didaktik usullari, tashkiliy shakllari orqali yo`l topadi. Hozirgi davr ta`lim taraqqiyoti yangi yo`nalish innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi.

“Innovatsion pedagogika” termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Evropa va AQSHda 60 yillarda paydo bo'lgan. Innovatsion faoliyat F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, N.V. Kuzmina,

V.A. Slatenin, A.I. Sherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg'or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan.X. Barnet, Dj. Basset, D. Gamilton, N. Gross, M. Mayez, A. Xeyvlok, D. Chen, R. Edem ishlarida innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta'limdagi o'zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning “ hayoti va faoliyati” uchun zarur bo'lgan shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan. Yangilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik innovatik olimlardan biri E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilik demakdir. Ta'lim tizimida innovatsion faoliyatning sub'ekti o'qituvchi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

“Innovatsion ta'lim” deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita bog'liq. Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining:

- maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruva tizimiga;
- pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga;
- ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga;
- o'quv-metodik ta'minotiga;
- tarbiyaviy ishlar tizimiga;
- o'quv reja va o'quv dasturlariga;
- o'quvchi va tarbiyachi faoliyatiga bog'liq.

Bugungi pedagogdan yangicha fikrlash, yangicha munosabatlar talab etilar ekan. Uning bilimdonligi darajasi masalasi ham o'ta muhim.

### **13-Mavzu: Pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirish asosidagi mualliflik texnologiyalar.**

#### **Mavzu rejasi:**

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.
2. Mualliflik texnologiyalar tushunchalari.

3. Tarbiyaviy ishlar va ularni tashkil etish va boshqarishning nazariy aspektlari.
4. Ma’naviy qo‘llab-quvvatlash va o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlash yo‘llari.

Tarbiya metod (usul)lari – o’quvchi o’qishni, tarbiya olishni istaydi, ulg’ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday manosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilishi kerak. Tarbiya – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o‘z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar – bilim va tarbiyaga ega bo’lgan kishilar bilim va tarbiyaga ega bo’lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar – bilim va tajriba o’rganuvchi yoshlardir. Ammo, tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko’rsatmasalar, tajriba va bilim o’rgana olmaydilar. Demak, tarbiya metodi – tarbiyachilarning o’quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishidir. “Metod” so’zi grekchadan olingan bo’lib, yo’l, uslub degan ma’noni anglatadi. Ta’lim metodlari singari tarbiya metodlari ham mavjud. Masalan, boshlang’ich sinf o’qituvchisi sinfda birinchi marta sinf xonasini tozalash uchun shanbalik uyushtirmoqda. U o’quvchilarga ish bo’lib berishdan oldin, lattani qanday qilib ho’llash, parta va polni qanday artish kerakligi haqida gapirib, ko’rsatib beradi. O’qituvchining so’zi bu erda metod hisoblanadi. Tarbiya metodlariga namuna ko’rsatish, tushuntirish, suhbat o’tkazish, maslahat berish, iltimos qilish, ishonch bildirish, undash, ko’ndirish, rag’batlantirish, uyaltirish, tanbeh berish kabilarni misol keltirish mumkin. Tarbiya jarayoni to’xtovsiz va sistemali davom etadigan jarayon bo’lib, unga pedagog, tarbiyachi rahnomalik qiladi va tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo’lgan maqsadini, shu maqsadni hal etishga xizmat etadigan faoliyatni belgilaydi. Tarbiyalanuvchilarning ushbu faoliyatga aktiv ishtirok etishini ta’minlab, ular o’rtasida ijtimoiy, jamoa, o’rtoqlik aloqalari va munosabatlari uchun sharoit yaratadi. Tarbiya usullarida har tomonlama shaxsni shakllantirish maqsadida shaxs ongi, his tuyg’ulari, irodasi va munosabatlar tizimiga ta’sir ko’rsatish usulini tushunish kerak Tarbiya usullari ham ma’lum bir elementlarga bo’linib tarbiya usullari deb yuritiladi. Masalan, pedagog tarbiyalanuvchiga biror bir vazifani topshirdi. O’z navbatida bu vazifani bajarish uchun ko’rsatmalar beradi. Bu ko’rsatmalar va tushuntirish maxsus holda metodik usul sifatida namoyon bo’ladi. Tarbiya usullari va vositalari o’zaro mustahkam bog’liqidir. Tarbiya usullari shaxsga ta’sir ko’rsatishdan iborat emas. Tarbiya ikki tomonlama jarayon bo’lib pedagog tarbiyachi faoliyati bilan talaba faoliyatini birlashtiradi.

Tarbiya usulini tatbiq etish muayyan yoshdagi shaxs faoliyatiga mos kelsa muvaffaqiyatli bo'ladi. Tarbiyaning umumiy usullari asosan 4 gruppaga bo'linadi.

1. Ijtimoiy ongni shakllantirish usuli.
2. Ijtimoiy axloqni shakllantirish usuli.
3. Rag'batlantirish usuli.
4. O'zini-o'ztarbiyalash.

Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari - talabalarning ongli, his tuyg'usi va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish usullarini umuman shaxs ongiga ta'sir ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ongni shakllantirish usullari tushuntirish, suhbat va o'rnak ko'rsatish qismlardan iboratdir.

Tushuntirish - talabalarda e'tiqod hosil qilishning eng keng yoyilgan usulidir. Tushuntirish usulidan ko'zlangan maqsad shaxsga hatti-harakatlar, voqealar va hodisalarga u yoki bu talablarning ma'naviy, estetik, mazmunini ochib berish, unga hulq atvorga va insoniy munosabatlarga to'g'ri baho berishni shakllantirishda ko'maklashishdan iboratdir.

Hikoya va suhbat pedagogning jonli so'zi asosida shaxsni g'oyaviy va ma'naviy shakllantirishning ta'sirchan usuli hisoblanadi. Hikoya qilinadigan mavzu talabalar uchun dolzarb, shaxslarni ma'naviy ishonch, ijobjiy his tuyg'ular vujudga keltirishga olib kelishi kerak. Masalan, pedagog boshqa guruh jamoasi metallom yig'ishda yordam bergenligini maroq bilan gapirib bersa, buning samaradorligi talabalarning qanday quloq solishiga qarab tekshirish mumkin. Agar talabalar "Biz ham metallom terishda yordam beramiz"-degan umumiy istak bildirsa, demak, pedagogning hikoyasi shaxslar ongiga etib borgan va bunga javoban biron maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatishga tayyorgarlik tuyg'usini keltirib chiqaradi.

Suhbat xilma-xil mavzularda olib boriladi, masalan etika- estetika mavzusida ya'ni insonni yurish-turishi, atrofdagi voqealar, hulq atvor, go'zalligi, davlatning ichki va tashqi siyosati, bilim olishi, talabalarni bilim doirasini kengaytirish va boshqa mavzularda olib boriladi. Suhbat vaqtida talabalar passiv tinglovchilar emas, balki muhokama qilayotgan faol ishtirokchilarga aylanadi. Suhbat vaqtida pedagog, tarbiyachilar tarbiyalanuvchlarni tajribasiga, ularning bilimiga tayanishi lozim. O'tkazilayotgan suhbat talaba uchun ahamiyatliliginи hisobga olish zarurdir. Yangi materiallarni tanlash, tarbiyalanuvchini o'ylashga, mazkur masala bo'yicha o'z bilimlarini orttirishga yordam beradi. Pedagogning

o'zi qanchalik kam gapirsa, talabalar dunyosiga shunchalik yaxshiroq kirib borishi, ular bilan ajablanishi, quvonishi lozim, shunda suhbat muvaffaqiyatli olib boriladi.

Rag'batlantirish uslubi biron-bir omilning tarbiyalanuvchiga ta'sirini kuchaytirish hamda tarbiyalanuvchining shaxsini, xatti-harakatlarini aktivlashtirish maqsadida qo'llaniladi.

Rag'batlantirish harakat qilishga ilhomlantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ishlarning formasi har qaysi tarbiyalanuvchining xususiyatiga qarab o'zgaradi. Istiqbolga doir talablar tarbiyalanuvchi faoliyatini aktivlashtiradi. Istiqbolni qo'yish har xil insonning ulg'ayishi uchun ham, jamoa uchun ham muhimdir. Rag'batlantirish usullari orasida musobaqa katta o'rinn tutadi. O'quv muassasasi hayotida musobaqa ishlarini ommaviylashtirish muhimdir. Musobaqaning mohiyati qoloqlarni ilg'orlar darajasida etkazish ishning umumiyligi yuksalishiga erishishdir. Musobaqa har bir talabaning imkoniyatlarini ko'ra olish va baholashda olg'a harakat qilishda, kuch etadigan istiqbolni belgilashda iroda va xarakterni tarbiyalashda yordam beradi.

Istiqbolni tasvirlash talaba faoliyatini rag'batlantiradi, bu narsa quvonch bilan kutish kayfiyatini oshirib, qo'ygan maqsadga erishish uchun butun kuchini sarflashga beradi.

Istiqbolni tasvirlash har bir tarbiyalanuvchining rivojlanishi uchun ham, jamoa uchun ham zarur. Maqtov rag'batlantirish usulidir. Maqtov tarbiyachining alohida olingan shaxs xususiyatlariga ijobjiy baho berishidir. Talaba tarbiyalanishida maqtovning o'rni muhimdir. Maqtov shaxsni ijobjiy xislatlarini tarkib topishga yordam beradi. Lekin maqtov ham talaba hissiyotlari rivojlanishi tezlashtirib yuboradi, unda manmanlik, xotirjamlik tuyg'ularini keltirib chiqaradi.

## **14-Mavzu: An'anaviy ta'limiga innovation yondashuv.**

### **Mavzu rejasi:**

1. An'anaviy ta'lim tushunchasi.
2. An'anaviy ta'limiga innovation yondashuv.
3. Maktabgacha ta'limda muammoli o'qitishning rivojlanishi va bugungi kundagi ahamiyati.
4. Maktabgacha ta'limda muammoli o'qitishning asosiy shakllari

Muammoli ta'lim texnologiyasini mutlaqo yangi pedagogik hodisaga bog'lab bo'lmaydi. Uning elementlarini Sokrat tomonidan olib borilgan evristik suhbatlarda, J.-J Emil uchun saboqlar ishlab chiqishda ko'rish mumkin. Russo.

K.D.Ushinskiy muammoli o‘qitish texnologiyasi masalalarini ham ko‘rib chiqdi. U o‘quv jarayonidagi muhim yo‘nalish mexanik harakatlarni oqilona harakatlarga aylantirishdir, degan fikrni bildirdi. Sokrat ham xuddi shunday qildi. U o‘z fikrlarini tomoshabinlarga majburlashga urinmadi. Faylasuf o‘z shogirdlarini bilim sari yetaklovchi savollarni berishga intilgan.

Muammoli ta’lim texnologiyasining ishlab chiqilishi ilg‘or pedagogik amaliyotda qo‘lga kiritilgan yutuqlarning klassik o‘qitish turi bilan uyg‘unlashuvni natijasi bo‘ldi. Ushbu ikki yo‘nalishning birlashishi natijasida o‘quvchilarning intellektual va umumiy rivojlanishi uchun samarali vosita paydo bo‘ldi.

Ayniqsa, muammoli ta’lim yo‘nalishi XX asrda faol rivojiana boshladi va umumta’lim amaliyotiga kiritila boshlandi. Bu kontseptsiyaga 1960 yilda J. Bruner tomonidan yozilgan "O‘quv jarayoni" asari eng katta ta’sir ko‘rsatdi. Unda muallif muammoli o‘qitish texnologiyasi bitta muhim g‘oyaga asoslanishi kerakligini ta’kidlagan. Uning asosiy g‘oyasi shundaki, yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni eng faol asosiy funktsiya intuitiv fikrashga tayinlanganda sodir bo‘ladi.

Mahalliy pedagogik adabiyotga kelsak, bu g‘oya unda o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab amalga oshirildi. Olimlar gumanitar va tabiiy fanlarni o‘qitishda tadqiqot metodining rolini kuchaytirish zarurligi haqidagi g‘oyani qat’iyat bilan ishlab chiqdilar. Shu bilan birga tadqiqotchilar muammoli ta’lim texnologiyasini joriy etish masalasini ko‘tara boshladilar. Zero, bu yo‘nalish o‘quvchilarning fan uslublarini puxta egallashiga imkon beradi, tafakkurini uyg‘otadi va rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga bilimlarni rasmiy ravishda etkazish bilan shug‘ullanmaydi. U rivojlanish va dinamikada kerakli materialni taklif qilib, ularni ijodiy tarzda etkazadi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonining muammoli tabiatи bolalarning aqliy faoliyatidagi aniq qonuniyatlardan biri sifatida qaralmoqda. Muammoli o‘qitish texnologiyasining turli usullari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular turli o‘quv fanlarini o‘qitishda qiyin vaziyatlarni yaratishga imkon beradi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar ushbu yo‘nalishni qo‘llashda kognitiv vazifalarning murakkabligini baholashning asosiy mezonlarini topdilar. Federal davlat ta’lim standartining muammoli ta’lim texnologiyasi maktabgacha ta’lim muassasalarida, shuningdek, umumiy ta’lim, o‘rta va oliy kasb-hunar maktablarida o‘qitiladigan turli fanlar dasturlari uchun tasdiqlangan. Bunday holda o‘qituvchi turli usullarni qo‘llashi mumkin. Ular muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim jarayonini tashkil etishning oltita didaktik usullarini o‘z ichiga oladi. Ulardan uchtasi o‘qituvchi tomonidan mavzu

materialini taqdim etish bilan bog'liq. Qolgan usullar - o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish. Keling, ushbu usullarni batafsil ko'rib chiqaylik.

### Monolog taqdimot

Ushbu metodologiyadan foydalanganda muammoli ta'lif texnologiyalarini amalga oshirish o'qituvchining ma'lum bir ketma-ketlikda joylashgan ba'zi faktlarni etkazish jarayonidir. Shu bilan birga, u o'z o'quvchilariga kerakli tushuntirishlarni beradi va aytilganlarni tasdiqlash uchun tegishli tajribalarni ko'rsatadi.

Muammoli o'qitish texnologiyasidan foydalanish vizual va texnik vositalardan foydalanish bilan sodir bo'ladi, bu tushuntirish hikoyasi bilan birga keladi. Shu bilan birga, o'qituvchi faqat materialni tushunish uchun bo'lgan tushunchalar va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni ochib beradi. Bundan tashqari, ular ma'lumotlar tartibida kiritiladi. Muqobil fakt ma'lumotlari mantiqiy tartibda tartibga solinadi. Ammo shu bilan birga, materialni taqdim etar ekan, o'qituvchi sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilishga e'tibor bermaydi. Barcha ijobiy va salbiy tomonlari berilmagan. Yakuniy to'g'ri xulosalar darhol e'lon qilinadi.

Ushbu texnikani qo'llashda ba'zida muammoli vaziyatlar yaratiladi. Ammo o'qituvchi bolalarni qiziqtirish uchun bunga boradi. Agar shunday taktika sodir bo'lgan bo'lsa, unda talabalar "Nega hamma narsa shunday bo'ladi va boshqacha emas?" Degan savolga javob berishga undashmaydi. Pedagog faktik materialni darhol taqdim etadi.

### Fikrlash usuli

Bu usul o'qituvchi tomonidan aniq maqsadni qo'yish, ularga tadqiqot namunasini ko'rsatish va talabalarni yaxlit muammoni hal qilishga yo'naltirishni o'z ichiga oladi. Ushbu usul bilan barcha materiallar ma'lum qismlarga bo'linadi. Ularning har birini taqdim etayotganda o'qituvchi talabalarga ritorik muammoli savollar beradi. Bu tasvirlangan qiyin vaziyatlarni aqliy tahlil qilishda bolalarni jalb qilish imkonini beradi. O'qituvchi o'z hikoyasini ma'ruza shaklida olib boradi, materialning qarama-qarshi mazmunini ochib beradi, lekin shu bilan birga savollar bermaydi, ularga javoblar allaqachon ma'lum bilimlardan foydalanishni talab qiladi.

Maktabda muammoli o'qitish texnologiyasining ushbu usulidan foydalanganda, materialni qayta qurish unga qo'shimcha tarkibiy komponentni, ya'ni ritorik savollarni kiritishdan iborat. Shu bilan birga, barcha ko'rsatilgan faktlar shunday ketma-ketlikda keltirilishi kerakki, ular tomonidan aniqlangan

qarama-qarshiliklar ayniqsa aniq ifodalanadi. Bu maktab o'quvchilarining kognitiv qiziqishini va qiyin vaziyatlarni hal qilish istagini uyg'otish uchun mo'ljallangan. O'qituvchi darsga rahbarlik qilib, aniq ma'lumotni emas, balki fikrlash elementlarini belgilaydi. Shu bilan birga, u bolalarni mavzu materialini qurishning o'ziga xos xususiyatlari tufayli yuzaga kelgan qiyinchiliklardan chiqish yo'lini izlashga yo'naltiradi.

## **15-Mavzu: Bolaga yo'naltirilgan ta'lim. Interfaol strategiyalar.**

### **Mavzu rejasi:**

1. Pedagogik texnologiyalarni bola shaxsiga yo'naltirilganligi. “Rivojlanish”, “erkinlik”, “Mustaqillik”, “Ijod”, “O'ziga xoslik” shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kategoriyalari sifatida.
2. Shaxslikka yo'naltirilganlikning ta'lim texnologiyalariga nisbatan qo'llaniladigan belgilari.
3. Bolaning intellektual, kasbiy rivojlanish maqsadlarining ustuvorligi.
4. Bolalarga tanlash erkinligi, shaxsiy mas'uliyat yuklash xususiyatlari.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ishbilarmonlik o'yinlarning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari shundaki o'yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko'chirish, taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli sanaladi Zamonaviy sharoitda ta'lim amaliyotida amaliy-innovatsion xarakterga ega o'yinlardan samarali foydalanilmoqda.

Amaliy o'yinlar – muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o'yinlar Ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan amaliy o'yinlar o'z-o'zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko'p holatlarda “didaktik o'yinlar” deb yuritiladi. Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o'yin sub'ekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o'qish bilan birga o'yin ham uning shakllanlanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yinlar vositasida katta avlod tomonidan to'plangan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan. O'yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lim berish xususiyatlariga ega.

O'yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. “Maktabgacha yoshdagagi bola o'yin faoliyatida o'qish va mehnatga tayyorlanadi. Yosh ulg'aygan sari o'yinning roli biroz kamayib boradi.

O‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi” . Agarda jismoniy xatti-harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o‘yinlar bolalarda chaqqonlik, epchillik, chidamlilik, qat’iylikni tarbiyalasa, intellektual, konstruksiyali o‘yinlar ularni o‘ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o‘rgatadi. “O‘yin inson hayotining hayotining har bir davri uchun uning ruhiy rivojlanishini belgilovchi yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Faqat o‘yinda va o‘yin orqali bola voqelikni, shu jumladan, kishilar ijtimoiy munosabatlarini, hulqini, xatti-harakatlarini bilib oladi” . Tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotidan ham alohida o‘rin egallashga muvaffaq bo‘lindi.

Zamonaviy sharoitda intellektual, kompyuter, iqtisodiy, harbiy, kasbiy, sport va maishiy hodiq chiqarishga ko‘maklashadigan o‘yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan. Zamonaviy pedagogikada o‘yinlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faolligini kuchaytirish maqsadida quyidagi tarzda qo‘llaniladi: Ta’lim jarayonda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishda o‘qituvchi pedagogik vazifalarini ssenariyda aniq ifodalay olishi zarur.

Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o‘yinlar o‘yin texnologiyalari deb nomlanadi. O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi) – ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri O‘yin texnologiyalari ta’lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma’lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayonda o‘yinlardan foydalanishda ayrim jihatlarga e’tibor qaratish lozim. Jumladan: - o‘yin ssenariysini tayyorlash; - yo‘riqnomalar tuzish; - auditoriyani o‘yin mohiyatiga muvofiq jihozlash

Asosiy tushunchalar:

O‘yinli texnologiyalar,

o‘yin funksiyalari,

nazariy aspekt,

o‘yin tuzilmasi, pedagogik o‘yin, tadbirkorlik o‘yinlari, sosial-psixologik muammolar.

Pedagogik xarakterdagi o‘yinlarning tarkibiy tuzilmasi quyidagilardan iborat: - o‘quv maqsadi;

- o‘yining vazifasi; - o‘rganiladigan muammo tafsiloti; - o‘yin vaziyatining tafsiloti; - ishtirokchilarning tasnifi

Ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalari qo‘llash quyidagilarga asoslanadi:

- guruhni shakllantirish; - mashg‘ulotlarning bosh maqsadini ifodalash; - muammoli vaziyatni vujudga keltirish; - rollarni taqsimlash, - o‘yin reglamentini o‘rnatish; - materiallar, yo‘riqnomalar, qoidalar va ko‘rsatmalar to‘plamini tarqatish; - maslahat berish

quyidagi omillar pedagogik maqsatlarda o‘yin texnologiyalaridan samarali foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi:

- o‘yin ssenariysining [puxta tayyorlanganligi](#); - o‘yin maqsadi va vazifalarining to‘g‘ri, aniq belgilanishi; - o‘yin qoidalarining aniq, lo‘nda (8-10 tagacha) ifodalaniishi; - o‘yin yo‘riqnomasining mavjudligi; - bolalarning o‘yin jarayoniga qiziqishlari; - rollarning samarali, to‘g‘ri taqsimlanishi; - jamoada ko‘tarinki kayfiyatning yuzaga kelishi; - ishtirokchilarning bir-birlarini tushuna olishlari va qo‘llab-quvvatlashlari; - har ishtirokchining o‘yin natijasi uchun mas’uliyatni hisetishi; - barcha ishtirokchilar imkoniyatlarining yagona maqsadga yo‘naltirilishi

O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi.

O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixoglarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta’rificha, o‘yin shaxsga xos bo‘lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir.L.S. Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi.

A.N. Leontev o‘yinga shaxsning hayolotdagi amalga oshirib bo‘lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni hayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.Psixologlar ta’kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi

yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qirralari S.A.Shamakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) [tufayli bahra olish uchun emas](#), balki xohishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga - "ijod maydoni"ga ega bo'ladi.O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektida o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.O'yinli faoliyatni motivasiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalgaoshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, [amaliy faoliyatida bilim](#), malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyo qarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.


Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, solishtirish, o'xshashini topish, faraz, hayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, [refleksiya](#), optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivasiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtiroslarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud.

# **SEMINAR MASHG'ULOTLARI**

## 1- Mavzu: Pedagogik innovasiya: ob'yekt, mavzu va asosiy tushunchalar

Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



## 2- Mavzu: Innovasiya va jamiyat

Savol
(F) Maktabgacha ta'lif haqida fikrlaringiz
(S) Ta'lif sohasidagi qonun hujjatlari
(M) Boshqaradigan va boshqa riladigan tizimlar
(U) Maktabgacha ta'lif sub'ekti va ob'ektining o'zaro munosabati

**Maktabgacha ta'lifda strategik va takttik rejalar**

### **3 -Mavzu: Pedagog va tarbiyachilarining innovasiyalarga munosabati**

#### **1-Ilova**

##### **“Tushunchalar tahlili” metodi**

Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlang va “Tushunchalar tavsifi” metodi yordamida ularning mazmunini yoriting, muhim belgilarini ko‘rsating

##### **“Tushunchalar tavsifi” metodi**

Tushuncha	Mazmuni	Muhim belgilari

#### **2-Ilova**

##### **Blis-savol**

1. Boshqarish haqidagi umumiyligi tushuncha bering?
2. Ta’lim sohasidagi qonun hujjatlarida ta’lim tizimini boshqarish qanday?
3. Ta’lim tizimli tahlil va modellashtirish obekti haqida ma’lumot беринг.
4. Tizimli ta’limning tarkibiy tahlilini yoriting.

### **4-Mavzu: : Pedagogik innovasiyalar va ularning ioriy nishini tashkil etish**

#### **ΦSMU - TEXNOLOGIYASI**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o‘quv jarayonini baxs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o‘z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o‘ratadi.Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating


M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

У – фикрингизни умумлаштиринг

## Jadvalni to'ldiring

Savol		innovatsion pedagogik texnologiyalar fanining fan sifatida
(F)	Innovasiya haqida fikrlarim	
(S)	Ta'lim sohasidagi qonun hujjatlari	
(M)	Pedagogik texnologiyalar	
(U)	Pedagogik texnologiyalar fan sifatida	
(M)	Boshqaradigan va boshqa- riladigan tizimlar	
<b>5- Mavzu. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda innovasiyalar turlari</b>		

Ins	Savol	
1.	(F) Boshqaruv haqidagi fanning rivojlanish tarixi	
V	(S) Ta'lim sohasidagi qonun hujjatlari	
+ - n	(M) Boshqaradigan va boshqa- riladigan tizimlar	
?	(U) Boshqarish sub'ekti va ob'ektining o'zaro munosabati	
M	Savol	
1.	(F) Boshqaruv haqidagi fanning rivojlanish tarixi	
2.	(S) Ta'lim sohasidagi qonun hujjatlari	
2-1		



Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o‘quv jarayonini baxs-munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarini o‘z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o‘ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

### Jadvalni to‘ldiring

Savol	Maktabgacha ta’limda innovatsion jarayonlarning bosqichlari
(F)	
(S)	
(M)	
(U)	

### 6 -Mavzu: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda innovasiyalarni normativ-huquqiy qo‘llab-quvvatlash.

#### “T – sxema” metodi

##### Pedagog:

- yangi mavzuni bayon qiladi va o‘quvchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang‘ich ma’lumotlarni beradi;

- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so‘raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;
- vaqt tugagach o‘quvchilardan izohlarsiz o‘z fikr – mulohazalarini o‘qib eshittirishlarini aytadi;
- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

### Tinglovchi:

- mavzuni diqqat bilan tinglaydi;
- o‘zi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;
- berilgan sxema asosida tushunchaga nisbatan o‘zining mustaqil fikrini bildiradi;
- yakuniy xulosasi bilan o‘tirganlarni tanishtiradi;
- reglamentga rioya qiladi.


**Kutiladigan natija:** uquvchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o‘zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

### “T” sxema asosida mustaqil faoliyatni tashkil etish.

Afzalligi + (ha, ijobiy)	Kamchiligi- (yo‘q, salbiy)

**7-Mavzu: Ilg‘or pedagogik tajribani shakllantirish, o‘rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish**


### Klaster metodi



**8-mavzu: Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish bosqichlari.**

## 1-Ilova

Ven diagrammasini to‘ldiring.



**9- Mavzu: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda innovation bankini tashkil etish.**

**Mavzuga oid mavjud muammoliy vaziyatlarni yechish**



**10- Mavzu: Innovasion jarayonlarni nazorat qilish va tartibga solish.**

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

+ - men uchun yangi ma'lumot

- men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

1. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	-	+	?
1.				
2.				

### **11-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda innovasiyalarni ishlab chiqish va rivojlantirish texnologiyasi.**

**Muammoli vaziyat-** Talabalar guruhlarga bo'linadilar.

„ Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari” har bir guruh fikrlarini bayon etadilar va izohlaydilar

### **12-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tarbiyachining innovation faoliyatini shakllantirish shartlari va funksiyalari**

#### **B./ B. /B texnologiyasini qo'llash qoidalari**

**Tashkilotda kadrlar siyosati**

	<b>Mavzu savoli</b>	Bilaman	Bildim	Bilishni xohlayman
1.				
2				

### **13-Mavzu: Pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirish asosidagi mualliflik texnologiyalar.**

#### **T-texnologiyasi**

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kadrlar mnejmentini amalga oshirish shlarini olib borishlikning**

**Afzalligi**

**Kamchiligi**

## 14-Mavzu: An'anaviy ta'limiga innovasion yondashuv.

### SWOT-jadvalini to'ldiring: An'anaviy ta'limning o'ziga xos jihatlari»

S- kuchli tomonlari	O-imkoniyatlari
W-kuchsiz tomonlari	T-to'siqlar

## 15-Mavzu: Interfaol metodlar va ularning tasnifi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi.					
Maktabgacha ta'lim muassasalarida ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi.					
Maktabgacha ta'lim muassasalarida ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi.					
Maktabgacha ta'lim muassasalarida ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi.					
Maktabgacha ta'lim muassasalarida ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi.					
Maktabgacha ta'lim muassasalarida ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi.					

# **MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI**

### Mustaqil ta'lif topshiriqlari bo'yicha tavsiyalar.

Mustaqil ta'lif mazmuni ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lif ko'proq ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'rganilmagan masalalarini o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta'lif asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan boyicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

	<b>Mustaqil ta'lif mavzulari</b>	<b>Shakli</b>	<b>Dars soat</b>	<b>Ajratil gan ball</b>	
<b>I - semestr</b>					
6.	Pedagogik innovasiya: ob'yeqt, mavzu va asosiy tushunchalar.	konspekt yozish; - glossariy tuzish; - individual va guruhiy o'quv loyihasi;	4	4	
	Innovasiya va jamiyat.		4		
	Pedagog va tarbiyachilarining innovasiyalarga munosabati.		4		
7.	Pedagogik innovasiyalar va ularning joriylanishini tashkil etish.	- keys-topshiriqlarini bajarish; - mavzuli portfoliolar tuzish;	4	4	
	Maktabgacha ta'lif tashkilotlarda innovasiyalar turlari.		4		
	Maktabgacha ta'lif tashkilotlarda innovasiyalarni normativ-huquqiy qo'llab-quvvatlash.		4		
8.	Ilg'or pedagogik tajribani shakllantirish, o'rganish, umumlashtirish va ulardan foydalanish.	konspekt yozish; - glossariy tuzish; - individual va guruhiy o'quv loyihasi;	4	4	
	Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish bosqichlari.		4		
	Maktabgacha ta'lif tashkilotlarda innovasion bankini tashkil etish.		4		
9.	Innovasion jarayonlarni nazorat qilish va tartibga solish.	- keys-topshiriqlarini bajarish;	4	4	
	Maktabgacha ta'lif tashkilotlarda innovasiyalarni ishlab chiqish va rivojlantirish texnologiyasi.		4		
	Maktabgacha ta'lif tarbiyachining innovasion faoliyatini shakllantirish shartlari va funksiyalari.		4		
10.	Pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirish asosidagi mualliflik texnologiyalar.	multimediali taqdimotlar yaratish; - darslarning metodik ishlamalarini tayyorlash; -test tuzish	4	4	
	An'anaviy ta'limga innovasion yondashuv.		4		
	Interfaol metodlar va ularning tasnifi.		4		
	<b>JAMI</b>			<b>60</b>	
	<b>20</b>				

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

## **Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar**

1. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.-T.: «Fan», 2000 y.
2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: -T.: «Tarbiyachi», 2004 y.
3. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-do'stona muhit yaratish omili. -T.: YUNISEF, 2005 y.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari ( o'quv qo'llanma).-T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

5. Ye.V. Goncharova, I.S. Telegina. Innovasionnaya deyatelnost v doshkolnom obrazovatelnom uchrejdenii. Uchebno-metodicheskoye posobiye. — Nijnevartovsk: Izd-vo Nijnevart. gos. un-ta, 2013. — 126 s.
6. F.Qodirova. Maxsus ta'lif jarayoniga interfaol usullarni tatbiq etish. A. Avloniy nomidagi XTXQTMOMI. T-2013
- 7.T.L.Xurvaliyeva Maktabgacha ta'lif muassasasi tarbiyachilari malakasini oshirish kurslari uchun “Maktabgacha ta'lifda pedagogik texnologiyalar” O'quv moduli bo'yicha ma'ruza matni. Toshkent-2016
8. Miklyayeva N. V. Innovasiy v detskom sadu. — M.: «Ayris press», 2012. — 186 s

### **Axborot manbaalari:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi: <http://www.edu.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz).
3. Xalq ta'lifi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi:[www.multimedia.uz](http://www.multimedia.uz)
4. Ijtimoiy axborot ta'lif portalı: [www.zyonet.uz](http://www.zyonet.uz).
5. Maktabgacha ta'lif vazirligi: [www.mtv.uz](http://www.mtv.uz).
6. <http://www.zyonet.uz/>
7. <http://window.edu.ru/window/>[www.astronet.ru](http://www.astronet.ru)

## **GLOSSARY**

O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Izoh
Arxiv xujjatlari	Arxivnye materialy	Archive documents	Fuqarolar, jamiyat va davlat uchun ma'lum ahamiyat kasb etgani bois saqlanishi lozim bo'lgan matnli, qo'lyozma va mashinada o'qiladigan hujjatlar, ovozli yozuvlar.
Bolalar kitobi	Detskaya literatura	Children's literature	Shaxs va ta'limni rivojlantirish, bilimlarni tarqatishning eng muhim vositalardan biri bo'lgan nashr turi. Bolalar kitolari faqatgina o'qish va bilim olish manbai bo'libgina qolmay, balki bolaning estetik va psixologik tarbiyasida muhim o'rinn tutuvchi manbadir.
Boshqarish faoliyati	Upravlencheskaya deyatelnost	Management activity	Raxbarning pedagogik, normativ va psixologik asoslarda boshqarish qarorlarini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirishga qaratilgan maqsadga muvofiq xatti-xarakatlari majmui.
Byurokratiya (buyruqboz-lik)	Byurokratiya	Bureaucracy	(tom ma'noda- kançelyariya hukmronligi; fransuzcha bureau-byuro, kançelyariya va yunoncha-kratos-kuch, hokimiyat, hukmronlik) Tabaqalangan boshqaruv tizimi bo'lib, uning uchun har bir darajada vakolatlar chegarasining aniq belgilanganligi, qarorlarning mavjud qonunlar va qoidalarga binoan qabul qilinishi xosdir.
Genofond	Genofond	Genofond	Genlar zahirasi; turli genlarning tarqalishi, ularning nisbiy miqdor va tarkibiy sifati; muayyan organizmlarning tarqalaganligi. Irsiy belgilarni o'rganish va aniqlash inson genetikasi, jonivorlar hamda o'simliklar genetikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Xozirgi vaqtida genofondni saqlash muammosi dunyoning ko'pgina mamlakatlari uchun dolzarb muammoga

			aylangan.
Gigiena	Gigiena	Hygiene	Yashash tarzi va mehnat sharoitining inson sog‘lig‘iga ta’sirini o‘rganadigan, kasalliklarni profilaktika qilish, sog‘liqni saqlash va hayotni uzaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqadigan qadimiy tibbiyot sohalaridan biri.
Didaktik o‘yinchoqlari	Didaktiches -kie igrushki	Didactic toys	Bolalarning aqliy va sensor rivojlanishi va ta’lim olishida xizmat qiladigan o‘yinchoqlar turi. Bunday o‘yinchoqlarga mozaikalar, stol ustida o‘ynaladigan va bosma o‘yinlar, xalq o‘yinchoqlari (matryoshkalar, piramidalar, rangli sharlar, xushtaqlar, chillaqlar) kiradi.
Yosh guruhi	Mladshaya gruppa	Primary group	Yosh belgisiga ko‘ra birlashtiriladigan kishilarning biron bir shartli katta guruhi. Yoshni davrlashtirishga muvofiq MTTda bolalarning yoshiga ko‘ra ana’naviy ajratiladigan guruhlar: yasli yoshdagi bolalar guruhi, birinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, ikkinchi kichik yoshdagi bolalar guruhi, katta bolalar guruhi va maktabga tayyorlov guruhi.
Inklyuziv ta’lim	Inklyuziv-noe obrazovani e	Inclusive education	Bolalarni bir biridan ajratuvchi to‘siqlarni bartaraf etishga, ularning yoshi, jinsi, diniy va ijtimoiy kelib chiqishi, jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qolishi va iqtisodiy ta’minlanganlik darajasidan qat’iy nazar, umumta’lim jarayoniga to‘liq uyg‘unlashtirishga qaratilgan davlat siyosati.
Iste’dod	Talant	Talent, gift	Qobiliyatlar, iqtidorlarning yuqori darajada rivojlanganligi bo‘lib, ijodiy faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.
Kasbiy	Professio-	Professio	Biron narsaning bajarilishining murakkab

faoliyat	nalnaya deyatelnost	nal activity	va me'yoriy jihatdan belgilangan usuli. Mehnat sub'ekti faoliyatining sifat jihatdan belgilanadigan shaqli. Inson bajarayotgan faoliyatning murakkabligini tavsiflaydigan mezon.
Maktabgacha bolalik	Detskiy doshkolnyuy period	Pre-school period	Bolaning tug'ilganidan to maktabga borguncha bo'lgan rivojlanish davri; bola organizmining jadal voyaga etishi va ruhiyatining shaqlanishi bilan belgilanadi.
Maktabgacha yosh	Doshkolnyuy vozrast	Pre-school age	Bolaning ruhiy rivojlanish bosqichi. Bola rivojlanishining hozirgi zamон milliy davrlashtirilishi bo'yicha 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davri.
Maktabgacha yoshdagи bola kompetentligi	Kompetentsiya rebenka doshkolno-go vozrasta	Competency of a pre-school age child	Maktabgacha yoshdagи bola shaxsining asosiy xarakteristikasi. Kommunikativ, ijtimoiy, intellektual kompetentlikni hamda jismoniy rivojlanish borasidagi kompetentlikni o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetentlik bolaning o'z istaqlari, niyatlarini nutqiy va nutqiy bo'lman (imo-ishora, mimik va pantomimik) vositalar yordamida erkin ifoda etishida namoyon bo'ladi.
Maktabgacha ta'lim muassasa-lari	Doshkolnyye obrazovatelnyye uchrejdeniya	Preschool education al establishments	Turli yo'naliishdagi maktabgacha ta'lim dasturlarini amalga oshiradigan ta'lim muassasasi. Ularda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning tarbiyasi, ta'limi, parvarishi va sog'lomlashtirilishi ta'minlanadi.  Yo'naliishiga ko'ra Maktabgacha ta'lim tashkiloti quyidagi turlarga bo'linadi: umumiy tipdagi MTT, tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari mavjud bolalar uchun mo'ljalangan maxsus MTTlar va surunkali kasalliklar bilan og'rigan bolalar

			uchun sanatoriya tipdagi MTTlar.
Maktabgacha ta'lim muassasa-larning vazifalari	Zadachi doshkol-nogo obrazovate-lnogo uchrejdeniya	Tasks of preschool education al establish ments	ushbu muassasalarning vazifalari: bolalar hayotining muhofazasini, ularning intellektual, jismoniy va shaxs sifatidagi rivojlanishini ta'minlash uchun uning oilasi bilan aloqa o'rnatish.
Maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy-texnika bazasi	Material-no-texnicheskaya baza doshkol-nogo obrazovate-lnogo uchrejdeniya	Material and technical basa of preschool education al establish ments	Muassasa balansida turgan asosiy vositalar majmui (bino, xovli, qo'shimcha qurilmalar, kommunikatsiya, yumshoq va qattiq jihozlar).
Maktabgacha ta'lim tashkilotining rivojla-nish konцепция-si	Kонцепција razvitiya obrazovate-lnogo uchrejdeniya	Concepti on of education al establish ment	Maktabgacha ta'lim tashkilotining kelgusidagi rivojini belgilab beradigan bosh g'oya; innovatsion jarayonlar natijasida uning yangilanishiga qaratilgan chora tadbirlar majmuini amalga oshirishning etakchi tamoyili.
Milliy ana'nalar	Natsional-ные tradiции	National traditions	Millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilari, xususiyatlari, qadriyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolishini ifodalovchi tushuncha.
Nodavlat notijorat tashkilot	Negosudars-tvennaya nekommercheskaya	Nongovernmental noncommercial	Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan

	organizatsiya	organizatsion	daromadlarni o‘z qatnashchilari o‘rtasida taqsimlaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkiloti.
Oilaviy muhit	Semeynaya obstanovka	Family environment	Oilaviy munosabatlar, tarbiyaviy jarayonlar kechadigan ijtimoiy- ma’naviy, axloqiy muhitni ifodalovchi tushuncha. Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyati, dunyo qarashi, tasavvur va e’tiqodini shaqlantirish hamda yuksaltirishda oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg‘ular, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlar, eng avvalo oila bag‘rida shaqlanadi.
Oliy ta’lim	Vlysshee obrazovani e	Higher education	Turli oliy dargohlarda oliy malakali mutaxasislar tayyorlash oliy o‘quv yurtlari tomonidan xalq xo‘jaligi, fan va madaniyatning turli sohalari bo‘yicha oliy malakali mutaxasis bo‘lishni istagan, o‘rta maxsus yoki kasb xunar ta’limini olgan hamda tegishli talablarni bajargan kishilarga ilmiy nazariy bilim berish xamda muayyan ko‘nikmalarni shaqlantirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.
Tarbiyalanuvchilar	Vospitan-niki	Pupil	Maktabgacha tarbiya muassasalariga boradigan bolalar; mehribonlik uylari, ixtisoslashtirilgan maktab internatlarda tarbiyalanuvchi bolalar va o‘smirlar maktabdan tashqari muassasalarda shug‘ullanadigan bolalar.
Tarbiyachi	Vospitatel	Educator, teacher	Tarbiyani amalga oshiradigan , o‘zga kishi shaxsining hayot tarzi va rivojlanishi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan shaxs.
Ta’lim muassasasi-	Rukovodstvo	Managing the	Faoliyat subektlarining alohida faoliyati bo‘lib, u rejalashtirish , tashkillashtirish,

ni boshqarish	obrazovate- lnym uchrejdeni- em	education al environm ent	boshqarish va nazorat qilish vositasida bolalar, pedagoglar, ota-onalar, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning xamkorlikdagi faoliyatining ta’limni takomillashtirish va ta’lim mussasasini rivojlantirish maqsadlariga yo‘nalganligini ta’minlaydi.
Ta’lim sifati	Kachestvo obrazovani ya	Quality of education	Ta’lim jarayoni va uning natijalarini tavsiflaydigan kategoriya, ta’lim jarayoni qanday bo‘lishi kerak, qanday maqsadlarga xizmat qilishi keraqligi to‘g‘risida jamiyatda tarqalgan tasavvurlarga qanchalik mosligini belgilaydi. Ta’lim sifati ta’lim oluvchilarning bilimlari, malaka va ko‘nikmalari, atrof-olamga va bir birlariga nisbatan qadriy- emosional munosabatlar normalari bilan o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar tizimida ifodalanadi.
Farmon	Ukaz	Decree	Birqator mamlakatlarda davlat boshlig‘ining normativ akti. O‘zbekistonda Prezident farmoni.

# **ILOVALAR**

## Test savollari

**1. “Maktabgacha pedagogika” fanining ob’ektini nima tashkil etadi?**

- a) maktabgacha pedagogik faoliyat jarayoni
- b) maktabgacha pedagogik faoliyat mazmuni
- c) maktabgacha pedagogik faoliyat yo‘nalishlari
- d) maktabgacha pedagogik faoliyat bosqichlari

**2. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalari. Ular “Maktabgacha pedagogika” fanining ... sanaladi.**

- a) metodi;
- b) ob’ekti;
- c) predmeti;
- d) shakli.

**3. Ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui – bu ...**

- a) malaka;
- b) ko‘nikma;
- c) bilim;
- d) ma’lumot.

**4. Shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon nima yeb aytildi?**

- a) o‘sish;
- b) rivojlanish;
- c) shakllanish;
- d) taraqqiy etish.

**5. Psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosi ... deb ataladi.**

- a) individ;
- b) odam;
- c) inson;
- d) shaxs.

**6. Shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon – bu ...**

- a) shakllanish;

- b) rivojlanish;
- c) o'sish;
- d) voyaga yetish.

**7. Qanday yo'naliш yoki oqim individning shaxs sifatida rivojlanishida biologik omillarning ustuvorligini e'tirof etadi?**

- a) falsafiy yo'naliш;
- b) pragmatik oqim;
- c) biologik yo'naliш;
- d) preformizm oqimi.

**8. Inson yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir nima deb ataladi?**

- a) makon;
- b) tabiat;
- c) borliq;
- d) muhit.

**9. Shaxs shakllanishiga nisbatan qanay yondashuvlar mavjud?**

- a) falsafiy, ijtimoiy, biologik, huquqiy yondashuv;
- b) tarixiy, ijtimoiy, biologik, madaniy yondashuv;
- c) biologik, ijtimoiy, psixologik va yaxlit yondashuv;
- d) biologik, pedagogik, psixologik, tarixiy yondashuv.

**10. Shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmui nima yeb ataladi?**

- a) xususiyat;
- b) sifat;
- c) harakter;
- d) temperament.

**11. Go'dakning vazni tug'ilgan paytda 3,5 kg, bo'yi 50 sm bo'lgan bo'lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo'yi 60 sm, 6 oylik bo'lganda esa taxminan 7 kg, bo'yi 64 sm bo'ladi. Ushbu xususiyatlar qaysi yosh davriga xos?**

- a) kichik yosh davri;
- b) ilk yosh davri;
- c) go'daklik davri;
- d) katta yosh davri.

**12. Bu davrda bolaning bo'yi bu davrda 7-8 sm ga o'sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og'irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmag'anligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Ularning yuragi chaqaloq**

**yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo'ladi.**

- a) kichik yosh davri;
- b) ilk yosh davri;
- c) go'daklik davri;
- d) katta yosh davri.

**13. Bu davrda uning og'irligi 14-15 kg, bo'yi 90-95 smga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. Bu o'rinda qaysi yosh davri xususida so'z bormoqda?**

- a) kichik yosh davri;
- b) ilk yosh davri;
- c) go'daklik davri;
- d) katta yosh davri.

**14. Bu davr mobaynida bo'yi 105-108 sm gacha o'sadi, og'irligi esa 18-19 kg bo'ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po'stlog'ining faoliyati takomillashib boradi. Ushbu xususiyatlar qaysi yosh davriga xos?**

- a) kichik yosh davri;
- b) o'rtalik yosh davri;
- c) go'daklik davri;
- d) katta yosh davri.

**15. Bu yoshdagagi o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo'yi 120 sm ga yetadi, og'irligi 22-24 kg bo'ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo'ladi, o'z salomatligini nazorat qila oladi. Bu o'rinda qaysi yosh davri xususida so'z bormoqda?**

- a) muktabga tayyorlov davri;
- b) o'rtalik yosh davri;
- c) go'daklik davri;
- d) katta yosh davri.

**16. Bolalarning muktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda nimaga tayaniladi?**

- a) ota-onaning fikriga;
- b) tabiiy ta'lumotnomaga;
- c) tashxis markazining xulosasiga;
- d) bolaning o'qishga bo'lgan xohishiga.

**17. Tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, ijtimoiy va tabiiy borliqqa ijobjiy munosabatni shakllantirish maqsadda tashkil etilaigan pedagogik jarayon nima deb ataladi?**

- a) faoliyat jarayoni;
- b) ta'lim jarayoni;
- c) tarbiya jarayon;
- d) hamkorlik jarayoni.

**18. Qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy sifat, muayyan ish-harakatni tashkil etish iko'nikma, malakalari, e'tiqod, harakter va xulq-atvor tizimi nimani ifodalaydi?**

- a) tarbiya maqsadini;
- b) tarbiya vazifasini;
- c) tarbiya mazmunini;
- d) tarbiya natijasini.

**19. Turli xil moddiy va ma'naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarni pg yagona birligiga bo'ysundirilgan, bir-biri bilan o'zaro bog'liq tarbiyaviy ta'sir majmui – bu ...**

- a) tarbiyaviy faoliyat;
- b) tarbiyaviy choralar;
- c) tarbiyaviy maqsadlar;
- d) tarbiyaviy tadbirlar.

**20. Bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar nimani ifodalaydi?**

- a) tarbiya shartlarini;
- b) tarbiya natijalarini;
- c) tarbiya maqsadlarini;
- d) tarbiya qonuniyatlarini.

**21. Tarbiyaviy ishning yo'nalishi, mazmuni, metodlari, tashkil etilishi, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalar nima deb nomlanadi?**

- a) tarbiya qonuniyatlar;
- b) tarbiya tamoyillari;
- c) tarbiya g'oyalari;
- d) tarbiya maqsadlari.

**22. Maqsadga qaratilganligi va g'oyaviy yo'nalganligi, tarbiyaning insonparvarlashuvi, tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi. Ular nimani ifoalaydi?**

- a) tarbiya qonuniyatlarini;
- b) tarbiya tamoyillarini;
- c) tarbiya g'oyalari;

d) tarbiya maqsadlarini.

**23. Tarbiya jarayonini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlarning necha turi mavjud?**

- a) 2 turi;
- b) 4 turi;
- c) 6 turi;
- d) 7 turi.

**24. Aqliy, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik va iqtisodiy tarbiya. Ular nimani ifodalaydi?**

- a) MTTda tashkil etiladigan ijtimoiy tarbiya turlarini;
- b) MTTda tashkil etiladigan ijtimoiy tarbiya mazmunini;
- c) MTTda tashkil etiladigan ijtimoiy tarbiya vazifalarini;
- d) MTTda tashkil etiladigan ijtimoiy tarbiya natijasini.

**25. Tarbiyalanuvchilarining intellekti, bilish imkoniyatlari, iqtidor, qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat va jarayon nima deb ataladi?**

- a) ekologik tarbiya;
- b) estetik tarbiya;
- c) axloqiy tarbiya;
- d) aqliy tarbiya.

**26. Tarbiyalanuvchilarda dastlabki mehnat ko‘nikma, malakalarini, mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirib, ularni o‘zgalar mehnati va mehnat mahsullari (natijalari)ni qadrlashga o‘rgatadigan tarbiya turi qanay nomlanadi?**

- a) ekologik tarbiya;
- b) mehnat tarbiyasi;
- c) axloqiy tarbiya;
- d) aqliy tarbiya.

**27. Tarbiyalanuvchilarining jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo‘naltirilgan, aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi qanday nomlanadi?**

- a) jismoniy chiniqish;
- b) jismoniy mashqlar;
- c) jismoniy madaniyat;
- d) jismoniy tarbiya.

**28. B.T.Lixachev jismoniy tarbiyaning qanday xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi?**

- a) tarbiyaviy, ta’limiy, sog‘lomlashiruvchi, umummadaniy, individual;

- b) rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, ta'limiy, sog'lomlashiruvchi, umummadaniy;
- c) rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, sog'lomlashiruvchi, chiniqtiruvchi, umummadaniy;
- d) rivojlantiruvchi, ta'limiy, sog'lomlashiruvchi, umummadaniy, individual.

**29. Tabiiy omillar, gigiyenik shart-sharoitlar, jismoniy mashqlar. Ular nimalar sanaladi?**

- a) jismoniy tarbiyaning muhim omillari;
- b) jismoniy tarbiyaning muhim elementlari;
- c) jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari;d) jismoniy tarbiyaning asosiy shartlari.

**31. Bolalar poyafzalining poshnasi necha sm bo'lishi kerak?**

- a) 0,5-1 sm;
- b) 1-1, 10 sm;
- c) 1-1,5 sm;
- d) 1,5-2 sm.

**32. Turli faoliyat hamda dam olishning vaqt jihatdan maqsadga muvofiq taqsimlanishi, hayot tartibi ... deb ataladi?**

- a) kun tartibi;
- b) faoliyat tartibi;
- c) munosabat tartibi;
- d) o'yin tartibi.

**33. ... jismoniy tarbiya qonuniylari, vazifalari bilan bog'liqlikda maxsus tashkil etiluvchi hamda ongli ravishda bajarishga qaratilgan harakatlar yig'indisi.**

- a) jismoniy chiniqish;
- b) jismoniy mashqlar;
- c) jismoniy madaniyat;
- d) jismoniy tarbiya.

**34. Asosiy, gigiyenik, sportga oid, badiiy, ishlab chiqarishga doir va tibbiy kabi turlarga bo'ladigan jismoniy mashqlar majmuii nima deb ataladi?**

- a) atletika;
- b) faoliyat;
- c) kiyim-bosh;
- d) gimnastika.

**35. Tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash maqsadida tashkil etiladigan erkin harakat yoki mashg'ulot – bu ...**

- a) musobaqa;
- b) o‘yin;
- c) topshiriq;
- d) mehnat.

**36. Sayr nimalarda o‘tkazilishi mumkin?**

- a) trolleybusda, avtobusda, chanada, velosipedda;
- b) kemada, avtomobilda, avtobusda, tramvayda;
- c) sayr piyoda, qayiqda, chanada va velosipedda;
- d) piyoda, mototsiklda, piyoda, chanada.

**37. Hayotiy ta’sir etish va oqibatlarning barcha miqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi hamda fikrlashning rivojlanish jarayoni – bu ...**

- a) ongning rivojlanishi;
- b) aqliy rivojlanish;
- c) fahm-farosatning o‘sishi;
- d) xotiraning rivojlanishi.

**38. Ta’lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlari, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi qanday nomlanadi?**

- a) notiqlik tarbiysi;
- b) fikriy tarbiya;
- c) aqliy tarbiya;
- d) tafakkur tarbiyasi.

**39. Bola tomonidan narsa-buyumlarning tashqi xususiyatlari (rang, shakl, o‘lcham va b.)ning anglanishi ... deb yuritiladi?**

- a) bilish;
- b) his qilish;
- c) idrok etish;
- d) fikrlash.

**40. ... bilish faoliyati jarayoni bo‘lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan harakterlanadi.**

- a) bilish;
- b) his qilish;
- c) idrok etish;
- d) fikrlash.

**41. Maktabgacha yoshdagи bolalarning fikrlashi qanday shakllarda kechadi?**

- a) ko‘rgazmali-amaliy, ko‘rgazmali-obrazli, mantiqiy-nutqiy;
- b) amaliy, ko‘rgazmali, ijodiy;
- c) ko‘rgazmali, obrazli, mantiqiy;
- d) harakatli, nutqli, obrazli.

**42. ... o‘z tabiatiga ko‘ra tasviriy (gavdalantira olish) tavsifga ega bo‘lib, unda bolalar o‘zining tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari, avval egallagan bilimlari aks etadi. Gap nima haqida bormoqda?**

- a) kompyuter o‘yinlari;
- b) ijodiy o‘yinlar;
- c) ishbop o‘yinlar;
- d) rolli o‘yinlar;

**43. O‘zbekistonda qachondan boshlab “Bilimdon” turkumidagi kompyuter mashg‘ulot-yinlari ishlab chiqila boshlagan?**

- a) 2004 yildan;
- b) 2006 yildan;
- c) 2008 yildan;
- d) 2010 yildan.

**44. “Rang va shakllarni o‘rganamiz” nomli kompyuter dasturi yoshli bolalarga mo‘ljallangan?**

- a) 3-5 yoshli;
- b) 2-4 yoshli;
- c) 3-4 yoshli;
- d) 5-7 yoshli.

**45. O‘zbekistonda “Bolalar muzeyi” qachon ochilgan?**

- a) 2008 yil, 11 fevralda;
- b) 2011 yil, 8 aprelda;
- c) 2008 yil, 11 avgustda;
- d) 2011 yil, 8 oktyabrdha.

**46. Ob’ektiv olamdagи voqeа-hodisalarni ongimizga ta’sir etishi natijasida hosil bo‘lgan tuyg‘u ... deb ataladi.**

- a) gap;
- b) so‘z;
- c) fikr;
- d) nazariya.

**47. Ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmui nima deb ataladi?**

- a) huquq;
- b) axloq;
- c) me'yor;
- d) qoida.

**48. ... har bir inson va jamiyat uyg'unlikda mavjud bo'la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko'p asrlik tajribasi natijasidir.**

- a) huquqiy me'yorlar;
- b) axloqiy me'yorlar;
- c) ekologik ko'rsatkichlar;
- d) estetik mezonlar.

**49. Bir turdag'i xulq-atvor, takrorlanadigan vaziyat, talab, standart, taqlid uchun misol, ijtimoiy fikr, did, qoida, urf-odat shaklidagi namuna – bu ...**

- a) huquq;
- b) axloq;
- c) me'yor;
- d) qoida.

**50. Ijtimoiy munosabatlar va jamiyat a'zolarining ijtimoiy ahamiyatli fazilatlari, moddiy va ma'naviy meros qanday nomlanadi?**

- a) qadriyat;
- b) fazilat;
- c) mahsulot;
- d) oriyat.

**51. Tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon – bu ...**

- a) shaxsga insonparvar yondashuv;
- b) tarbiyaga texnologik yondashuv;
- c) pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv;
- d) tarbiya jarayoniga majmuaviy yondashuv.

**52. ... tarbiyalanuvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usullaridir.**

- a) axloqiy tarbiya metodlari;

- b) axloqiy tarbiya me'yirlari;
- c) axloqiy tarbiya maqsadlari;
- d) axloqiy tarbiya natijalari.

**53. ... – tarbiyalash maqsadida boladan biror narsani qat'iyat bilan so‘rab turish bo‘lib, tarbiyalanuvchilarning ma’lum bir faoliyatini rag‘batlantirish yoki bartaraf etishga xizmat qiladi.**

- a) tavsiya;
- b) taklif;
- c) ko‘rsatma;
- d) talab.

**54. Bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiyligi maqsad asosida tashkil topgan guruuh qanday nomlanadi?**

- a) elat;
- b) urug‘;
- c) oila;
- d) jamoa.